

**TURSUN ALI MUHAMMAD**

---

---

**KURAGI YERGA  
TEGMAGANLAR**

*Polvonlar hayotidan ibratli hikoyalr,n rivoyatlar,  
sogʻlomlashtirish mashqlari*

TOSHKENT  
«Choʻlpon» nashriyoti

T  $\frac{4803000000-}{360(04) - 2004}$  -2004

ISBN 5-8250-0837-

© “Cho‘lpon” nashriyoti, 2004-y.  
© Tursun Ali Muhammad, 2004-y.

## MUQADDIMA

Har bir inson oila qurganda: «Polvon o'g'il ko'rsam», — deydi. Nima uchun polvon o'g'il? Chunki polvon deganda xalqimiz, avvalo, to'rt muchasi sog', g'ayratli, shijoatli odamni ko'z oldiga keltiradi. O'g'il uylamoqchi bo'lgan inson qator-qator, biri-biridan shirin o'g'il-qiz — nabiralar ko'rgisi keladi. Hammamizning ham Ollohdan yalinib farzand va nabiralar so'rashimizdan maqsad naslimizni davom ettirishdir.

O'quvchim!

Naslimiz sog'lom bo'lishi uchun qachondan boshlab va qanday tayyorgarlik ko'rish kerakligi haqida siz bilan o'rtoqlashishni ko'pdan dilimda tugib yurgan edim. Yaratganga beadad shukrlar bo'lsinkim, bu kun shu orzumba yetib turibman. Fikr-mulohazalarimni avloddan-avlodga qolib kelayotgan rivoyat va hikoyatlarga tayangan holda bayon etishni joiz deb bildim. Zero xalqimizda «Tulpor — biyadan, polvon — onadan», degan maqol ham bor. Shu yerda bir rivoyat keltirsam.

Buxoroning qorako'lida Ro'zimurod polvon o'tgan. Aytishlaricha, bir sayilda hammani yengib, Amir Sayid Olimxon bilan ham kurash tushgan ekan. Yiqitishga ham, yiqilishga ham ori kelib kurashayotganidan Amirning jahli chiqib:

— Nega astoydil belbog'imdan tutmayapsan? — desa,

— Amirim, meni kechiring, siz bilan olishishimning o'zi xato, endi yiqilishga or qilyapman, — degan ekan.

Shunda Amirning tantiligi tutib, kambag'al bo'lsa ham polvonni o'ziga do'st bilib, sayillarda chaqirib, kurashga solgan ekan.

Bir katta olishuvda qarshilik yosh yigit hammani qatorasiga yiqitaveribdi. Buni ko'rgan Sayid Olimxon:

— Ro'zimurod, sen chiq shu yigitga, yengganga choponim hadya, — debdi. Uzoq olishuvdan keyin Ro'zimurod qarshilik polvonni halol yiqitibdi.

Odamning «hech kimdan yiqilmayman!» degan payti bo'ladi. Qarshilik polvonning ham kuchga to'lgan chog'i emasmi, yurtiga qaytib onasiga yuragini yoribdi:

— Kelbatimiz mo'ljalimcha teng edi, lekin men undan yoshman, nega yiqildim, ona?

Polvonning validasi o'ylab turib: «Yur, menga onasini ko'rsat!» — debdi.

Ular Buxoroga, so'ng Qorako'lga kelishibdi. So'rab-so'rab Ro'zimurod polvonning uyini topishib yaqin borishsa, uning onasi cho'kka tushib tandirga non yopayotgan emish.

— Qaytdik, o'g'lim, onasini ko'rdingmi? Seni rost yiqitgan. U mendan ancha kelbatli ekan, — debdi qarshilik polvonning validasi.

Xalqimiz polvonning otasiga emas, ko'proq tuqqan onasiga rahmat deydi. Negaki, avvalo bo'lajak ona, ya'ni kelin sog'lom bo'lishi kerak. «O'g'il tog'aga, qiz ammaga o'xshaydi» degan gapni eshitganmisiz? Joyi kelganda, Qashqadaryo, Surxondaryo tomonlarda o'g'il tog'aga o'xshasa baxtli bo'ladi, deyishlarini ham eslatib qo'ymoqchiman. Bobomiz Amir Temur ham: «Farzand ko'rish va o'g'il uylashni davlat ishlari bilan teng qo'ydim», deb bejiz aytmaganlar.

Aytishlaricha, ayol homiladorlik paytida qo'rqib qolsa, bola arzimagan narsadan ham cho'chiydigan bo'lib qolarkan. Demak, farzand tarbiyasi ona qornidanoq boshlanadi.

Bir homilador ayol ko'chada ketayotlsa, oldinda borayotgan dehqonning savatidagi bir shingil uzum daraxt shoxiga ilinib qolibdi. Ayol uzumni olib chaynay boshlabdi. Shu payt qornidagi homila tilga kirib yig'labdi:

— Onajon, menga hali tug'ilmasimdanoq harom edirishni boshladingizmi?

Bo'lajak ona og'zidagi uzumni tuflab tashlab, dehqonning ortidan borib: «To'xtang, og'a, bir shingil uzumingiz daraxt shoxiga ilinib qolgan ekan. Men uzumingizdan olib edim. Egan uzumimga rozi bo'ling», — deb rozichilik so'ragan ekan. Ona qornida yig'lagan bolani Boborahim Mashrab bo'lgan deyishadi. Balki rostdir? Darhaqiqat, farzandlarimiz imonli, halol-pok bo'lib o'sishlari uchun ota-onaning yemagiga harom aralashmasligi kerak. Shu o'rinda yana bir hikoyat:

Ilgari bozorlarda meshkobchilar meshlarda suv olib yurib sotishar ekan. Bir bolakay bigizi bilan meshkobchining meshini teshib qochibdi. Jahli chiqqan meshkobchi bolaning ketidan

quvlabdi, u shahardagi eng hurmatli odamning hovlisiga kirib ketibdi. Darvoza oldiga borib nima qilishini bilmay hayron bo'lib turganida uy egasi chiqib qolibdi. Hol-ahvol so'rashgach, meshkobchi bo'lgan voqeani so'zlab berib:

— Men tirikchilik manbaimdan ayrildim, endi nima qilay? — debdi.

Bola haqiqatdan ham shu odamning farzandi ekan, uy egasi meshning pulini to'lab, meshkobchini rozi qilib jo'natibdi, keyin xotining oldiga kirib:

— Rostini ayt, o'g'limiz tug'ilmasdan oldin qayerda, qanday gunoh ish qilib eding? — deb uni so'roqqa tutibdi.

Ayol uzoq o'ylabdi va shunday javob beribdi:

— O'g'limizga homiladorlik paytimda bozordan o'tgan edim, ko'zim rastalarga terib qo'yilgan anorlarga tushdi. Boshqorong'ilik qursin, anor yegim keldi. To'g'nog'ichimni bir anorga hech kimga sezdirmay botirdim-da, sizib chiqqan bir tomchi suvini barmog'imga olib yaladim. O'zim bilib qilgan gunohim shu.

Shunda eri:

— Ko'rdingmi, xotin, o'sha anorga suqqan to'g'nog'iching bugun mesh teshadigan bigizga aylanibdi. Agar hushyor bo'lib tarbiyaga qaramasak, to'g'nog'ich uy buzadigan asbobga aylanadi, — debdi.

Ha, bobolarimizning «Nima eksang, shuni o'rasan», degan gaplarida ham jon bor.

O'quvchim, hikoyatlar mag'zini chaqishni o'zingizga havola etgan holda navbatdagi rivoyatga o'taman.

Rivoyat qilishlaricha, bir kuni bir yigit tahorat olish uchun bog' devori ostidan oqib chiqayotgan ariq bo'yiga o'tirib, suvga qo'l cho'zganda bog'dan chiroyli naqshin olma oqib chiqibdi. Yetilib pishgan olmani qo'lga olgan yigit beixtiyor uni tishlab olibdi. Og'zidagi luqmani yutib bo'lgandan keyin xayoliga «axir men birovning narsasini so'ramay yeb qo'ydim-ku?!» degan fikr kelibdi. Tuzatib bo'lmas xatoga yo'l qo'rganini anglagan yigit, rozichilik so'ragani bog' devori yoqalab borib darvozani topibdi va taqillatibdi. Darvoza ochgan mo'ysafidga bo'lgan voqeani aytib: «Nima qilsam so'roqsiz yegan luqmamga rozi bo'lasiz?» debdi.

Yuzidan nur yog'ilib turgan xushro'ygina yigitga bir oz termulib turgach, chol shunday debdi:

— Avvalo, halolliging uchun rahmat. Ko'rib turganingdek, kattagina bog'im bor. O'zim keksayib, og'ir yumushga yaramay

qolayapman. Bir yil bog'imda ishlab bergin. Keyin ikkinchi shartimni aytaman. Ko'nsang, rozi bo'laman.

Yigit so'zsiz rozi bo'libdi. Erta tongdan kelib shomgacha tinmay mehnat qilibdi. Shu tariqa oradan bir yil o'tibdi. Yigit xizmatidan mamnun bo'lgan xonadon sohibi ikkinchi shartini aytibdi:

— O'g'lim, mening ko'zi ko'r, qo'l-oyog'i yo'q, soqov bir qizim bor, agar shunga uylansang, men ham beso'roq egan olmangga rozi bo'laman.

Ha, o'quvchim! Ilgarilari beso'roq yeyilgan luqmani halollash uchun har qanday shartga ham ko'nishgan. Juvonmardlik shartlaridan biri luqmani halolab tanovul qilish bo'lgan.

Qahramonimiz bu shartga ham rozi bo'libdi. To'y-tomosh bilan nikohdan o'tishib, go'shangaga kirgan yigit to'rt muchasi sog', bir hurliqo qizga ko'zi tushibdi. «Adashdimmikan?» — degan gumon bilan tashqariga chiqib qaynotasiga yuzlanibdi:

— Menga aytgan qo'l-oyog'i yo'q, ko'r, soqov qiz o'rnida boshqasi o'tiribdi. Yana bir xatoga yo'l qo'ymay deb qaytib chiqdim.

Qaynota miyig'ida kulib:

— O'g'lim, sen adashganing yo'q, go'shangadagi qiz haqiqatdan ham mening qizim. Yomon yo'lga yurgizmadim — shuning uchun oyog'i yo'q dedim. Qo'li yo'qligi — harom ushlatmadim, nomahramga ko'rsatmaganim uchun — ko'zi ko'r dedim. Yolg'on va sharmsiz so'zlar eshitmagani uchun kar, soqov dedim. Shunday bokira qizimga kuyov izlayotganimda Yaratganning o'zi seni menga ro'baro' qildi.

Ana shu oilada bir o'g'il tug'ilibdi. Kelin farzandini emizishga ibodatga tayyorlangandek tayyorlanarkan. Go'dakka ko'krak berish barobarida Yosin surasini o'qiy boshlar, sura tugaguncha chaqaloq ham sutga to'yar ekan. Shundan «Yosin suti bilan boqilgan» degan gap qolgan ekan.

Go'dak to'qqiz yoshga kirganda Qur'onni to'liq hatm qilib «Qori» unvonini olibdi. Bu xushxabarni eshitgan ona kulimsirab o'g'liga debdi:

— Erkatoyim, qorigina bolam, agar dadang o'z vaqtida olmani tishlab qo'ymaganida yetti yoshingdayoq qori bo'lgan bo'larding, chunki men seni «Yosin suti» bilan boqqanman.

Azizlarim! Farzand tarbiyasi ham ibodat.

Zero, sut bilan kirgan jon bilan chiqadi.

## *Vatan sog‘inchi*

Qadim zamonlarda bir hunarmand qiz onasi bilan yashar ekan. Qiz o‘zi tikkan zardo‘zi kiyimlarini bozorga olib borib, boshqa mamlakatlik bir savdogar yigitga ulgurji topshirib yurib oralarida muhabbat paydo bo‘libdi. Yigit sovchi qo‘yib qizga xaridor ekanligini bildiribdi. Lekin ona qizining boshqa mamlakatga kelin bo‘lib ketishiga qarshilik qilibdi. Qizining ham yigitda ko‘ngli borligini sezgan ona noiloj to‘yga rozi bo‘libdi. Biroq qiziga shart qo‘yibdi:

— Qizim, qayerda yashasang ham baxtli bo‘l. Mamlakatlarimizning orasi olis, bordi-keldilar uzilib, qiynalib qolasanmi deb qo‘rqaman. Shartim shu, farzand ko‘rsang bolangga alla aytmayсан. Shunga ko‘nsang, roziman.

Onaning bu g‘alati shartiga qiz ko‘nibdi. Xullas, to‘ydan so‘ng kuyov kelinni o‘z yurtiga olib ketibdi. U yurt bilan bu yurt orasida yana bir mamlakat bor ekan. Onaning taxmini to‘g‘ri chiqibdi, yigit yashayotgan yurt bilan oraliqdagi mamlakat o‘rtasida urush boshlanib, o‘rtadagi aloqalar, bordi-keldilar uzilib qolibdi. Yosh emasmi, kelinchak yangi maskanga tezda o‘rganib ketibdi. Farzand ko‘ribdi va onasiga bergan va‘dasiga ko‘ra chaqalog‘iga alla aytmabdi. Lekin o‘g‘li ko‘p yig‘laydigan, injiq, kasalmand bo‘lib qolibdi. Oxiri dard bolani hayotdan olib ketibdi. Kelin ikkinchi farzandiga ham alla aytmabdi. Bunisiyam kasal bo‘lib, uxlamay qo‘ygach, enaga savdogar yigitga arz qilibdi:

— Begim, umr yo‘ldoshingizning bir ishiga hech tushunolmayman: oldingi farzandingizga ham, bunisiga ham biron marta alla aytmadi. Balki ona allasi bola dardiga malham bo‘lar... xotiningizga ayting, alla aytsin.

Yigit ayolini chaqirib:

— Eshitishimcha, bolangga alla aytmas emishsan, shu rostmi? — deb so‘rabdi.

— Ha, rost, chunki men farzandinga alla aytmayman deb onamga so‘z berganman, — deb javob beribdi u.

G‘azablangan er:

— Qanday onasan-ki, o‘z farzanding ko‘z o‘ngingda so‘lib yotgani holda, qayerdagi gapni gapirasan! — debdi.

Shunda kelin onasiga bergan va‘dasini buzib, bolasiga alla ayta boshlabdi. Mo‘jizani qarang-ki, go‘dak o‘sha zahoti yig‘idan to‘xtab, uyquga ketibdi. Kundan-kunga darmonga kirib, tuzala boshlabdi. Lekin alla aytgan kundan boshlab kelinning qonida Vatan sog‘inchi uyg‘onibdi. Shu sog‘inch tufayli u kundan-kunga so‘la boshlabdi. Alla tufayli bola sog‘ayib, ona sog‘inch-u armon bilan hayotdan ko‘z yumibdi.

Birodarlar! Onalar allasi bilan bizning qonimizga Vatan muhabbati kirar ekan. Vatan sog‘inchidan-da buyukroq sog‘inch yo‘q dunyoda. Buni o‘z boshimdan o‘tkazganman. 1999-yil yozida Xalqaro Kurash Assosiyatsiyasining topshirig‘i bilan Saudiya Arabistonida bo‘ldim. U yerdagi o‘zbeklar kaminani ehtirom bilan kutib olishdi, mehmonlarga chaqirishdi va biz dildan suhbatlar qurdik. Ana shunday suhbatlarning birida videomagnitofon yonidagi videotasmalarni ko‘rib:

— Rosa ko‘p ekan-u, qanday tasmalar bular? — deb so‘radim. Bilsam, hammasi O‘zbekistonimizning mashhur san‘atkorlari, «Mustaqillik» va «Navro‘z» bayramlarining tasvirlari ekan.

...Vatandan tashqarida qo‘shiqlarimizni jon qulog‘im bilan eshitdim. Habiba Oxunova ijrosidagi «Alla» yangraganda vujudimni ta‘riflab bo‘lmas darajada



sog‘inch qamrab oldi. Ko‘zlarimdagi yoshni ko‘rib vatandoshlarimizdan biri shu voqeani so‘zlab berdi:

— Polvon aka, mening bobom O‘zbekistondan Afg‘onistonga o‘tganlarida otam tug‘ilmagan ekanlar. Taqdirni qarang-ki, otam Afg‘onistonda, men esa Saudiya Arabistonida tug‘ildik. Mening tasavvurimda Vatan — bu kindik qoni to‘kilgan yer edi. Adashgan ekanman. Bobomning ushalmagan orzusini ro‘yobga chiqarish uchun otam birinchilar qatori O‘zbekistonga bordilar. Xeshu aqrabolarini topib o‘zlarida yo‘q, xursand qaytdilar. Navbatdagi Vatanga ketayotganlar qatorida meni ham borishga undadilar. Otamning hurmati haqqi «yo‘q» deya olmadim. Chunki men Saudiyani Vatan deb bilar edim. Hamma bilan xayrlashib, Toshkentga uchadigan tayyoraga minganimizdan so‘ng «Ota yurt qanday ekan?» degan qiziqish asta-sekin sog‘inchga aylandi. Vatan odamning qonida, jonida yashashini tayyorada bildim. Bobomdan otamga o‘tib, yurtni ko‘rgandan keyin otamni yashnatib yuborgan qon mening tomirlarimda o‘z kuchini ko‘rsatar edi. «Toshkent» tayyoragohiga tushganimda men bosgan tuproq — ona tuproq ekanligini sezdim. Yonimdagilar hayratlanib qaraganlariga e‘tibor bermay, tiz cho‘kib yerni o‘pdim. Ba‘zilar meni sajda qilayapti deb o‘ylashibdi, nima bo‘libdi, Vatanga sig‘inish ham ibodat-da!

Qarindosh-urug‘larimiz meni boshlarida ko‘tarib yurganday olib yurishdi. O‘zbekistonliklarning o‘ziga xos xislatlaridan biri mehr-oqibat ekan. Mana, qaytib kelganimga ham besh yil bo‘ldi, yana bir borib kelish orzusi bilan yashayapman. Vatandan kelgan bironta odamni ko‘ramanmi deb Baytullohning atrofidagi takyaxonalarda yurib bobomning sog‘inchini yanada teranroq his qilyapman.

Suhbatdoshim ko‘zlariga yosh to‘lib gapira olmay qoldi. Atrofga qaradim: o‘tirganlarning hammasining ko‘zlari nam edi.

«Vatanni sevmoq iymondandir» deydilar. Farzandlarimiz tarbiyasida Vatan degan so‘z asosiy o‘rinda bo‘lsin. Vatanga

muhabbat farzandlar qoniga ona suti, ona allasi bilan kiradi, azizlar.

## ***O'g'il bola tarbiyasi***

Bolalar bog'chalarida o'g'il bolalar qiz bolalarning, qiz bolalar o'g'il bolalarning etagidan ushlab yurishganini kuzatganmisiz?

O'ziga yarasha ham shirin, ham kulgili bu holat farzand tarbiyasidagi birinchi xatolarimizdan hisoblanadi. Men istardimki, qizlarimiz kichkinaligidan etagini o'g'il bolalarga ushlatmaydigan, o'g'illarimiz go'dakligidan qizlarning etagidan ushlab ketavermaydigan bo'lib katta bo'lishsin. Uyda va bog'chalarda ular qanday o'yinchoqlar o'ynashyapti — shunga e'tibor bering. Bolalar fe'li-atvorining shakllanishida o'yinchoqlarning ahamiyati katta.

Rivoyat qilishlaricha, bir odam qabriston yonidan o'tib ketayotsa, qabrlar orasida go'dak bola o'ynab yurgan emish. «Kimningdir bolasi adashib kelib qolibdi» degan xayolda bolani ushlamoqchi bo'libdi. Lekin bola ochiq qabrga kirib, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Bu voqeani u qishloqqa kelib odamlarga so'zlab beribdi. Shunda bir keksa kishi:

— O'sha qabr yoniga ikki xil o'yinchoq qo'yib poylanglar, — debdi. — O'yinchoq tanlashiga qarab qiz yo o'g'illigini aniqlash mumkin, keyin esa ushlash masalasini ko'ramiz.

Hamqishloqlar bir necha oshiq, egar, qamchin va qo'g'irchoqni qabr yoniga qo'yishibdi. Ko'p o'tmay bola chiqibdi, oldin qo'g'irchoqni qo'liga olib uyoq-buyog'ini ko'rib, ulotqirib yuboribdi, so'ng qamchinni qo'liga olib o'ynay boshlabdi. O'yin bilan andarmon bo'lgan bolani tutib olishibdi. Ollohning qudratini qarang-ki, homilador ayol o'lganda shu qabrga ko'milgan, lekin homilasi tirik bo'lib, qabrda tug'ilgan ekan. Yana bir mojiza — go'dak o'lik ona ko'kragiga kelgan sutni emib katta bo'libdi. Yaratganning amri bilan o'ttiz oy ona ko'kragiga sut kelib

turgan! Shu bolaga odamlar Go‘ro‘g‘li deb nom qo‘yishgan. Mashhur Go‘ro‘g‘li dostonida mana shunday lavhalar bor.

Ushbu rivoyat birinchidan, ona sutida bolaning haqqi qanchaligini bildirsa, ikkinchidan, qanday o‘yinchoq o‘ynashi qonida borligini ko‘rsatadi.

Farzandingiz jinsiga mos o‘yinchoq o‘ynayaptimi? O‘ynamayotgan bo‘lsa, tezda buning oldini oling. O‘g‘il bolalar bilan ko‘proq muloqotda bo‘lishga imkon toping, ular bilan o‘g‘il bolalar o‘ynaydigan o‘yinchoqlarni birga o‘ynab, qiziqting, aks holda kechikasiz.

Farzand tarbiyasida ota-bobolarimizning tarbiya bobidagi besh tamoyilchalik mukammal tamoyil bo‘lmasa kerak deb o‘ylayman. Mana o‘sha tamoyillar:

1. Ota uchun o‘g‘il besh yoshgacha podsho.

2. Besh yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolaga yoshi ulug‘roq odam erkak kishi uchun nima mumkin va nima mumkin emasligini o‘rgatadi.

3. Yetti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha farzand ota uchun bamisoli qul.

4. O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bola ota uchun— uka.

5. O‘n sakkizdan uyog‘iga o‘g‘il ota uchun do‘st.

Ha, bola besh yoshgacha — podsho! Unga doim «xo‘p» deyish kerak. Ayniqsa, o‘g‘il bolani besh yoshgacha urib, qattiq tergab bo‘lmaydi, chunki ruhi sinib qolishi mumkin. Ruhi singan bola qo‘rqoq bo‘lib, odamning yuziga tik qaray olmaydi, harakatlarida shijoat sezilmaydi. Birov bexosdan do‘ppisini ushlasa ham qo‘rqqanidan qo‘llari bilan boshini to‘sadigan, hammaga javdirab qaraydigan, himoyatalab bo‘lib qoladi. Bu o‘g‘il bola uchun — fojia. Hatto bu yoshda bolani bexos cho‘chitib ham bo‘lmaydi — yuragi tushadi. Yuragi tushganini sezsangiz, albatta yurakni ko‘tartirish kerak bo‘ladi, aks holda farzandingiz tez-tez xo‘rsinadigan, sal narsaga yig‘laydigan, injiq, rangi zahil, yegani tanasiga yuqmaydigan bo‘lib voyaga yetadi.

Aziz, onajonlar, opa-singillarim! Sizlar ham uyqusi kelmayotgan bolani «bo‘ri kelyapti», «ajina, buji kelyapti» deb qo‘rqitib uxlatmang. Chunki qo‘rqib uxlagan go‘dak aloq-chaloq tushlar ko‘rib, bosinqirab chiqadi. Kechalari cho‘chib, uyg‘onib ketadi.

Agar farzandingiz yoshlikdan qo‘rqmas, yuragi butun, ruhan tetik bo‘lib ulg‘aysa, hech bo‘lmaganda, hayotida uchraydigan qiyinchiliklarga tik boradigan bo‘ladi. Deylik, oriqqina, jussasi kichik yigit o‘ziga ikki barobar katta odamga qarshi tik boradi. Qarashining o‘ziyoq raqibini seskantirib yuboradi. Qarashidagi bu narsa shu «oriqqina» yigitning ruhiy kuchi. Qaysi bir yigitda ruhiy kuch bo‘lsa, unga albatta jismoniy kuch ham keladi.

Nima uchun besh yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolaga oiladagi ulug‘lardan biri, ya‘ni bobosi, amakisi yoki tog‘asi erkak kishi uchun nima mumkin va nima mumkin emasligini o‘rgatishi kerak? Tarbiyada o‘ta mehribonlik ko‘pincha adashtiradi. Shuning uchun ularni ota-ona emas, bolaga ko‘proq boshqa yaqinlari o‘rgatgani ma‘qul. Qolaversa, xalqimizda «qari bilganni pari bilmas» degan naql bor. Har qanday o‘g‘il bola shu yoshidan yolg‘on hech qachon kechirib bo‘lmaydigan narsa ekanligini bilsin va har bir gapirgan gapiga javob bera oladigan bo‘lsin.

Yetti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha o‘g‘il ota uchun qul dedik. Shu davr ichida farzandingizni ishlating, mehnatga o‘rgating. Buyurilgan ishning natijasini quldan talab qilganday talab qiling. Tarbiyaning mana shu mezonini qo‘ldan boy bergan odamning farzandi dangasalik va ishyoqmaslikka mahkumdir.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il nima uchun otaga kichik uka? Aynan shu davrda bolaning nazarida uni hech kim tushunmayotganga o‘xshaydi. Farzandingizning bu holatini tushunib, siz ham unga akadek xushmuomala qiling. Chunki bunday holatlar sizning ham boshingizdan o‘tgan. Iloyo biz qilgan xatolarni farzandlarimiz takror-lamasinlar.

Tarbiyani shu zaylda yo‘lga qo‘ysangiz, o‘zingizga yaxshi do‘st tarbiyalab olgan bo‘lasiz. Bolajonlarimiz bizni tushunishsa, biz ularni tushunsak qanday yaxshi! Bu sizning ham orzuvingiz emasmi axir?

### ***Rahim polvon***

Muazzam Toshkentning Mustaqillik maydonida qutlug‘ bayramga tayyorgarlik ko‘rilayotgan kunlar edi. Ishdan charchagan paytim negadir Anhorbo‘yiga borgim kelaverdi. Bilmadim, bu ona qishlog‘im — Vodilga bo‘lgan sog‘inchmi, Shohimardonsoyni qo‘msashmi...

Anhorda cho‘milayotgan bolalarni tomosha qilib xayolga berilib ketibman. Nogoh salobatli bir kishining ortimda turganini his qildim. Shundoq o‘girilib, o‘n qadamlar chamasi naridan menga ro‘baro‘ bo‘lishga taraddudlanib kelayotgan To‘xtaboy polvonga ko‘zim tushdi. U kishi bilan quchoqlashib ko‘rishdik, yetmishni qoralab qolgan bo‘lsa ham qomati tik, nigohi o‘tkir edi. Biroq To‘xtaboy akaning ko‘zlarida qandaydir mung bor edi. Fe‘l-atvorini bilaman-ku. Qancha og‘ir-yengil kunlarni birga boshdan kechirganmiz. Menga polvonlik falsafasidan ko‘p saboq berganlar. U kishining ko‘zlariga qarab nima demoqchiligini so‘zlamasidanoq fahmlar edim. Hol-ahvol so‘rashdik. Oshna-og‘aynilar sog‘lig‘ini, tinchligini surishtirdim. Nihoyat To‘xtaboy aka aytolmay turgan gapini aytdi:

— Polvon, Rahim akangiz bandalik qildi, ma‘rakasini o‘tkazib kelyapman.

— Olloh rahmat qilsin, — dedim yuzimga fotiha tortib.

Xayolim Jalolobodning Arslonbob qishlog‘iga — mashhur chavandoz Rahim polvonning yurtiga uchdi.

...Rahim polvon ellikdan o‘tganda birinchi bor kasal bo‘ldi. Bo‘lganda ham «sariq» bo‘ldi. Jigar odam tanasida qay darajada muhim ekanligini o‘shanda bildim.

Polvonning yotib qolganligini eshitib, Arslonbobga ko‘rgani bordim. Anchagina so‘lib qolgan Rahim aka sandal

chetida o'tirgan ekan. Meni ko'rib, turmoqchi bo'ldi, unamadim. Yoniga cho'kib quchoqlashib ko'rishdim.

— Odamlaram qiziq-da. Rahim aka qattiq yotibdi deyishsa, ishonibman, tuppa-tuzuksiz-ku, — dedim ko'ngillarini ko'tarib.

— Sizni aldashmabdi, haqiqatdan ham ahvolim yomon edi. Ancha tuzalganimda ko'rib turibsiz, uka.

— Nima bo'ldi o'zi?

— E, so'ramang. Dard meni, men dardni sinab ko'rdik va birinchi marta yengildim. Yengilganda ham yomon yengildim. Bir oy oldin ko'rganingizda tanimas edingiz. Quvvat ketib, hatto o'rnimdan tursam ham boshim aylanadigan bo'lib qoldi. Qattiq o'ksidim. O'zing polvon qilib yaratib, yana o'zing xor qilib qo'yding, deb Yaratganga yig'ladim. Og'ir o'ylar og'ushida uxlab qolibman. Tongga yaqin tush ko'rdim: katta bir haykal, haykal bo'lganda ham juda bahaybat. Toshdan emish. Xarsangtoshlarga ilashib yelkasiga chiqib oldim. O'rnimdan tursam, ko'zi bilan barobar bo'libman. Shu payt tosh haykalning ko'zi ochilib ketdi. Tirik ekan deb so'z qotdim:

— Nega menga Xudo dard berdi? Nega quvvatimni olib qo'ydi?

Haykal javob berdi:

— Sen polvon bo'lib tug'ilding. Menga ayt, biron marta seni birov xafa qildimi?

— Yo'q.

— Biron ta polvondan yengildingmi?

— Yo'q.

— Hayotingda hech qiyinchilik ko'rdingmi?

— Yo'q.

— Biron marta shukr qildingmi?

Uyg'onib ketdim. Kun endi yorisha boshlabdi. Tashqariga emaklab chiqib, tahorat olib ibodat qildim. Ishonasizmi, shu kundan boshlab harakat qila boshladim. Endi devorlarga suyanib yurayapman. Polvonlarning fe'li o'zingizga ma'lum. Na o'g'limga, na ayolimga yetaklatishga

or qildim. Otimni egarlab egar qoshidan tutdim-da otga yetaklatdim.

Rahim aka miyig'ida kulib qo'ydi.

— Xullas, otim bilan sayr qildim. Men uni qashladim, erkaladim, u meni yetakladi. Ayol kishi-da, kelinayangiz otga rashk qilib: «Muncha shu otingizga yopishib qoldingiz», — dedi.

— Bu ot emas, bu tulpor, tentak, bu mening qanotim, — dedim ayolimga...

Rahim polvonning ovozi shundoqqina qulog'im oldida jarangladi.

— Uka, hammamiz ham bir kun o'lamiz. Boradigan yerimiz bir.

To'xtaboy aka shunday deb tin oldi.

— Yaxshi edi-ku, nima bo'ldi o'zi?

— Og'ir yuk ko'tarmang deyishgan ekan. Axir qaysi polvon yuk ko'tarmay, o'zini sinamay yashay oladi? Keyingi qaytovlaganda og'ir bo'ldi. Polvon shu dard bilan olamdan o'tdi. Ma'rakasiga bordim. Arslonbobliklarning g'alati odatlari ko'p. Ma'rakada ot so'yishadi. Qon chiqarish uchun fotiha berishga meni tashqariga chaqirishdi. Boquvdagi otlardan semizrog'ini yetaklab chiqishdi. Shu payt otga ko'zi tushgan Rahim polvonning bevasi:

— Usta, shu otni so'ymoqchimisizlar? — deb so'rab qoldi.

Men kichikrog'ini tanlashimiz kerak ekan-da, deb xijolat tortib:

— Udum shunaqa ekan, nima, so'ymay qo'ya qolaylikmi? — desam,— yo'q, yo'q, so'yaveringlar. Faqat minib yurgan otini so'yinglar, — dedi.

— Axir, qizim, bu uloqchi ot bo'lsa, uvol ketmaydimi? Mingilaring kelmasa, sotinglar, buning puliga xashaki otlardan to'rttasini beradi, biror kunlaringga yarab qolar, — dedim. Kelinning ovozi qaltirab, qomatini yana ham tik tutib:

— Yo‘q, men begim mingan otni hech kimning tagida ko‘rishni istamayman, so‘yaveringlar! — dedi.

Eh, polvon, bilmagan ekanman, shogirdimning ayoli ham polvon ekan!

To‘xta polvon kurash va ko‘pkarida chiqib-sinaverib dag‘allashib ketgan mushtining orqasi bilan ko‘z yoshlarini artdi.

Mening Rahim polvonga havasim keldi.

## *Havas*

Lochin akamdan: «Semiz ekansan, sendan polvon chiqmaydi», deganga o‘xshash dakki gaplar eshitib yurgan kezlarimda qishloq do‘konidan bitta tosh sotib olganman, bir pudli tosh. 11-12 yashar bolaman. Toshni velosipedgayuklab, ikki o‘rtog‘im yordamidazo‘rg‘auyga olib keldim. Ishqibozlikni qarang, toshni ertalab ham o‘ynayveribman, kechqurun ham. Birinchi kunlari mushaklarim og‘rib, yurolmay qoldim. Qo‘llarim qotib qolgandek, uzatsam og‘zimga yetmaydi, bazo‘r ovqatlanaman. Onam koyiydilar. «Bor-e», deb qo‘l siltagani ko‘z qiymaydi. Buning ustiga «Polvon bo‘laman», deb ahd qilganman. O‘qituvchimga aytdim. «Mashqni davom ettiraver, o‘tib ketadi», dedi u.

Toshni arqonga bog‘lab o‘rikka ilib qo‘yib, yelkam bilan uraman. Shunaqa og‘riydi, shunaqa og‘riydi... qani, chidab bo‘lsa! Yelkam ko‘karib chiqdi, keyin qizara boshladi. Bora-bora qizil dog‘lar ham, og‘riq ham g‘oyib bo‘ldi. Ko‘rmagandek bo‘lib ketdim. Hozir bu voqeani kulib eslayman.

Ilk mashqlar so‘ngidagi og‘riq polvonlikni tanlagan har bir kishi uchun o‘ziga xos sinovdir. Og‘riqni yenggan — polvon, og‘riqqa taslim bo‘lgan esa... Bir ishni boshlash mushkul, boshlagandan keyin esa jur‘at kerak. «Ko‘z qo‘rqoq, qo‘l botir», deb bejiz aytishmagan axir.



## **«Tortinmay yeyavering...»**

El orasida, polvonlar ko‘p ovqat yeydi, shuning uchun ular kuchli bo‘ladi, degan gaplar ham yuradi. Hatto ustozim Lochin polvon yig‘inlarda hazillashib: «Kunda nahorga qirqta tuxum, bir mahal osh, bir mahal sho‘rva, bir paqir pomidor, yarim paqir tuzlangan bodring, sakkizta sutga qorilgan jizzali patir, to‘rt bo‘xonka non yeyman», deydi.

Shu gaplarni eshitishgan ekanmi, Boysunda tomosha ko‘rsatayotsak, bir xonadonga mehmonga chaqirishdi. Bordik. Suyuq ovqat tortilganda hammaga chinni kosada, menga esa katta shokosada keltirishdi. Yana uy egasi sekin yonimga kelib: «Polvon, tortinmay ichavering, ovqat ko‘p, yana quyib kelaman», deydi deng.

Polvon yegan ovqati bilan emas, mashqi bilan polvon. Hammadan ko‘p taom yeb, hammadan ko‘p ko‘tarsa — bu oddiy hol. Hamma bilan barobar yeb, hammadan ko‘p ko‘targanga qoyil qolsak arziydi!

## ***Shopirdan chiqqan polvon***

Lochin akam ilgari Vodil moliya boshlig‘ining shopiri bo‘lgan. Doim moshinasining orqasida uch-to‘rtta tosh olib yurgan. Boshlig‘i u yer-bu yerga kirib ketganda yashirincha mashq qilib, o‘zini sovitib turgan. Eng yaqin birodarlarigayam bildirmagan — polvonlikka bo‘lgan qiziqishini sir tutgan. Shohimardonlik-da, xalq sayillaridan ko‘p ta’sirlangan, polvonlardan ilhomlangan, dorbozlarga havasi ketgan, so‘z ustalari — notiqarning yurakni jizillatadigan gaplaridan huzurlangan. Polvon bo‘lish istagi kuchaygandan kuchaygan. Birinchi marotaba quvalik dorbozlar unga bag‘rini ochgan, ular bilan el oldiga chiqqan. Shundan so‘ng shopirligini tashlab, polvonlikka berilgan.

Lochin akam irodasi mustahkam, o‘ziga juda talabchan odam. Shu sababdanmi, odamlarni tosh ko‘tarish bilangina

hayratga solish u kishini qanoatlantirmay qo‘ygan. Chunki hayratga tushgan odam ma‘lum muddat aqlga bo‘ysunmaydi, junbishga keladi, ana shu pallada tomoshabinning ko‘ngliga yo‘l topib, ularni ezgu ishlarga safarbar etmoq lozim. Buning uchun polvondan yuksak notiqlik mahorati talab qilinadi. Voizlikka ehtiyoj polvonlikdan-da oshib tushdi. Ustoz samarqandlik Isroil abdolning huzuriga borib, u kishiga shogird bo‘ldilar. Ikki yil xurjunlarini ko‘tarib, el oraladilar, hunar o‘rgandilar. Endi Lochin polvonning tilidayam bor, qo‘lidayam. Shunday qilib, ustoz ochiq maydonda o‘yin namoyish qilishga birinchi bo‘lib asos soldilar. Ham so‘zi, ham qo‘li bilan dillarni zabt etdi. Ochiq maydondagi tomoshalar turini yana bittaga boyitdi.

### ***Men kutgan kun***

— Hamma yoshligini entikish bilan eslasa, kamina uyalib, xijolat chekib eslayman. Men aytay — siz eshiting. Saboq bo‘lsa, ajabmas.

Hamsuhbatimning bu so‘zlari meni beixtiyor hushyor torttirdi. Uni diqqat bilan tinglay boshladim.

— Odobni kimdan o‘rganding, desa, beodobdan, degan ekanlar.

Suyagim buzuqligidanmi, tengqurlarim ichida qo‘rboshidek katta bo‘ldim. Aytganim — aytgan, deganim — degan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, nohaqligimni bilsam ham «sen nohaqsan» degan odam ko‘zimga xunuk ko‘ringan. Albatta bir aybini topib adabini berib qo‘yardim. Biron mahalladoshimiz mendan shikoyat qilmaydigan kun yo‘q edi. Otamdan «nasibam»ni olib, uni o‘sha kuniyoq arz qilgan bolaga qaytarib «topshirardim». O‘n olti-o‘n yetti yoshlarimda «men zo‘rman» degan o‘y miyamga qattiq o‘rnashib olgan edi. Hamma meni hurmat qiladi: to‘yga borsam to‘yboshidan boshlab barchasi qayerga o‘tqazishni bilmay qoladi. Tinchgina qaysam ko‘chaning boshigacha tavoze bilan kuzatib qo‘yishadi deng. Endi bilsam, o‘shanda meni ko‘rgan odamning ensasi

qotarkan-u, yana bir «ish» chiqarmasin deb, nochorlikdan ichida so'ksa ham tashida kulib kutib olarkan. Men nodon buni obro' sanab gerdayib yurar ekanman.

Kurash bo'lmaganda bu yurishim Vodilda yana qancha davom etardi, bilmayman. Negadir o'sha kuni chetdan bepisandlik bilan tomosha qilib tursam, oldinda o'tirgan oqsoqollar yonlariga chaqirib qolishdi. Borib o'tirishim bilan ulardan biri:

— O'g'lim, sen ham qishloqning taniqli odamlaridan birisan, biz bilan polvon yigitlarga fotiha berib o'tir, — dedi.

Ko'nglimda bir iftixor tuyib oqsoqollar qatoriga o'tirdim. Kurashchilarning orasida bir chuvakkinasi chiqqanini qatorasiga yiqita boshladi. Taraf qolmagach, chollardan biri menga:

— Ishongan polvonimiz sensan, o'zing bir yoqli qilgin, — dedi.

G'ashim kelib o'tirgan edim, bir so'z demay o'rnimdan turdim. Hech qachon kurashmaganman, lekin ko'rib yurganim uchun ushlaganimdan olaman deb o'yladim. Adashibman, adashibman! Menda quruq kuch, unda malaka bor ekan, yengildim. Yiqilgandayam uyatdan yer bilan bitta bo'ldim. Boshqa payt bo'lganda darrov yoqasidan olardim, lekin qariyalarning qatorida turib bunday qilishni o'zimga ep ko'rmadim. Uch-to'rt kun ko'chaga chiqishga betim chidamadi. Bilardim, har kuni oltidan sakkizgacha maktabda yoshlar kurashdan mashq qilishadi. O'n daqiqasi kam sakkizlarda maktabga borib hammaning tarqalishini kutdim. Ichkariga kirib, uyoq-buyoqni yig'ishtirayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchisi Temirjon akadan kurashni o'rgatishni iltimos qildim. Maqsad: yanagi sayilda o'sha polvonchani elning ko'zi oldida yiqitish. Oldiniga bir chekkada ushlab urayin deb ham o'yladim, ammo bari bir hamma mendan gumon qiladi dedim.

Temirjon akaga rahmat, men bilan rosa mashq qildi.

— Uka, sen odamlardan uyalma, kurash raqib bilan o'rganiladi, — deb tayinladi. Birinchi kunlari yosh bolalar

ham hazilakamiga meni yiqitishdi, xijolat bo‘lib tashlab ketay desam, yanagi sayilni o‘y layman. Sekin-asta men ham yiqita boshladim. O‘qituvchining mendan xursandligini aytmaysizmi, ota-onamni-ku qo‘yaverasiz!

Men kutgan kun keldi. Sayil kuni tumonat odam yig‘ildi. Bir yil oldin meni yiqitgan polvon bilan yuzma -yuz keldim va musobaqaning oxirgi bosqichida uni yutdim. U meniki bo‘ldi. Hamqishloqlarimning quvonganini ko‘rsangiz edi! Men kurashga shunday kirib keldim, kuchim kundankunga oshdi, lekin qayta birovga qo‘l ko‘tarmadim. Bir kuni onam:

— Iloyim Mahkam polvon nevara-chevaralarining rohatini ko‘rsin. Sendan arz qilib yig‘laganimda: «O‘g‘lingizni kurashga tortamiz, kurash o‘zi tarbiyalaydi», degan edi, gapi rost ekan. O‘sha sayildan buyon sen o‘zgarding, — dedilar.

Ey, birodarlar, haliyam o‘zimiz kurashning qadriga etmaymiz. Kurash odamni bosliqlikka, bag‘rikenglikka o‘rgatadi. Shuning uchun aksariyat polvonlarning ko‘ngli bo‘sh bo‘ladi. Jirradi, urushqoqlarni urmang-so‘kmang-u, kurashga torting.

### ***Ixlosning sharofati***

1972-yil Farg‘ona maishiy xizmat ko‘rsatish texnikumida jismoniy tarbiyadan dars berardim. Bolalardan guruh tuzib, turli o‘yin sirlarini o‘rgata boshladim. Shu guruhga bir yigit keldi. Bir qo‘li qiyshiq va kalta. Yoshligida chiqib ketib, qiyshiq solingan ekan.

— Polvon aka, tuzalarmikanman? — dedi.

— Qo‘lingizning og‘rig‘ini qoldirishimiz mumkin, lekin mana bu holati to‘g‘rilanmasa kerak, — dedim va imkon qadar yordam bera boshladim. O‘zi ham berilib mashq qilaverdi, natijada butunlay sog‘ayib, oxiri sirk guruhimda ishlay boshladi. Sakkiz yillik mashg‘ulotlardan keyin mendan fotiha olib, Andijon viloyatining Bo‘z tumanida

katta bir sirk guruhi tuzib, polvon bo‘lib ketdi. «Ixlos qilsang, cho‘pdan topasan», deydilar-ku. Hamma narsaga erishsa bo‘ladi. Yana bir bolaga (isini yozib o‘tirmayman) do‘xtirlar yuragi zaif deb aytishgan. «Og‘ir yuk ko‘tarma, odamlarga ko‘p qo‘shilma, birov bilan janjallashma, yuraging ko‘tarmaydi», deb qayta-qayta tayinlashgan. To‘ylarda uning bir chekkada turib-turib, ketib qolganini ko‘p ko‘rganman. Doim xafa, ruhan tushkun holda yurardi. Bir kuni to‘xtatib: «Nega xafasan?» deb so‘radim. U: «Do‘xtirlar shunaqa degan», dedi. Men yupatib: «Hozirdan o‘zingni g‘amga berib qo‘yma, yonimga ke, mashqlarga qatnash», dedim.

Paxta terimi paytida xirmonda paxta quritishga yordam berardim. Bir yarim oy mobaynida bolani ham mashq qildirib yonimda olib yurdim. Avval yengil, keyin og‘irroq ishlarni buyurib, mashqqa sola boshladim: paxta ortar, tosh ko‘tarar edi. Tezda yuziga qon yugurib, jon kirib qoldi. Ammo bir marta yurak o‘ynog‘i ham bo‘ldi. Shundan so‘ng, imkoniyatingga qarab mashq qilgin, deb maslahat berdim. U xursand: «Aka, mashqlar yordam beryapti, kechalari tinch uxlaydigan bo‘lib qoldim», dedi. Bora-bora et qo‘yib, odam havas qiladigan yigitga aylandi. Shifokorlar unga hatto uylanishni ham tavsiya qilishmagan ekan. Uylandi, bola-chaqali bo‘ldi. Mutlaqo dori ichmaydigan darajaga yetdi. Zamonaviy tabobatning kishi ruhiyatiga salbiy ta‘sir etadigan tomonlari ham bor-da: «asabingizni asrang, tinchlik kerak, magnitli havo oqimidan ehtiyot bo‘ling, dori iching, ukol oling...». Mashq qiling, sog‘liqqa foydasi ko‘p, degan gapni kam eshitamiz. Odamlarga jismoniy tarbiya kishining hayot-mamoti ekanini tushuntirmoq lozim. Ba‘zi sho‘x bolalar yiqilib, qo‘l-oyog‘ini chiqarib yoki sindirib oladi. Bir oy gipsda turgan qo‘l yo oyoq qimirlamaydigan, bukilmaydigan bo‘lib qoladi. Men shunday bolalarga faqat jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishni maslahat beraman. Ayniqsa, ot-onalar buni bilib qo‘yganlari ma‘qul. Mabodo, sovuq yeb

yoki ukol natijasida bolaning oyog'i quruqshab, falajlana boshlasa, buning davosi yo'q, degan gaplarga ishonmang. Olloh taolo odamni shunday yaratganki, ilojsizman deyishning o'zi noto'g'ri. Odam tanasidagi a'zolarning har biri ikkitadan markazga ega. Biri faoliyatini to'xtatsa, ikkinchisi tirik bo'ladi. Kishi falajlansa, faol markaz ishdan chiqqan hisoblanadi. Lekin passiv markaz hayot-ku. O'sha markazni uyg'otib yuborish kerak, xolos. Mashq natijasida falaj a'zoda og'riq paydo bo'ladi. Bu — bemor tuzaladi, degan so'z. Charchoq va og'riqdan xursand bo'lish kerak.

Milliy polvonlik o'yinlarimizda toshni havoga irg'itib, tushayotganda ko'krak bilan urib yuboradigan usul bor. Shug'ullanmagan odam ursa bormi? Ko'kragiga sal tegib ketsa ham o'n kun o'zini ololmay yuradi. Biroq og'riqning zo'ridan ko'zdan yosh chiqib ketsa ham uraverish kerak. Badan oxiri shunga ham ko'nikadi — og'rimaydigan bo'lib ketadi. Odam o'zini majbur qilishi ham kerak-da. Uyg'onmay yotgan imkoniyatlarini uyg'otib yuborishi lozim. Ichingizdagi: «E, qo'y, nima qilasan shuni», deyayotgan shaytonga: «Bekor aytibsan, shunga erishmasdan qo'ymayman», deya olish, kurashish va yengish kerak. Shoir Jamol Sirojiddin yozganidek, ichimda mingta dushmanu bitta do'stim bor.

Bu o'rinda, mingtaning gapiga quloq solmay, bitta do'stning aytganini qilgan ma'qul. «Xah, shu narsaga erisholmadim-a», deyish qayoqda-yu, «Yo'q, shunga erishmasam bo'lmaydi», deyish qayoqda! Afsuski, odamzod xudoning bu ne'matiga juda befarq — hamma ham o'z imkoniyatidan to'la foydalanishni xohlamaydi.

O'ziga bo'lgan ishonch, yuksak marralarni egallash istagi ham inson ruhini ko'taradi, qudratini oshiradi. Buni ongiga singdira olgan kishining badanida shunga yarasha kuch paydo bo'ladi. Masalan, sport ustasi bo'lsam bas, deb harakat qilayotgan kishi bilan o'zbek sporti obro'sini ko'tarish, uni dunyoga tanitish niyatidagi sportchi orasidagi farq yer bilan osmoncha. Bu ham o'z-o'zini ishontira bilishning sharofati.

## *Hadik*

Shohimardon bahordan kuzgacha gavjum. Yoz oylarida har yurtidan kelgan mehmonlarga to'lib ketadi. Mehmonxonalar, choyxonalar, xonadonlar bag'rini ochib sayyoxlarni iliq kutib oladi. Aksari o'zbeklardan iborat o'sha sayyoxlar qanday hordiq chiqarishadi. Nazirniyozini berib biror ovqat pishiradi-da, o'g'il-qizini halinchakka chiqarib qo'yib ketaveradi. Va shu ishini kelgusi yil o'sha paytgacha og'izdan qo'ymay maqtanib yuradi. Yosh-yalanglardan juda zo'r chiqqani birorta qiz bilan gaplashar, boshqa hech gap yoq. Agar maydonlarda kurash bo'lsa bormi, odamlar «ho'p dam oldim», deyishlariga arziydi, g'ururi uyg'onadi. Axir otabobolarimiz muqaddas joylarning qadriga yetgan Ko'li Qubbonga, Yordon azizga, Hazrat Ali maqbarasini ziyorat qilish-u Jannat ariqda cho'milishga bir kundan vaqt ajratishgan. Har kuni besh-o'n joyda kurash bo'lgan. Shunday katta yig'inlardayam birovning dilini birov og'ritmagan. Polvonlar maydonda yuma-lanishib «Men yengildim»lab yurmagan, bakovullar bilan so'kishmagan. Mag'lubiyam, g'olibiyam hurmat saqlashgan, tantilik qilishgan. Chala yiqitish u yoqda tursin, belbog'i yechilib ketganiyam «men yengildim», deb maydonni tark etgan. Ajdodlarimizning ruhi bezovta qildimi, ommaviy kurash o'tkazmoqchi bo'ldim.

Milliy kurashning viloyat terma jamoasi bir guruh, shohimardonliklar bilan vodilliklar ikkinchi guruh, mehmonlardan tashkil topgan uchinchi guruh o'zaro kuch sinashadigan bo'lishdi. Kurash boshlandi. O'zim hakamlik qilib turibman. To'g'risini aytishim kerak, polvonlarning vazni vazni bilan kurashishi kurakda turmaydigan gap ekan. Polvonning chiqishiga to'sqinlik qilar ekan, viloyat terma jamoasidan chiqqan g'oliblarni ham qishloqda mehnatda pishgan uch to'rttasi garchi vazni yengil bo'lsa ham obro'sini ikki pul qilishdi. Ommaviy

kurash naqadar afzalligini isbotlashdi. Kurash qizigandan qizidi. Bir mahal qotmadan kelgan yigitcha sheriklarining «hay hay»lashiga qaramasdan o'rtaga yurdi, unga raqib bo'lmish ham kelishgan yigit edi. Bel ushlarid, olishuv boshlandi. Ikkisi bir birini rosa siltashdi, sinashdi, polvonlarning kuchi teng ekanmi, bir biriga bo'y bermay, tuzzalarini tizzalariga tiraganicha turib qojishdi. Shu payt haligi o'rtaga birinchi chiqqan qotma yigit bo'shshib, o'zini qo'yib yubordi.

U bilan kurashayotgan yigit raqibining holatini darhol angladi. «Ha, uka, sizga nima bo'ldi» desam, «Yo'q, yaxshi, yaxshi», deydi yu, rangi dokadek oqarib ketdi. Sheriklarining aytishicha, qotma yigit Afg'onistonda bo'lib, qattiq yaralangan ekan. Shashti balandligidan hali jarohati tuzukroq bitmayoq, kurash tushibdi. O'yin boshida oshnalarining «hay-hay»lagani ham shundan ekan. Kurash payti yarada qattiq og'riq qo'zg'alibdi. Kurash taomiliga ko'ra o'zidan: «Ku-rashsizmi?» – deb so'radim O'rtoqlari unashmaypti-yu, o'zi nuqui: «Tursunali aka, Tursunali aka», dey-di. Aftidan: «Iltimos, meni maydondan chiqarib yubor-mang, og'riq o'tib ketadi, keyin yana kurashaman», deyayotganday edi...

Maydonda oshqalar kurashi davom ettirishdi, oradanyarim soatlar vaqt o'tgach haligi yigit yonimga keldi:

Ruxsat bering, aka, og'riq qoldi, ajrim qilib olaylik.

Men yigitning gapini qaytarolmadim, raqibini chaqirdim. Endi raqibi ko'nmaydi deng. «Men kasal odam bilan kurashmayman», deb.

Unisi: «Men sog'man, kurashaman, bir yoqli bo'lmaguncha hisobmas», deydi. Noiloj raqib ham chiqdi. Kurash davom etdi. Bir ozdan so'ng yaralangan yigit qo'l siltab qoldi:

— Kurashsa tuzukroq kurashsin-da, nimaga ataylab belini tutib beryapti?

— Ataylab qilganim yo'q, siz mahkamroq ushlayvering!  
— deydi unisi.



O‘shanda umrimda birinchi marta tomoshabinlarning kurashni yig‘lab kuzatishganining guvohi bo‘ldim. Ba‘zilar hatto ovoz chiqarib yig‘lashdi. Shunday ko‘nglim bo‘shashdiki:

— O‘ og‘aynilar, bu kurashchilarning ikkovi ham g‘olib, shunday emesmi?— deb yubordim oxiri. Xaloyiq meni quvvatladi. Ikkovining ham qo‘lini ko‘tardim. Boshqa iloj yo‘q edi.

Odamlar ko‘ngli erib, polvonlarni olqishlarga ko‘mib tashlashdi. Men shunday polvon ukalarimiz borligidan g‘ururlanardim.

### ***Mashqini olish kerak***

Bo‘laman degan polvonlar eshitgan, ko‘rgan mashqlarini bajarishga urinadilar. Avval qiynalibroq, mashqini olgach esa maromiga etkazib bajarishadi. Toki hadisini olmaguncha qo‘yishmaydi.

Bir polvon O‘zbekistonga kelib, tomosha ko‘rsatib yurgan ekan. U odati bo‘yicha o‘yin tugagach: «Men bajargan usullarni kim takrorlay oladi?» — deb so‘rarkan. Tomoshabinlardan biri chiqib:

— Men! — debdi.

O‘rtani boshqarayotgan odam:

— Ertaga falonchi falonchi polvonning usullarini takrorlaydi! — deb e‘lon qilib yuboribdi.

Ertasi kuni haligi odamning yaqinlari, mahalladoshlari yig‘ilib kelishibdi. Har nechuk, polvonning aynan o‘ziday tosh o‘ynatolmasa ham, yaxshi o‘yin ko‘rsatibdi. Keyin polvonga qarab:

— Mening ham o‘z usulim bor, senga ko‘rsataman, takrorlay olasanmi? — deb so‘rabdi. Polvon rozi bo‘lgach, sahnaga bir qop bug‘doy va bir otni yetaklab chiqib, undan qopni otga o‘ngarib, o‘zining ham otga minishini so‘rabdi. Polvon qopning uyog‘idan tortsa, buyog‘i osilib ketarmish, buyog‘idan tortsa, uyog‘i osilarmish. Xullas, so‘rov-shartni bajarolmabdi. Shart qo‘ygan odam bu ishni

osongina uddalabdi, chunki bu uning kundalik qilib yurgan ishi ekan.

Shunga o'xshab, har kimning o'z mashqi, o'z usuli bo'ladi.

### ***Polvonlar oriyati***

Kurash degani shunisi bilan qiziqarliki, unda oriyat birinchi o'rinda turadi. Shu narsa bo'lmasa, olishishning ma'nosi ham yo'q. Bir voqeani aytib beray, sizga. Uni Rishtonning Jahonobod qishlog'ilik Azim polvon akamizdan eshitganman.

Tojikistonning Xo'jand viloyati bizga yaqinligi tufayli bordi-keldimiz yaxshi. Shu joydan jahonobodliklarni ham to'yga aytib ketishibdi. Birinchi kuni ham, ikkinchi kuni ham polvonlarimizning sira omadi kelmabdi. Xo'jandliklar: «Voy-bo'! Juvarisini chiqarib yubordik-ku, bularning!» deb kulishibdi. (Jahonobodda jo'xori ko'p ekilgani uchun shunday askiya qilishgan). Polvonlarga bu gap rosa alam qilibdi. Shunda Azim polvon: «Men qishloqda qolgan Nurmat polvonni opkelaman, sal mazasi yo'qligi uchun kelmagandi, tuzalib qolgandir...», deb Jahonobodga jo'nabdi. Qishloqdan Nurmat polvon bilan kechasi otda yetib kelibdi. Nurmat polvon manaman deganiniyam «kelisop» qilib uravergan ekan. Endi jahonobodliklar: «Voy-bo', juvari tuydi bo'p ketdi-ku, bas endi», deb kulishibdi. Vodiyda askiyadan hech kim xafa bo'lmaydi.

Xo'jandliklarning kurash qoidalari biznikidan bir oz farq qiladi. Masalan: kurashchi oyog'i bilan ilkis yerga bir cho'kkalab olsa ham ular «bo'ldi-bo'ldi» qilaverishadi. O'zi asli ularniki to'g'ri, chunki odam hushyorroq bo'ladi-da shunda. Mana, hozir bizda cho'kkalab qolsa ham emaklatib sudrab yuraveradi — toki kuragi yerga tekkuncha. Qadimda bu narsaga juda qattiqqo'llik bilan qarashgan. Meni bir narsa doim o'ylantirib keladi: farg'onacha kurash usulining temir qoidasini ishlab chiqish vaqti etgan. Shunda ko'pgina

g'irromliklarga mutlaqo chek qo'yish mumkin bo'ladi. Xo'jandliklar ham bizning usulda bellashishadi, lekin ular belbog'larini uchidan bog'lab olishadi, kamida ikki-uch marta qo'lga o'rashingizga to'g'ri keladi. Farg'onaliklarning aksariyati bunga ko'nikolmaydi. Polvonlardan eshitib qolaman: ko'pincha bularning yiqilishi shundan. Ikki-uch kun o'sha yerda «uzun belbog'lilar» bilan olishib, ancha-muncha havosini olgachgina, basma-bas olisha boshlaydilar.

### ***O'mrovi sindi***

Farg'onalik Alisher degan o'rtog'im bor. «Mengayam polvonlikni o'rgating», deyavergach, shogird qilib oldim. Tez kunda o'yinlarimning anchasini o'rganib oldi. Bir kuni birga Yangiyo'lga tomosha ko'rsatgani bordik. Ehtimol, ko'rgandirsiz, olti-yettita tosh baravar keltirilib, tishlab ko'tariladi. Shunda og'irlik tishlar va yelkaga tushadi. Bir tomoshada Alisher, toshlarning ikki tarafiga ikki kishini qo'shib ko'taraman, deb qoldi. Bilamanki, u bunga hali tayyor emas. «Qo'y», desam ko'nmadi. Ikkita odamning og'irligi hech qancha bo'lmaydi, deb o'yladi shekilli. Holbuki, o'sha odamlar oltmish kilodan bo'lsa ham ikkisi bir yuz yigirma kilo tosh bosadi. Bilasiz, og'ir atletikada toshga grammlab og'irlik qo'shiladi. Noiloj rozi bo'ldim, qarab turibman: bir intildi — ololmadi, ikkinchi marta intildi — yana ololmadi. Agar ko'tarolmasa men borib ko'tarishim kerak, aks holda fayzimiz ketadi. Bechora: «Shuncha xalq ichida ko'tarolmasam, nima degan odam bo'ldim?» deb o'ylagandir-da, «Yo-o-o-o!..», deb bir chirangandi, nimadir «qars» etdi-yu ko'tarilgan toshning bir tomoni yerga qulab tushdi.

— Nima bo'ldi? — desam, «tamom», — dedi bo'shshib.

Oriyatni qarangki, o'mrov suyagi singuncha kuchanibdi-ya!

Biz o'yinni davom ettirdik. Ichimizni mushuk tirnasa ham tomoshabinlarga kulib turdik. O'shanda har daqiqa

yildek tuyulgan edi. Polvonlik — nozik san'at, uning har bir qoidasiga albatta amal qilmoq shart.

### ***To'pponcha polvon***

Izboskanning Lug'umbek qishlog'ida To'pponcha polvon degan inson bor. Yoshi oltmishlar atrofida. Ko'p kunlik kurashlarga qatnashar bo'lsa, ot choptirib kelgan, necha kun olishsa olishib, hammani yiqitib, yana ot solib ketavergan. Qartayibroq qolgan kezlarida yosh yigit bilan to'yda kurash tushib, uch marta yiqilgan. Yigit uchala safar ham chalib yiqitgan. Shunda uning achchig'i chiqib: «Hozirgi yoshlarning kurashi shu bo'lsa, boshqa kurashmaganim bo'lsin!» debdi-yu kurashni butunlay tashlabdi.

Kurash ichida yurgan odamning kurashdan birdan ko'ngil uzib ketishi qiyin. Qayerda kurash bo'lsa, polvonning ham oyog'i o'sha tomonga tortaveribdi. Kurash tushishga-ku tushmabdi, biroq tek turishga ham yuragi qurg'ur qo'yabdi. U kurashlarda hakamlik qilib, mard, halol kurashchilar sharafini himoya qilibdi.

Bir kuni katta sayilda uni o'sha g'irromlik bilan yiqitgan yigit kurash tushibdi-yu, To'pponcha polvon kurashga hakamlik qilibdi. Kurash qizigandan qizib borarmish, ikkala polvon harchand urinsa ham bir-birini sira yiqita olmasmish. Yengilishdan qo'rqqan g'irrom polvon eski odati bo'yicha raqibini chalib yiqitibdi. Shunda hakam: «Halol!» deb e'lon qilib yuboribdi. Tomoshabinlar o'rtasida norozilik, qiy-chuv ko'tarilibdi. Shu payt o'sal bo'lgan g'irrom polvon hakamning oldiga kelib: «Nega endi halol deysiz, men axir chalib yiqitdim-ku?» desa, To'pponcha polvon: «Yo'q, o'g'lim, senga halol. Sen axir hamisha shunaqa yiqitar eding-ku!» debdi. Qani endi yer yorilsa-yu, haligi yigit yerga kirib ketsa! U hakamga bosh egib: «Jon, ustoz, meni kechiring, o'shanda men sizni emas, o'z polvonlik nomusimni yerga urgan ekanman», deb uzr so'ragan ekan.

## *Abduqodir polvonning hikoyasi*

Bizda azaldan qirg'izistonlik polvonlar bilan bo'ladigan bellashuvlar murosasiz kechadi. Azimjonning to'yiga O'rta Osiyo chempioni Dehqon polvon kelib qoldi. U vaqtlar Usmon polvonning ham dong'i ketgan paytlar. Zo'r kurash bo'lishini hamma sezib turibdi. Ikkovining avvalgi olishuvlarini ko'rganlar u yer-bu yerda aytib yurishadi. Mayda-chuyda kurashlar tugagach, hamma ularga qaray boshladi. Sekin yonlariga borib: «Chiqasizlarmi?» dedim. «Chiqsak chiqaveramiz-da», deyishdi. «Ammo bir-biringizni yiqitish yo'q». Polvonlar rozi bo'lishdi. O'rtaga taklif qilib qo'ydim-u, o'zim qaltirayman. Axir hazilakam polvonlarmi ular? Ikkalasining ham obro'sini saqlash kerak.

Bir xumordan chiqib olgilari kelganmi yo bir-birovini poylab kelishganmi, bel olishib, tapira-tupur olisha ketishdi. «Hay, hay», deb shoshib qoldim. Ikkovining ham shashti baland. Bir payt desangiz, Dehqon polvon: «Hayt!», deb Usmon akani yig'ishtirib ko'tarib solsa bo'ladimi! Shu turishida ko'tarib ursami? «Bo'ldi-bo'ldi»lab zo'rg'a tushirib oldik. Bir xudo saqladi. Ikkoviga ham bittadan to'n berib, ajratib qo'ydik.

Bir kuni Usmon akanikiga o'tib qoldim.

— Ha, qalaysiz, aka? Dehqon polvon duoyi salom aytib yubordi, «borib holidan xabar olib qo'y», deb jo'natdi, — dedim hazillashib.

— Qiztaloq, ja-a obi-tobidaykan-a, zang'ar, — dedi.

— Nega unday deysiz, tashlavorsa yer ko'tarardi-ku?

— Yaxshiyam ushlab qolding, bo'lmasa pachaqlavorardi.

Qornimni ushlab qotib-qotib kuldim. Keyin sekin so'radim:

— Rostini ayting, Dehqon polvon zo'rmi, sizmi?

— Dangalini aytaymi? Dehqonga taraf yo'q, besh marta kurashgan bo'lsam, uch martasida halol ko'tarib solgan.

— Ja-a o'zingizni pastga urvormang, aka.

— Be, meni yiqitganim nima bo‘pti, ikki marta arang harom-xarish qilib eplaganman. Lekin bu gaplarni go‘rda aytasanmi!

Shunda Usmon polvonning mardligiga tan berganman.

O‘z raqibini tan olish ham polvonlik-da!

### ***Oq qayinga qoqilgan mix***

Tojikistonning Kolxozobod degan tumani bor. Ana shu joyga borib o‘yin ko‘rsatyapmiz. Ko‘rgan bo‘lsangiz, taxtaga qo‘l bilan mix qoqib, tish bilan sug‘urib oladigan tomoshamiz bor. O‘yin ko‘rsatayotganimizning uchinchi kuni tomoshabinlardan biri: «Polvon, siz mana shu taxtagayam mix qoqib berolasizmi?» deb bir taxtani olib chiqdi. Qarab, kapalagim uchib ketdi — taxta oq qayindan edi. Bu shunaqa qattiq yog‘och bo‘ladiki, mix qoqilmay egilib ketaveradi. Lekin ochiq maydon, hamma qarab turibdi, qanday yo‘q deysiz. Rozi bo‘ldim.

Qo‘limni rosa aylantirib kelib, kuchimning boricha ursam ham mix bir enlicha kirmasa bo‘ladimi! Yana urgan edim, qayrilib ketdi. Axiyri, mixning ustiga chap qo‘limni qo‘yib, uning ustidan o‘ng qo‘limni bolg‘a qilib qattiq urgan edim... xayriyatki, mix kirib ketdi. O‘zimni ayamagan ekanman, besh-olti kungacha qo‘lim og‘rib yurdi. Mix-ku, o‘tishga o‘tib ketdi, endi uni tishda sug‘urib olish kerak. Shu tishlab, yuqoriga qarab tortaman, bo‘ynimning tomirlari cho‘zilib ketganga o‘xshaydi, lekin mix aqalli «qilt» ham etmasa-ya. Ikkita shogirdimga taxtani ushlatib qo‘yib, men buyoqqa, ular uyoqqa tortdik ham bari bir chiqmadi. Xalqning qarab turgani, o‘zingizning oriyatingiz, «ertaga qanday bosh ko‘tarib yuraman?» degan andisha... Jonholatda: «Bari bir yul-lib olaman», deb kuchanib shunaqa tortdimki, mix huddi ombir bilan sug‘urilgandagiga o‘xshab «qisir-qisir» qilib sug‘urila boshladi. Bildim: qo‘yib yuborsam, shu holicha qolib ketadi. Mixning qalpog‘i tagida uni yog‘ochda mahkam tutib turuvchi to‘rt-beshta qirra tishlari bo‘ladi. Tortayot-

ganimda tishim shularga tegib, sidirilib sinib ketibdi. Lekin sugʻurib oldim. Oʻsha kundan boshlab xalqning ishqibozligi ikki barobar oshdi-yu, lekin bir necha kun birov chaqirsayam burilib qarayolmay, butun gavdam bilan qayrilib qaraydigan boʻlib qoldim. Oriyat alomat narsa ekan-da.

### ***Hoʻkiz bilan olishuv***

Asakalik Sotvoldi degan oʻrtogʻim aytib bergan bu voqeani:

— Koʻchada bir hoʻkiz olomoni qoʻrqitib, zanjirini sudragancha kelyapti. Oʻrtogʻimga: «Oʻртоқ, mana shu hoʻkizni yo sen, yo men bir iloj qilaylik endi, desam», oʻrtogʻim: «Hozir men boplayman buni», dedi-yu hoʻkizga roʻpara keldi. Hoʻkizni yaqinlatib, shoxidan ushlab bir tomonga qattiq buragan edi, hoʻkiz muvozanatini yoʻqotib, oʻmbaloq oshib tushdi. Soʻng yotgan hoʻkizni turtib turgʻizdi-da: «Mana endi bemalol yetaklab ketaveringlar», dedi. Haqiqatdan ham hoʻkiz boʻynini egib, jimgina ketdi. Hayvon ham kuchga tan berarkan-da!

Gap shundaki, avvalo polvonning yuragi polvon boʻlishi kerak. Bunday odamning yuragida tavakkal qilish tuygʻusi kuchli boʻladi. Margʻilonlik Ubaydullo degan bir polvon oʻrtogʻim: «Doʻstim, menga odamning kuchiyam pisand boʻlmay qoldi, qani endi hayvonot bogʻidan bir sher qochsa-yu borib uni tutib bersam», derdi.

### ***Hayron boʻladigan joyi yoʻq***

Rivoyat qilishlaricha, bir podsho ovga chiqibdi. Oʻzining merganligini koʻrsatib qoʻyish maqsadida xotiniga uchib kelayotgan qushni koʻrsatib:

— Ana shu qushni ikkala oyogʻi juft holda urib tushiraman, — debdi. Kamonning ipini tarang tortib, moʻljalga olib otgan ekan, oʻq haqiqatdan ham qushning bir oyogʻidan oʻtib, ikkinchisiga sanchilibdi. «Qalay?»

degandek podsho xotiniga qarab qo'yibdi. Xotini esa pinagini buzmay, sovuqqonlik bilan:

— Hayron bo'ladigan joyi yo'q, yaxshi mashq qilibsiz, — debdi. Podsho qoyil qolib, olqishlamagani uchun xotinini saroydan haydab yuboribdi.

Xotin o'z uyiga kelib, otasidan yangi tug'ilgan buzoq sotib olib berishni iltimos qilibdi. Otasi ham qizining ra'yini qaytarmay, yangi tuqqan sigir olib beribdi. Xotin buzoqni har kuni og'ilning tomiga olib chiqib qo'yarkan. Sog'ish vaqtida tomga chiqib, buzoqni yelkasida ko'tarib tushar, emizdirib bo'lgach, yana yelkasida tomga opchiqib qo'yarkan.

Shu tariqa oylar, yillar o'tibdi. Buzoqcha katta ho'kiz bo'lib etilibdi. Podshoning xotini bu mashg'ulotini davom ettiraveribdi.

Bir kuni podsho saroyiga ho'kiz yetaklagan ayol kirib kelibdi va shohga arzi borligini aytibdi. Ruxsat bo'lgach, ayolni ho'kizi bilan podshoga ro'para qilishibdi. Ayol nihoyatda xushmuomalalik bilan:

— Podshohi olam! Sizning dong'i ketgan polvonlaringiz bor deb eshitdim. Mana shu ho'kizni ular ko'tara olisharmikan? — debdi. Podsho polvonlarini chaqiribdi. Tekin tomoshaga tumonat odam yig'ilibdi. Polvonlar ho'kizning tagiga kirib, yelkalari bilan ko'tarishga harchand urinishmasin, o'rnidan ham qo'zg'atisholmabdi. Ikki polvon bir bo'lib ko'tarishibdi ham bo'lmabdi. Uch kishi urinib ham bu ishni uddalay olmabdi. Shunda ayol: — Ana endi navbat menga! — debdi-da, ho'kizni yelkasiga dast olib, taxtning oldigacha ko'tarib chiqib yuzini ochibdi. Podsho ne ko'z bilan ko'rsinki, o'zining uch yil burun haydab yuborgan xotini. U hayratdan hang-mang bo'lib qolibdi. Shunda xotin:

— Hech hayron bo'ladigan joyi yo'q, olampanoh, bu oddiy, muntazam mashqning natijasi, xolos, — degan ekan.

Qissadan hissa shuki, sabr-toqat bilan muntazam ravishda shug'ullanish orqali kishi istagan sohasida istagan natijaga erishishi mumkin.



Shiftga termulib yotgan nogiron ukam! Ertaga men seni ko'chada to'rt muchang sog' holda ko'rsam, hayron bo'lmayman. Chunki sen muntazam mashq bilan kasallikni yengasan. Ishonaver! Sen kasal emassan. Faqat o'zingda matonat topa olsang — bas.

Polvon bo'lishni orzu qilgan ukam! Sendan albatta polvon chiqadi. Ozg'in gavgang, kuchsiz bilaklaringga qarab o'ksinma, astoydil shug'ullanaver!

## *Rivoyat*

Pirimiz Hazrat Ali haqida bir rivoyat keltiray.

Bilingki, pirimiz Ollohning eng kuchli insonlaridan biri, erkasi bo'lgan. Rosa kuchga to'lgan paytlarida:

— Ey, Xudo, mendan ham kuchliroq odam yaratganmisan yo faqat menmi? — deb so'raganida ovoz kelgan ekan:

— Ha, yaratganman. U Rustam edi. Sendan ancha oldin yashagan.

— Hech bo'lmasa ruhini ko'rsat, bir ko'ray.

— Tepalik ustiga chiqib, uyog'iga qara.

Ali ko'rsa, jarlikda bir odam ikkita uydek-uydek toshni navbatma-navbat osmonga otib, o'ynab kelyapti. Toshlarini tashlaganda yer silkinib ketibdi.

Oyoq-qo'li bo'shshib o'tirib qolgan Ali:

— Yaratganingga ming marta shukr-u, meni Ali qilib yaratguncha Rustamning otini yetaklovchi shotiri qilib yaratsang bo'lmasmidi? — degan ekan.

Rustamga o'z davrida bir tilsimotni yechish to'g'ri kelgan ekan. Shart qirq kun sovuqdan, qirq kun issiqdan o'tib keyin yechilarkan. Qirq kun sovuqdan o'tibdi-yu, issiqning bir yeriga kelganda hech chidab bo'lmabdi. Shunda Rustam:

— Ey, Xudo, odamzodga nasib yetadimi shu tilsimotni yechish? — deb so'raganda javob eshutilibdi:

— Nasib qiladi, faqat senga emas, Aliga nasib etadi.

Ortiq yurolmay qolgan Rustam shu yerda o‘tirib-o‘tirib orqaga qaytib ketibdi. Vaqti-soati kelib Aliga ham shu tilsimotni yechish navbati etibdi. U ham sovuqdan o‘tib, issiqning o‘sha yeriga kelganida holdan ketibdi va Xudoga nola qilibdi:

— Bu vazifani bajarishga nahot sen bergan kuchu bardosh yetmasa?

— Atrofingga qara, — degan ovoz eshilibdi.

Qarasa, chang bosgan bir xarsang. Xarsangga o‘yib xat bitilgan emish. Changni artib o‘qisa: «Ey, Yaratgan egam, meni Rustam qilib yaratguncha, shu tilsimotni yechish nasib etadigan Alining oyog‘ini yuvadigan qul qilib yaratsang bo‘lmasmidi?» — deb yozilgan emish. Shunda pirimiz qolgan kuch-bardoshini bir yerga yig‘ib, issiq masofani yengib o‘tgan ekanlar.

Qissadan hissa chiqarib olish o‘zingizga havola.

### ***Yuzimni ko‘rishmasin...***

Polvon borki, bir fe‘li bo‘ladi, fe‘li bor odam qiziq-qiziq voqealarni ko‘rgan, boshdan kechirgan bo‘ladi.

Kolxozlar endi tuzilgan kezlar, ot-ulov kam, texnika yo‘q. Xalq tomosha-yu sayillarga o‘ch. Vodillik Abdulla polvonning kuchga to‘lgan payti. Kal Abdulla desa, Farg‘onaning chor-atrofi biladi. Til-jag‘dan ham, kuch-quvvatdan ham xudo bergan. Tanish-bilishi sochining tukidan ham mo‘l. Hatto Usmon Yusupovday odam bilan ham «sen»lab gplashadi.

Bir kuni Oltiariqda o‘tayotgan sayil haqida xabar keladi. Qishloq jamoasining raisi va xo‘jalik rahbarlari shu sayilga borish uchun odamlarni yig‘ishadi. Hamma yig‘ilgandan keyin qarashsa, Abdulla aka yo‘q. Ikkitasi zing‘illagancha polvonnikiga chopishadi. Biroq hech qancha vaqt o‘tmay suvga tushgan nonday bo‘shashib, quruq qaytib kelishadi:

— Ha, nima gap?

— Borolmas ekan!

— Nimaga borolmaydi?

— Qo‘sh haydayotgan ekan...

— Qo‘shini kurash tugaganda haydasayam bo‘lardiyu...

Elchilar oldiniga jinday xijolat tortishgan bo‘lishib, so‘ngra miyig‘ida kulishadi:

— Rais aka, boshqa sababi bor.

— Xo‘sh-xo‘sh?

— Polvonning ishtonini kelin ayam yuvib qo‘yibdilar, kiyib borgani boshqasi yo‘q ekan.

— Qo‘shni yalang‘och haydamayotgandir?! Senlarga yolg‘on gapirgan, vaqtni qizg‘anibdi.

— E, yo‘q, rais aka, chopon kiyib olgan, etagini qayirib ko‘rsatdiyam.

Birdaniga kattaning yuzi yorishibdi:

— To‘xtanglar bo‘lmasam, o‘zimiz borib olib ketamiz.

Qishloq jamoasining raisi, kolxoz rahbari va yana uchto‘rt kishi qo‘sh haydalayotgan yerga yetib borishibdi.

— Qani, ho‘ kal, tezda bet-qo‘lingni yuv, aravaga chiq, Oltiariqqa sayilga boramiz, qo‘shni manavi bolalar yig‘ishtirib qo‘yishadi.

Abdulla polvon, g‘ururi baland odam-da, ishtonim yo‘q edi, deb aytmabdi. Aravaga o‘tirishib, chaq-chaqlashishib, boyagi ahvol polvonniyam, kattalarniyam eslaridan chiqib ketibdi.

Oltiariqlik deganiyam juda kurashga ishqiboz xalq-da: tomoshabinidan polvoni ko‘p. Kurashni rosa miriqib ko‘rishayotganda polvonning o‘rtoqlari uning qo‘ltig‘iga suv purkab tezlashibdi: — Bularga vodillik polvon qanday bo‘lishini bir ko‘rsatib qo‘y! Hali bular Abdulla polvonni ko‘rmabdi, dunyoga kelmabdi!

Abdulla akayam hovliqib, o‘zining gavdasini yashirib, bo‘ynini qisib turgan polvonga: «Mana, men chiqaman!» — deb yuboribdi. Raqibi baquvvat ekan, chiqa solib Abdulla akani dast ko‘tarib, aylantira boshlabdi. Chirpirak bo‘lib aylanayotgan Abdulla aka etiga shabada tekkandagina ishtoni yo‘qligini eslab qolibdi. Shunda u raqibining qulog‘iga:

«Og‘ayni, shoshilinchda ishtonsiz kelavergan ekanman. Mayli desangiz, kurashni to‘xtatsak», deya shivirlabdi. Kurashga berilib ketgan raqib to‘xtashni xayoliga ham keltirmasmish. Bu odamga gap uqtirib bo‘lmasligini sezgach, sharmanda bo‘lishdan qo‘rqqan Abdulla aka «Do-od!» — deb baqirib yuboribdi. Bu baqiriqdan qo‘rqib ketgan raqib oyog‘i chalishib, yiqilib tushibdi. Polvonni bosib tushgan Abdulla akaning choponi boshiga yopilib qolibdi. Ketil ochilib qolgandan keyin: «Bu polvon kim ekan o‘zi?» — degan shivir-shivir boshlanganda, u: «Ketimni ko‘rishsa ko‘rishsin, betimni ko‘rishmasin», deb choponini boshiga chirmab yig‘indan qochib chiqib ketibdi. Kurash tugab qaytishayotganda hazilkash do‘stlari: «Ha, Abdulla, yiqitar ekansan, nega dodlading?» deyishsa, polvon: «Men yiqitishdan oldin bir baqirib olaman-da», dermish.

### **«Ha», degan tuyaga madad**

Polvonning kuchidan tashqari jinday hovuriyam bo‘lishi kerak. «Muxlis, ishqiboz, tarafdor» deganlarning barisi polvonning ruhini ko‘taradi, kuchiga kuch, quvvatiga quvvat qo‘shadi. «Ha, degan tuyaga madad» degan gap bekorga og‘izdan-og‘izga o‘tib bizgacha yetib kelmagan.

Baliqchining chinobodida Ummat polvon degani o‘tgan. Xudo rahmat qilgur, kurash desa Hirotga borib kelishdan ham toymaydigan shinavanda ekan. Har hafta 250 chaqirim piyoda yo‘l bosib Qo‘qondagi sayilga borarkan. Qo‘qonning Chorsu maydonini o‘sha kezlarda polvonlar xo‘b obod qilgan ekan-da. Nainki butun vodiyni, balki butun Turkistonning ishongan polvonlari shu yerga yig‘ilishib, lozimdan lippa, ko‘ylakdan yoqa qolguncha olishgan. Uncha-munchasini sanoqqa qo‘shmaydigan Ummat aka o‘zi bopini topib, bel ushlabdi. «Tanlab-tanlab tozisiga uchrabdi» deganlaridek, raqibi mo‘ljalidan kuchli chiqib

qolibdi. Bor kuchini to‘plab: «Hayt!» — deb chappa-rasta qilib ura ham tikka turarmish-da! Buyog‘iga olib otibdi, uyog‘iga olib irg‘itibdi, samara bermabdi. Kech kiribdi, polvonlarni ajrim bo‘lmay ajratib olishibdi. Kurashning davomi ikki kun keyinga qoldirilibdi. Mulzam tortgan Ummat aka o‘sha zahotiyuq qishlog‘iga jo‘nabdi. O‘ziga yaqin birodarini olib, yana iziga qaytibdi. Raqibi endi uni ko‘tarayotganida oshnasining: «Ha, Ummat!» — degan ovozi yangrabdi.

Og‘aynisining xayqirig‘i uning kuchiga kuch qo‘shib, raqibini yengibdi. Keyin maydondan chiqib o‘rtog‘ini bag‘riga bosibdi-da unga: «Menga, «Ha, Ummat!» — yetishmayotgandi», debdi. Chinobodda «Ha, Ummat!» — degan ibora shundan qolgan ekan.

### ***Savati kabira***

To‘lanboy Qurbonovning nomi polvonlar orasida ham, ixlosmandlar o‘rtasida ham juda mashhur. Qo‘qonlik bu ustozimiz mahoratlarini asosan sahnalarda ko‘rsatganlar. Hozir yoshlari bir joyga borib qolganidan kam ko‘rinadilar. O‘z vaqtida ko‘p va xo‘b tomoshalari bilan xalqning olqishiga sazovor bo‘lganlar, hatto Elbrus, Jerebsov kabi mashhur pahlavonlarga yelkadosh turganlar. Aytishlaricha, oltmishinchi yillarda Xrushchyov O‘zbekistonga mehmon bo‘lib keladi. Mehmonni kutib olish tantanasiga saxiy zaminimizda yetishadigan barcha sabzavot va mevalardan solingan savat tayyorlashadi. Savati kabirani ko‘taradigan odam topilmaydi, shunda bu yumushni To‘lanboy aka zimmalariga oladilar va bir o‘zlari savatni azot ko‘tarib, Xrushchyovga peshvoz chiqadilar. Nikita Sergeevichning yonidagi shotirlaridan to‘rttasi savatni polvonning qo‘llaridan zo‘rg‘a qabul qilib oladilar.

Polvonlar shunaqa, aqlga sig‘maydigan ishlar qilishib, kishilarni lol qoldirishadi.

## *Saxiylik*

Tangri taolo yaratgan bandasining o‘zi bir xilqat, sir-sinoat, mo‘jiza. Shuning uchun ham hayotning issig‘igayam, sovug‘igayam chidaymiz, yashaganimiz sayin hayotimiz qiziqarli bo‘lib boraveradi va yana yashagimiz keladi. Yuz yil umr ko‘rib ham ko‘zi ochiq ketadiganlar qancha!

Insonning noyobligi, imkoniyatlarining mo‘lligi shu qadarki, u hatto o‘limga ham chap bera oladi. Gapim quruq bo‘lmasligi uchun rivoyat keltiraman.

Aytishlaricha, suygan bir qulining qazosi yaqinlashib, jonini olishga Azroil alayhissalom kelibdilar. Shunday bo‘lishini kutib shipgatermulib yotgan Ollohning qaroli yuragining to‘rida asrab yurgan duoni o‘qibdilar. Jon olmoqqa kelgan Azroil duoni eshitgan zahoti taqqa to‘xtabdi. Unga yaqinlashmabdi, ortiga qaytishga majbur bo‘libdi. Bir necha marotaba o‘z vazifasini bajarolmabdi, lekin bu holni oshkor etmabdi ham. Oradan ancha vaqt o‘tkazib yana o‘sha muslimning oldiga kelibdi. Bu gal ham faqiri fuqaro Ollohning kalimasini yod aytibdi. Azroil yana quruq qaytibdi. Axiyri hech narsa qilolmagach, Yaratganning huzuriga borib arz qilibdi: — Falonchi bandangning umri tugagandi, omonatga borsam sening xos duolaringni o‘qib meni chetlatdi, jonini ololmadim.

— Mening shunaqa bandalarim ham bor-da! — debdi Tangri.

Ha, Ollohning iftixor qiladigan bandalari bor. El og‘zida yurgan odamlar ham uning suygan bandalaridir. Ne tongki, polvonlar ham bundan mustasno emas. O‘shning novqati qadimdan polvonlar makoni. Qo‘li bo‘shagan odam borki, bekor turmaydi. Ro‘para kelganni chaqirib, ke, siltashamiz, deb turadi. Ayniqsa, yosh-yalangni siltashga ko‘p chaqirishadi. Shu boismi, Novqat janjal-to‘polondan yiroq, kuchini qayerga sarflashni bilmaganlarning bari kurash bilan band. Ular polvonlarning bo‘y-bastlariniyam, og‘ir-

yengiliniyam surishtirishmaydi. Aslidayam shu, polvon o‘z imkoniyatidan bir qadar katta yumushni bajarsa polvon-da! O‘zi tengilarni yiqitib polvonman degani nimasi?!

Odamlari kurashga muhabbat qo‘ygan Novqatga o‘ttizinchi yillarda yot bir polvon kelibdi. O‘ziyam polvonmisan polvon ekan. Novqatliklarni bitta-bitta yiqitaveribdi. Kech kirib odamlar xomush tarqalibdilar. Yot polvon novqatliklarning kuragini yerga tekkizishga tekkizib qo‘yib juda mulzam tortibdi, hatto qayerda tunashni ham bilmabdi. Bir kambag‘alroq odamning darvozasini taqillatib, joy so‘rabdi. Uy egasi yoshi o‘tib qolgan mo‘ysafid ekan. Mehmonni ichkariga taklif qilib, oldiga dasturxon solib kutib olibdi. Kechki ovqatdan keyin mehmon: «Bir gap aytsam...», deb qolibdi.

— Ayting...

— Hech kimga lom-mim demaysizmi?

— Demayman.

— Ertaga menga raqib qolmaganda siz chiqasiz!

— Men-a?

— Ha, siz. Unamaganimga qo‘ymay majburlab kurashasiz.

— Kuchim yetmaydi-ku?

— Hozir o‘zim o‘rgataman, lekin zinhor-bazinhor ikkovimizning kelishganimizni birov bilmasin.

Mehmon mezbonga o‘zini qanday tutishi-yu, qanday ko‘tarib urishigacha ko‘rsatib, kelishib olibdi.

Ertasiga odam yig‘ilib, kurash boshlanibdi. Mehmon yana ancha talabgorni yiqitibdi. Oxiri yurak yutib birov chiqolmay qolibdi. Polvon maydonning o‘rtasiga chordana qurganmish, bakovul ovozi boricha baqirarmish:

— Polvonga chiqadigan odam bormi-yo‘qmi?!

Shu payt odamlar orasidan kechagi mo‘ysafid o‘rnidan turibdi:

— Polvonga men chiqaman!

Hamma «yarq» etib jur‘at qilgan mo‘ysafidga qarabdi. Maydonda o‘tirgan polvon e’tiroz bildiribdi:

— Yoshi o‘tib qolgan odam bilan kurashmayman, tovoniga qolib yurmay tag‘in.

Mo‘ysafid ham bo‘sh kelmabdi:

— Polvon bo‘lsang o‘zingga, bironi kamsitma, oldin kurash, yengib, keyin gapir!

Bakovul ham novqatlikning tarafini olibdi:

— To‘g‘ri aytyapti, oldin kurashing, yiqitganingizni ko‘raylik.

Tomoshabinlar bakovulni qo‘llashibdi.

Polvon «xohlar-xohlamas» rozi bo‘libdi. Hammaning ko‘zi ularda emish. Salgina sun‘iy harakat butun rejani buzadi. Polvon mo‘ysafidni ayamay uyoqqa, buyoqqa otib, yiqitilmagan bo‘lib, ishqibozlarni rosa ishontiribdi. Asta kelishilgan usulga tushib beribdi. Mo‘ysafid bundan foydalanib, aylanasiga uribdi. Olamni xayqiriy tutibdi, mo‘ysafidni ko‘tar-ko‘tar qilib yuborishibdi. Novqatning sha‘nini himoya qilgan «polvonlar»iga bor pullarini tutqazishibdi. Kambag‘al mo‘ysafid shu bahona boyib ketibdi. Yot polvon esa odamlar mo‘ysafid bilan ovora bo‘lib turishganda g‘oyib bo‘libdi. Uning kimligini, qayerdanligini hozirgacha hech kim bilmas ekan.

### ***O‘pkangni bosib yur***

Marg‘ilonlik bir akamiz bor. Bo‘y-basti juda kelishgan. Toshkentda o‘qib yurgan kezlarida qiziqib kurashni o‘rganibdi, boks tushadigan bo‘libdi. Oshna-og‘aynisi orasida obro‘si juda oshib ketibdi. O‘ziga ishonchi kundan-kunga ortib, ro‘para kelgan har qanday odamni «to‘xta» deb qadam bostirmaydigan holga yetibdi. Maishatga puli qolmagan kuni tavakkal deb istirohat bog‘iga boribdi. Ovloqroq joyda bir odamning yo‘lini to‘sib: «Ataganingni uzat!» — desa, g‘iring demay yonidan pul chiqarib beribdi. Osongina topilgan daromad ertasiga yana o‘sha yoqqa boshlabdi. Qo‘ying-chi, shunga o‘rganibdi — pul tugasa tamom, istirohat bog‘iga yoki odam xoli joylarga borib, hunarini ishlatibdi. Bir kuni



chiroyli, kelishgan qiz bilan ketayotgan yigitni chamalasa, sal pachoqroq, puf desa uchib ketgudek xoli bor emish. Shartta ularning yo‘lini to‘sib, yigitning qorniga pichoq taqab: «Boringni chiqar!» — debdi. Qiz uzoqlashgach, yigit qorniga taqalib turgan pichoqni tig‘idan ushlab itargan ekan, akam orqaga surilib ketibdi, pichoqni olaman desa, kuchi yetmabdi, qattiq tortsa tig‘i unda qolib, sopi uqalanib chiqibdi. Hech dami qaytmagan akamni bu kutilmagan voqea esankiratib qo‘yibdi. Pichoqni «egasida» qoldirib, uqalangan sopini siqimlagancha qochvoribdi. Izza tortganidan bir haftacha tashqariga chiqolmabdi. Uyqusi ham, turgisi ham kelmabdi. Bir kuni eshikog‘aning yonidan o‘tayotsa:

— Qayoqlarda yuribsan, bir yigit senga manavuni tashlab ketuvdi, — deb qog‘ozxalta tutqazibdi. Ochib qarasa...o‘sha sopsiz pichog‘i va bir parcha qog‘oz. Qog‘ozda: «O‘pkangni bosib yur!» degan yozuv bor emish.

Hech qachon odamning gavdasiga qarab baho berilmaydi, hamisha aql bilan ish yuritmoq kerak. Ana o‘shanda «O‘pkangni bosib yur!» degan gap xalq orasida kamrog‘izdan-og‘izga ko‘char edi...

### ***Polvon nomini xalq qo‘ysin***

Og‘aynilar, eshitganmisiz-yo‘qmi, Andijonning Baliqchi tomonlarida Rayim polvon deganlari bor. Xalq polvon deb tan olgani uchun o‘sha yerdagi kurash maktabini u kishining nomi bilan atashgan. Baliqchiliklar shunaqa xalqki, nomi chiqqan kishilarini ming yilda ham unutmaydilar, zo‘rma-zo‘rakilik bilan soxta obro‘ qozonganlarni esa tillariga ham olmaydilar. Xullas, nom qo‘yishni xalqning o‘ziga qo‘yib beravering. Rayim polvon ana shunday xalqning ko‘nglidan joy olgan, baxti chopgan insonlardan.

Bir kuni Baliqchida katta sayil bo‘libdi. Tumonat odam yig‘ilgan. O‘z polvonlariga ishongan baliqchiliklar bu kun chap tomonlari bilan turishganmi yoki Ollohning irodasi shundaymi, mehmonlarning qo‘li baland kelaveribdi.

Muxlislarning xunobi oshgan, birov qo‘l siltab davrani tashlab ketgan, birovi mag‘lubiyat «mazasi»ga ko‘nikolmay, g‘udrangan, nosqovoqlarning qopqoqlari ochilib, bo‘shab qolgan. Xaloyiqning hayqirig‘i yangrabdi, og‘zi to‘la nos.

— Rayim polvon chiqshin davyaga, Yayim polvon!

Rayim polvonni surishtirishsa, u kishi betob bo‘lib, kasalxonada yotgan ekan. Uch-to‘rt yigit darhol polvonning oldiga borishibdi:

— Shunday kunda kasalxonaga balo bormi?! Sovrinni boshqalar olib ketaversin-u, Rayim polvon bu yerda pusib yotaversin ekan-da, a?!

Isitmada kuyib yotgan polvon do‘xtirning ruxsatisiz kasalxona ust-boshida o‘zini derazadan tashlab, sayil bo‘layotgan yerga yetib kelibdi. Hafsalasi pir bo‘lgan xaloyiq endi tarqala boshlagan, boshqa tarafkash qolmaganligiga ko‘zi yetgan «zo‘r» kiyinayotgan ekan.

Noumid shayton ekan-da, xalq bemor polvondan ham umid qilibdi. Iztirob to‘la ko‘zlarni, uyatdan egilgan boshlarni ko‘rganda xasta polvonga ham kuch qaytar ekan. Kasal bilan sog‘, kuch bilan oriyat olishuvi boshlanibdi. Nima qilsa ham Baliqchi farzandi emasmi, bir na‘ra tortib, raqibini bosib tushibdi. Boshqa hech narsa bilmasmish... O‘ziga kelsa, kasalxona yo‘lida, xaloyiq qo‘lida, odamlarning boshlari uzra ketayotganmish.

Buning mazasini boshidan o‘tganlar biladi, xolos...

### ***Kim nimadan qo‘rqadi?***

Izboskandan Ali polvon degan juda mashhur polvon chiqqan. Balki eshitgandirsiz?

Menimcha, Said Ahmadning «Qirq besh kun» romanida tasvirlangan Alining prototipi shu kishining o‘zi bo‘lsa kerak. So‘yilgan qo‘yni to terisini shilib olishguncha orqa oyog‘idan ko‘tarib turgan ham shu polvon.

Bilib-bilmay gunoh ish qilib qo‘ygan insonlar albatta o‘sha fosiq amallarini savob ishlar bilan yuvmoq umidida

bo'ladilar. Umr bo'yi urinishlari oqibatida yana elning nazariga tushib, qilgan xatosi yoddan ko'tariladi. Polvon ham shunday insonlardan edi.

Ali polvon yarim tunda kolxoz bedasidan o'g'rincha o'rib, orqalab ketayotgan ekan, tuyqus oldidan qorovul chiqib qolibdi. Bo'ynida illati borning iligi qaltiraydi deganlaridek, sarosimaga tushgan polvon nima qilarini bilmay, bir qo'li bilan qorovulning boshini mijib qo'yibdi. Qorovul «uh-h-h!» debdi-yu, ko'ngli ozib, yiqilibdi. Uning yiqilganini ko'rgan polvon suv olib kelib yuziga sepibdi, bari bir bo'lmabdi. Bedani tashlab, qorovulni orqalab kasalxonaga jo'nabdi. U odam rosa o'n besh kun deganda tuzalibdi. Shu-shu Ali aka har qanday vaziyatda ham o'zini bosarkan. Bosiqlik ba'zilarining nazarida qo'rqqolikka o'xshaydi. Bir toifa odamlar o'zlarining qo'rqqoligini bosiqlik bilan niqoblamoqchi ham bo'ladilar. Lekin haqiqiy botirlar qo'rqqol deyishlariga zarracha parvo qilmay, og'irkarvonligicha qolaveradilar.

Beda voqeasidan qattiq iztirob chekkan Ali polvon kunlarning birida past bo'yli bir kishi bilan gap talashgan. Polvon raqibini insofga chaqirish befoydaligini bilgach, salgina do'q urgan. Bundan «pakana»ning zardasi qaynab, devorga suyab qo'yilgan kurakni ko'tarib Ali akaga tashlangan. Polvon bunga ham zarar yetkazishdan cho'chib, qochgan, u quvgan. Devday odamning kurak ko'targan pak-pakana, kichkinagina odamdan qo'rqib, qochib borayotganini bir tasavvur qiling-a. Beixtiyor, davangirday bo'lmay o'la, qochib yurganini qaranglar, deysiz. Aslida, polvonlar ortidan kurak o'qталib yuguradigan pakanalardan emas, o'zlarining kuchlaridan qo'rqadilar.

### ***Xosiyatli tush***

Odamning uzoq vaqt eslab yuradigan eng yorug', eng totli damlari sanoqli bo'lgani kabi, xotirasiga muhrlanib qoladigan tushlari ham kam bo'ladi. Ehtimol aksi hamdir. Bu har qalay mening shaxsiy fikrim.

Hamon shirin bir orziqish bilan eslab yuradigan ana shunday e'zozli tushlarimdan birini bolaligimda ko'rganman. O'n, o'n ikki yoshlarda edim. Tushimda ikki jarlik o'rtasi sayhonlik — bobom o'sha joyda Qo'qon aravaning gupchagiga tirsagini qo'yib kulib turibdilar. Aravaning ichi to'la lavash non, hovuri ko'tarilyapti. Yonlarida otam, otdalar, egarga yarim mingan holda qamchinini etigi qo'njisiga urib, meni tepadan jarlikka tushishimni kutyaptilar. Men ularning oldilariga yetib borganimda, bobom so'radilar:

— Mening nevaram shumi?

— Ha, shu nevarangiz.

Bobom peshonamdan o'pib, boshimni siladilar, so'ng bitta dasturxonga aravadagi nondan to'ldirib menga ko'targizdilar. Otamning joni achidi shekilli, otdan tushdilar:

— Og'irlik qilmasmikan?

— Polvonga shu ham yukmi? — dedilar bobom.

Men bobomning gapidan ruhlanib, og'ir bo'lishiga qaramay, nonni yuqoriga ko'tarib chiqdim.

Ertalab bobomni tushimda ko'rganimni tasmollab aytib bersam, haqiqatda bobom ayon bo'lganligini buvim tasdiqladilar.

Endi o'ylasam, o'sha yorug' tush — mening hayot yo'lim, bobom ko'tartirgan non — polvonlik rizq-nasibam ekan.

## ***Oriyat***

Farg'onaning bag'dodidan Hoshim polvon chiqqan. U juda erta nom qozongan. Hash-pash deguncha butun vodiy ahlining tiliga tushgan. Ko'rinishdan o'rta bo'y, boshqalardan keskin farq qilmaydigan, kamsuqum odam. Kurashga chiqmaguncha gavdasi ko'zga ko'p ham tashlanmagan. Kurashga muhabbati balandligidanmi yoki elning e'tiboridanmi yig'inga tushgani zamon ruhi

ko'tarilib, gavdasi yo'g'onlashgan. Polvonni polvon qiladigan kuchi emas — shashti. Shashti darz ketmagan odam balodan ham tap tortmaydi.

Dong'i taralganda Hoshim polvon qilichday o'spirin ekan. Quvvati badaniga sig'maganidan o'zini ko'kda uchib yurganday his qilarkan. Yig'insiz, kurashsiz turolmas ekan. Kurash uni sovitarkan. Shu yerda bir gapni aytib o'tishim lozim. Yigitning ko'zi yonib, qadamidan o't chaqnamasa, g'ayrati jo'shib turmasa, yigitligi qayerda uning? Yigit bo'lsang o'q bo'l, o'q bo'lmasang yo'q bo'l, degan axir dono otabularimiz. Hoshim polvonning dovrug'i taralgan sayin el og'ziga tushgan katta polvonlarimizni «ko'rgisi», ularning usullarini o'rgangisi, yengish va nihoyat, choponlarini qoqib-silkib o'rmlaridan turg'izgisi, hurmatini joyiga qo'ygisi kelarkan.

Haftaning ikki kuni kurashga ajratilar ekan. Ikki kun — o'sha davrlar uchun odamlarning bir yerga to'planishi, yig'inga o'rganishi, kurash bahonasida dunyo tashvishlarini unutib, ko'ksini ko'tarishi ekan. Yig'inning og'ir yuki bor: sayillar odamlarni og'ir-bosiq qilgan, bir-birlariga mehrlarini kuchaytirgan, o'zlariga ishonchlarini orttirgan. Arzimagan narsaga janjal ko'tarishdan saqlagan. Yig'in xalqni o'stirgan, nomard yig'inni to'zdirgan.

Hoshim polvon ham yurt ko'rgan, yig'in ko'rgan, yig'inning lazzatini totgan, yig'insiz yuragi siqilgan. Gul atrini yel taratadi, polvonning shuhratini el taratadi deganlaridek, kuni kecha ko'chada ishtonchan yurgan Hoshimboyni Yog'och polvonday odam bilan bel ushlashi haqidagi xabar tez tarqaldi. Odamlar oqib kelaverdi, davra kengayaverdi, bakovulning ovozi ko'tarilaverdi. Har yurtdan kelgan odamlar aravalaridan otlarini chiqarishib, xo'rozini qo'ltig'iga qisgan dakangbozday o'z polvonlarini bag'rilariga olishib, alohida qo'r tikishgan. Andijonliklar bir qo'r, namanganliklar ikkinchi qo'r, xo'jandliklar yana bir qo'r, o'shliklar ham juda zo'r.

Yog'och polvon Hoshim polvonni pisand qilmadi, yosh dedi, raqibi barcha usullarni bilishidan bexabar edi.

Tushgacha rosa bir-birini siltab sinashdi. Yog‘och polvon o‘z nomiga munosib yog‘och edi: ham uzun, ham tarashaday qattiq. Bir mahal Hoshim polvon «Yog‘och»ni ko‘tardi, ammo raqibining bo‘yi uzun edi, oyog‘i erdan uzilmadi. Shunda ham ko‘nglini cho‘ktirmay hamqishloqlari to‘plangan tomonga tortdi. Yog‘och polvon ham mustahkam bo‘lib, oyog‘ini taqir yerga taqab oldi. Hoshim polvon yoshligiga bordi, qiyinligiga qaramay sudrayverdi. U ishqibozlariga intilgan sari raqibining oyog‘i yerni omochday tildi. Hoshim polvon buni ko‘rmadi, «yo-o-o-o» deya raqibini bag‘dodliklarning oldiga otdi. U darhol mehmon — raqibini o‘rnidan turg‘izdi, etaklarini qoqdi va maydonda o‘n gazlar chamasi uzunlikdagi ariqchani ko‘rdi. Raqibiga achindi... Polvonni, u bilan birga kelgan barcha do‘st-birodarlarini uyiga taklif etib, mehmon qildi. Ertasi kuni bo‘lgan kurashda Yog‘och polvon yengdi.

Endi o‘sib kelayotgan Hoshim polvonning dovrug‘i qo‘qonlik Abdulla polvonday odamni ham g‘ashlantirgan. Go‘yo Hoshim polvon elga tanilgan sayin uning obro‘-e‘tibori kamayayotgandek tuyulgan. Farg‘onadagi kurashga kelib, yig‘inni kuzatgan. Hoshim polvonning polvonlarni ketma-ket yiqitaverishi hasadini battar qo‘zg‘agan. Kurashning ikkinchi kuni bakovul, polvonga taraf bormi, deganda: «Men!» — deya o‘rnidan turgan. Hamma «yarq» etib Abdulla akaga qaragan. Ko‘pchilik taniqli, katta polvonning taraf chiqishini o‘ylamaganidan norizo bo‘lib guvrangan, ba‘zilar baralla: «O‘zingizning tengingizga tushing, niholni yoshligida sindirmang!» — degan. Yigitning ko‘tarib yurgani — bosh, oriyati misoli — tosh, tosh! Hoshim polvon oyoq tirab olgan: «Abdulla akaga tushaman!» O‘zi xohlayapti, deb Abdulla aka ulusning e‘tirozini rad etgan. Kurash boshlangan. Odamlarning diqqati mushtday yig‘ilgan, xayrixohlarning yarmi Abdulla akani desa, yarmi Hoshim polvonni degan. Polvonlar xo‘b olishgan, terga botishgan, lekin bir-birini yiqita olishmagan. Abdulla polvonning ishlatmagan usuli qolmagan, kuch bilan yengolmasligiga aqli yetgach, so‘nggi chorani qo‘llagan. Hoshim polvon

ancha yosh, ichida «iloni» yo‘q, g‘irromlikdan yiroq, ko‘ngli pokiza, oq edi. Raqibining shumligini xayoliga ham keltirmagan, uni polvon deb o‘ylagan — nomard demagan. Kurashning qizig‘ida terisidan ajraganini sezmagani.

Oqshom tushib, kurash hal bo‘lmasdan to‘xtatilgan. Davomi kelgusi haftaga qoldirilgan.

Hoshim polvon uyiga kelgach, orqasi achishayotganini aytgan:

— Yaktagimni qayirib qaranglar-chi, jizillayapti...

Ukaning orqasidagi terisi shilinib, yelkasiga to‘planib qolganini ko‘rgan akaning ko‘zi yoshga to‘lgan:

— Nomard! Teringni himarib qo‘yibdi-yu!

Gap qishloqqa yoyilgan, oqsoqollar to‘planishgan. Kimdir bir tabibning daragini aytgan. Darhol ikki otliqni yo‘llashgan:

— Tezda yetkazib kelinglar! Hoshim polvonni tuzatinglar!

Odamlarning gap-so‘zlaridan, achinishlaridan Hoshim polvonning diliga qayg‘u cho‘kibdi, yanagi haftaga Abdulla polvon bilan yuzlasholmasligiga ko‘zi yetibdi.

Polvonning jarohatini ko‘rgan tabib oltita qo‘y oldirib, ikkita qassob chaqirtiribdi. Tong-sahar bitta qo‘yni ikki qassobga so‘ydirib, sovitmasdan ichini olib, terisini jarohatga yopibdi. Polvonning ustini o‘rab tashlabdi. Ertasiga ertalab ikkinchi qo‘yni so‘ydirib, yana o‘rashibdi. Polvonning bo‘lsa xayolida ham, tushida ham kurash ekan, oxiri tabibga yorilibdi:

— Nima qilsangiz qiling, shanbagacha tuzating. Kurashga bormasam bo‘lmaydi!

— Siz shanbani emas, polvon, yarangiz umuman tuzalish-tuzalmasligini o‘ylang, — debdi tabib.

Tabibning gapi polvonni battar qo‘zg‘abdi, nima bo‘lsa ham shanba kuni kurashga borishga ahd qilibdi. Ana shu ishonch terisining tezroq bitishiga yordam beribdi. Beshta qo‘y so‘yilib, navbat oltinchisiga kelganda tabib muolajani to‘xtatib:

— Bo‘ldi, quvvati zo‘r ekan, o‘zi yetkazvordi. Niyatingizga yetdingiz, polvon, ertaga kurashga boravering! — debdi.

Abdulla polvon o‘zining qilmishidan huzurlanib, shanba kuni bo‘ladigan kurashda albatta g‘olib kelishini qadrdonlariga aytib maqtanibdi:

— Hoshimboy bir marta kurashga yaraganigayam shukr qilsin. Ertaga kelolmaydi, belangi bo‘lib qolgan.

Yana aravalarga o‘tirib, kurashga yetib kelishsa, Hoshim polvon hech narsa bo‘lmaganday turgan emish. Abdulla polvon bari bir uni kurashga yarashiga ishonmabdi. Kurash davom etibdi. Bu galgisi oldingisidan ham qizg‘in, og‘ir kechibdi. Peshinga borib, Abdulla akadan quvvat keta boshlabdi. Yoshlikning olovligi-yu, daryoligiga, uni hiylanayrang bilan ham, kuch bilan ham to‘sib bo‘lmasligiga ishonibdi. Kuch ham odamga mehmonligini, sezdirmay tark etishini ilk bor tan olibdi... O‘rnidan turib, noiloj Hoshim polvonning yelkasiga qoqibdi:

— Omadingni bersin bolam!

## ***Chopon***

Kunlardan bir kun Toshkentda farg‘onacha kurash bo‘yicha milliy musobaqa o‘tkaziladigan bo‘libdi. O‘zbekistonning o‘ziga ishongan, yuragida o‘ti bor polvonlari yig‘ilishibdi. Ma‘lumki, polvonlarning o‘ziga yarasha ishqibozi, oshna-og‘aynisi, yurt obro‘si desa, Hirotgacha piyoda boradigan mard o‘g‘lonlari bor. Shinavandalik ham kashandalikday gap — xumori bosilguncha yorug‘ kunlari qorong‘i, qorong‘i kunlari uyqusiz kechadi. Ana shunday, «sochining tukidan oyog‘ining tirnog‘igacha» ishqibozlik o‘ti bilan yongan bir guruh farg‘onalik ishqibozlar ham polvonlarini to‘plab, qaydasan, Toshkent, deb kelishibdi. O‘zlarining polvonlariga nihoyatda mehr qo‘yib yuborishganmi yoki ishqibozlarining maqtovlarini polvonlari ko‘tara



olmaganmi, musobaqaning dastlabki kunlaridanoq vodiyliklar yiqila boshlashibdi. Hash-pash deguncha viloyat sharafini himoya qiladigan odam qolmabdi. Bu albatta do‘ppini yarimta kiyib, ko‘kragini ochib kelgan ishqibozlarning bo‘yini cho‘ktirib, ovozini pastlatib qo‘yibdi. U yer-bu yerda, yana kim bor, yana birorta kurashchi bormi, degan «shivir-shivir»lar yurib qolibdi. Shunda kimdir: «Bag‘dodlik polvonimiz qani?» — deb so‘ramasinmi. Surishtirishsa, musobaqaga kelishga ko‘nmagan ekan. Hafsalalari pir bo‘lgan ishqibozlar o‘zaro kelishishib, mashinada ikki kishini Farg‘onaga jo‘natishibdi. Toshkentga yetib kelishguncha qayerga, nimaga ketishayotganini bildirmaslikni uqtirishibdi. Alamdan Farg‘onaga jo‘naganlar he yo‘q, be yo‘q, bag‘dodlik polvonni mashinaga aldab chiqarishibdi-yu, Toshkentga qaytishibdi. Qayoqqa ketishayotganini bilmay polvon hayron, uydagilarga ham bir og‘iz hech narsa demagan. Qo‘qondan o‘tishibdi hamki, sheriklari jim. Bekoboddan o‘tganlarida polvon chidolmabdi:

— Qayoqqa boryapmiz, gapirsanglar-chi?!

Borganlar ochig‘iga ko‘chishib:

— Sen oqlamasang, Farg‘onaning nomi xor bo‘ladi, hech kim qolmadi, bari yiqilib bitdi! — deyishibdi.

Polvonning jahli chiqibdi:

— Shundoq ekan, nega shu gapni uyda aytmadinglar, men choponimni olvolardim!

— Bitta chopon qurib ketibdimi, o‘sha yoqdayam topiladi-ku?

— Yo‘q, — debdi polvon — bo‘lmaydi, o‘ziming choponim bo‘lmasa — bekor. Hozir izimga qaytaman-da, ertalab yetib boraman!

Sheriklari u deb ko‘rishibdi, bu deb ko‘rishibdi, lekin polvon aytganidan qolmay, ortiga qaytibdi.

Farg‘onaning yo‘liga ko‘z tikkan ishqibozlar polvonsiz qaytgan jo‘ralarini ko‘rib, battar achchiqlanishibdi. Xafahol holda ertani kutishibdi. Polvon va‘dasining ustidan chiqib, ertalab poyezddan tushibdi, yelkasida tirsagigacha

yamoq solingan eski chopon emish. Ular suyunishib, polvonni musobaqa bo'layotgan yerga olib borishibdi. Haqiqatan ham bag'dodlik polvon o'rtoqlarining ishonchlarini oqlab, kurashda yutibdi. Farg'onaliklarning ko'ksi ko'tarilibdi, quvonchdan o'zlarini qo'yarga joy topolmay qolishibdi. Oxiri kimdir:

— Shu choponing bo'lmaganda yiqitolmasmiding? — deb so'rabdi.

— Ha, yiqitolmasdim, — debdi polvon, — bu chopon men uchun aziz. Men polvon bo'lib yetishganimda ustozim egnidan shu choponni yechib yelkamga tashlagan: «Buni eski demagin, hali bu biror marta egnimda turib yer ko'rmagan, sen ham shunday asra, shogirdingga berayotganingda ham shuni tayinla», — deganlar. Bu choponni alohida sandiqda saqlayman. Kerakli mahaldagina kiyaman. Dastlab «musobaqaga yur» deganlaringda unamaganimning boisi shundan. Qandaydir bo'larmo'las, g'irrom o'yinga tushib choponimning yer ko'rib qolishini istamagandim. Keyin yurtning sharafi haqida gapirganinglarda chidab turolmadim, kurash tushishga ahd qildim...

Azizlar, duo qilinglar: elimizda o'zligini unutmaydigan, xom chorig'ini quritmaydigan, muqaddas yurt dong'ini dunyoga taratadigan polvonlar tug'ilsin. Biz faxr bilan ularning etaklarini ko'zlarimizga surtaylik, omin!

## **Qarz**

Hamid polvonning ahvoli og'ir. Bu bevafo dunyoda nasibasi tugaganga o'xshaydi. Uning dunyoda qo'rqqani bo'ldi — yiqildi. Yiqilganda ham yomon yiqildi. Merch yerga qattiq tushdi, lekin uni to'shakka mixlagan narsa yerga yelka bilan tushganda ichida bir narsaning «chim» etgani emas, alam bo'ladi, alam. Orqasida tarafkashining yo'qligi. Yakkalik qursin: «Akam yoki ukam bo'lganidayam taraf bo'larmidi... O'g'lim esa yosh — endi o'n beshga

kirdi». O‘zi-chi? O‘zi o‘n to‘rtidan nom chiqargandi. Farzand hamisha ko‘zingga yosh ko‘rinarkan. O‘zida bo‘lmagandan keyin qiyin ekan. Yo bularning yemishi bundayroqmikan? Ichidan teshib chiqaman degan kuch ko‘rinmaydi-da.

Polvonni qattiq yo‘tal tutdi, otaning yo‘talini eshitib, xonaga o‘g‘li kirdi: «Tuzukmisiz, dada?»

— Rahmat, o‘g‘lim, eshikni yop-u, yonimga o‘tir.

— Onamniyam chaqiraymi?

— E, o‘g‘lim-a, bu ishlarga ayollarni aralashtirmaganing tuzuk.

— Xo‘p.

— Mening ahvolim o‘zimga ayon. Senga aytadigan gaplarim...

— Dada...

— Dadalamay tur!

Polvonni yana yo‘tal tutdi, ichida bir narsa uzildi, og‘riq kuchidan yumilgan ko‘zlarini ochib, o‘g‘liga qaradi: ko‘zlari to‘la yosh. «Xayriyat, ko‘ngli bo‘sh», deb o‘yladi.

— Basharti qazoim yetgan bo‘lsa, bilib qo‘y: Shokir akangdan bir qop sholi olasimiz bor. Sayid polvon to‘yga deb ikki ming olgan. So‘rama, o‘zlari berishadi. Bolta polvonga yaqin yur, sendan maslahatini ayamaydi, u — do‘stim.

— Qarzdorlarni-ku, bildim, — debdi o‘g‘li, — ammo birontasidan qarzimiz ham bordir. To‘laydiganlariniyam aytavering, dada...

— Bor...Bor-u, lekin aqling yetganda uzasan.

Qabristonda jamoaga murojaat qilishdi: «Marhum qanday odam edi?»

Hammaning xayolidan o‘tdi: «U polvon edi!»

Oradan yillar o‘tdi. Vodilda, mozortagida yana sayil. Sayilga borolmagan Bolta polvon qarilikni so‘kib, sandalga o‘rik o‘tinining cho‘g‘ini bosib, belini toblab yotganida rahmatli Hamid polvonning o‘g‘li kirib: «Zarur ish bor», deb mashinasiga o‘tqazib olib ketdi. «Sayilga olib borsa

kerak», deb o‘ylagan edi. Yo‘q, qabriston tomon burilishdi. Qir yonbag‘ridagi huvillab yotgan qabristonga kirishdi. Do‘stining qabriga yetgach, yigit tilga kirdi:

— Boltaboy amaki, bir Qur‘on tilovat qiling, keyin dadamga ayting — qabrlarida tinch yotsinlar, qarzlarini uzdim: uni yiqitdim!

Bolta polvon ko‘zi yoshlanib uzoq oyat o‘qidi.

Yigitlar, belida belbog‘i borlar, otalarimiz uzolmagan qarzlarini uzaylik, siz bilan biz uzolmaganlarni o‘g‘illarimiz uzsinlar. O‘g‘li yo‘q oilalarda ota-ona armonlarini ushaltiradigan, to‘layolmagan to‘lovlarini to‘laydigan o‘g‘illar tug‘ilsin! Oллоhu akbar!

### ***O‘rgangan ko‘ngil***

Xalq o‘zi yoqtirgan odamini raislikka saylayveradigan vaqtlar. Mahkam polvonni Hosilot kolxoziga rais qilishdi. Uni ko‘pni ko‘rgan deyishadi. Yiliga ikki marta Qo‘qonga yo Marg‘ilonga sayilga borganini demasa, nimani ham ko‘ribdi? Albatta, ustoziga qaraganda ko‘pni ko‘rgan desa bo‘lar, negaki, ustoz Qaynar polvon sherigi bilan Uzunqirning tepasiga chiqqanida, qarashsa, uzoqdan Farg‘onaning chiroqlari li pillab ko‘rinibdi, shunda kaftini peshonasiga ayvon qilib:

— Voy-bo‘-o‘-o‘! Dunyoning ketiyam rosa keng ekan-da! — debdi.

Polvon Uzunqirning uyog‘i Farg‘ona shahri ekanini bilgan-u, lekin bormagan. Shohimardon, Vodildagi sayillarda qatnashgan, xolos.

— Yiqilgisi kelganlar o‘zlari kelishadi, — deb boshqa yoqqa chiqmagan.

Mahkam polvon haqiqatan ustoziga qaraganda ko‘proq yurt ko‘rgan, el tanigan, lekin raislikka bog‘langani chatoq-da. Dalama-dala kezadi, hisobchisini yoniga olib, li ppagamuhrni qistirib, xirmonma-xirmon, idorama-idora yuradi. Ayniqsa, hamqishloqlari o‘rtasidagi janjalli ishlarni

yechish unga og‘irlik qiladi. Ko‘pning tashvishi bilan bo‘lib mozortagida sayil boshlanganini bilmay qoladi. Choy ichgani guzarga chiqsa, chinor tagida kurash bo‘lyapti, qolgan ishlarni unutgan polvon tarafkashlari qo‘riga qo‘shilibdi, raisligi o‘ziniyam, xalqniyam esida yo‘q, rosa kurashibdi. Bir mahal:

— Sizni Katta chaqiryaptilar, — deb qolishibdi. «Axir raissan, endi olomonga aralashmasdan o‘z obro‘ying bilan yur», — degan tanbeh ham eshitib olibdi. Olomon orasida yurmasa polvonga hayotning nima keragi bor? Kechga tomon bir hujjatga muhr bosish kerak bo‘lib lippasini qarasa, muhr yo‘q. Ikki kishi bo‘lib mash‘ala yoqib kurash maydoniga borishib izlashib, to‘ponlarning ichidan zo‘rg‘a topishibdi. Ertasi kuni ertalab muhrniyam, raislikniyam topshirgan ekan.

Polvonga xudo bergan kuchi-yu, pok nomidan boshqa yana nima kerak?!

### ***Rahim polvonning aytganlari***

Temir sovut kiygan nayzaboz chavandozlar oldin o‘zimizdayam bo‘lgan. Ularning nayzalari kaltakdan emas, uchli xodadan yasalgan. Qalqon o‘rniga ko‘kraklariga patnis bog‘lab olishgan. Taxminan ikki yarim metrcha nayzani egarning oldiga tirab, raqiblarini mo‘ljallab ot surganlar. Kim kuchli va epchil bo‘lsa, o‘sha yutgan. Bu jang emas, oddiy musobaqa, kim kuchli degan savolga oxirgi javob bo‘lgan.

Keksalarning aytishicha, nayzabozlikda arslonboblik To‘qa polvon ustasi faranglardan ekan. Atrofda yashovchi qirg‘iz urug‘laridan taraf qolmaganidan keyin tog‘ning uyog‘idan nomdor polvonni topib kelishibdi. Bu polvon ham o‘ziga ishongan, nayzabozlikning hadisini obdan olib, dovrug‘ taratganlardan ekan. U To‘qa akaning kelbatiga qarab turib: «Buni ko‘zini o‘yib, eshaklaringni no‘xtasiga bargaq qilib taqib ketaman», — debdi maqtanib.

Bakovullar To‘qa akaning nayzasini kaltaroq qilib qo‘yishibdi. To‘qa akaga ham nayzasi kaltaday tuyulibdi-yu, raqibining past ketganligiga ishongisi kelmabdi, ko‘ngilni gumondan xoli tutibdi. Bir chaqirim masofadan ikki raqib otlari bir-biriga qarab shamolday uchibdi. Hammayoq suv quyganday jimibdi, tomoshaga kelganlarning ko‘zlari chavandoz — nayzabozlarga qadalibdi, yuraklari otlarning tuyoq tovushiday dukurlashga tushibdi. Butun diqqatni endi nima bo‘larkin? — degan savol egallabdi. Otlar shiddat bilan yaqinlashishibdi, shunda arslonboblikning nayzasi narigisiga yetib bormayoq, raqibining nayzasi ko‘ziga kelib qolibdi. To‘qa polvon darhol vaziyatni tushunib, bir lahzada ko‘zini olib qochishga ulguribdi. Zabt bilan urilgan nayza arslonboblikning bosh terisidan dastro‘molday joyni shilib, osiltirib o‘tibdi. To‘qa aka shalvirab yotgan terisini qo‘liga o‘rab, o‘rtog‘iga tutibdi:

— Kes, tagidan!

O‘rtog‘i qi-p-qizil qon kallaterisini ko‘rib, qo‘rqibdi, terini kesishga yuragi betlamabdi. Shunda To‘qa polvon o‘rtog‘idan achchiqlanib: «Eh-h!» debdi-yu, pichoqni olishgayam sabri chidamay, terisini tagidan shartta o‘zi uzib tashlabdi va belidan belbog‘ini yechib, boshini tang‘ibdi. Yana kurashga shayman degandek ot o‘ynatib na‘ra tortdi. Bu voqeani kuzatib turgan raqibi beixtiyor: «Bu o‘z terisini o‘zi uzvoldiki, bunda qo‘rquv yo‘q. Qo‘rquvi yo‘q odamni yengib bo‘lmaydi. Men ketdim!» — debdi-da, maydonni tark etibdi.

## ***Saxovat***

*Samarqandlik Islom nayrang<sup>1</sup> xotirasiga bag‘ishlayman*

«Musofir bo‘lmaguncha, musulmon bo‘lmaysan», deydi xalqimiz. Haqqi rost, safar odamni ulg‘aytiradi,

---

<sup>1</sup> *Nayrang* — nayrangboz, fikuschi.

olamni tanitadi. Ilgari dorbozlar hozirgidek maxsus jihozlangan avtobuslarda emas, ot-aravalarda, piyoda yurib safar qilishgan. Shuning uchun qishloqlarda bir necha kunlab tomosha ko'rsatishgan — dor qurilgan yerlarda sayil e'lon qilingan. Qo'shni qishloqlar aholisi o'sha yerlarga kelishib, tomosha ko'rib, bozor qilib qaytishgan. Dorbozlar odamlarga xush kayfiyat olib kelishgan, qayerda sayil bo'lsa, o'sha joyga kambag'al, yetim-yesirlar to'plangan.

Bir katta qishloqqa dorbozlar kelib, dor tikishibdi. Jarchi xalqni sayildan ogoh etibdi.

Tomosha boshlangan kunlari ota dorboz oldiga bir yigit kelib, dor ostini supurib-sidirib yurishga ruxsat berishlarini so'rabdi.

Duotalab yigit qishloq bolasi emasmi, iltimosi qondirilganidan quvonib, chin dildan ishlabdi: dor osti hamisha ozoda, suv sepilgan, salqin bo'lib turibdi.

Ota dorbozga yigitning mehnatsevarligi yoqibdi, uni oldiga chaqirib, nasl-nasabini surishtiribdi. Ota-onasi yo'q, turarjoyi notayin, masjid va choyxonalarda yotib yuradigan yetim ekan. Bir yaxshilik qilishni ko'ngliga tugibdi-da, navbatdagi tomoshada:

— Ertaga oxirgi o'yin: hamma o'ziga to'qlar va yurt oqsoqollari xayrlab shu o'yinga kelishsin, maslahatli ish ham bor, — deb e'lon qilibdi.

Ertasiga tumonat odam yig'ilibdi. Tomosha tugagach, xalqdan tushgan pulni bir belboqqa tugibdi-da, o'rta qo'yibdi. Haligi yetim yigitning qo'lidan yetaklab o'rta qo'yibdi va jamoaga yuzlanibdi:

— Xaloyiq! Shu yigitni taniysizlarmi?!

— Taniymiz!

— Mehnatkash, halol, ammo yetim ekan...

— To'g'ri! Mehnatkash bola.

— Bugungi tushgan pulni biz shu yigitga atadik, bizning xayriyamiz shu. Dorbozni xalq boqadi, sizlar bizga berdilaringiz — biz shu yigitga berdik, haloli bo'lsin!

Xaloyiq! Ko'pchilik — bu katta kuch: bir mushtdan ura, o'ldiradi, bir so'mdan bersa, boy qiladi. Kelinglar, shu yetimdan saxovatlaringni ayamanglar. «Iloyim, farzandim shunday yetim bo'lmasin», «Bolalarimga o'zim otalik qilayin», deganlar, molidan, jonidan zakot sifatida ataganini keltirib bersin. Nima niyatda yig'inga qadam bosgan bo'lsa, Yaratganning o'zi bersin. Omin! Ollohu akbar!

O'-o'-o'! Bu yurt xalqining saxovatini ko'ring: har tarafdan o'rta odamlar yog'ilib ketibdi. Boyning ham, kambag'alning ham qo'li ochiq. Ko'pning duosidan umidvor bo'lib dor ostiga qadam bosganlar tarqalgandan keyin qarashsa, yana bir belbog' pul to'planibdi. Belbog'ni tugib yuqoriga ko'targan ota dorboz xaloyiqqa murojaat qilibdi:

— Endi bu yigit kambag'al emas. Kelinglar, shu savob ishni oxiriga yetkazaylik, bola so'qqabosh ekan — kim ko'pning guvohligida qizini beradi shunga?!

Bir odam o'rta chiqib:

— Dor ostida men qizimni nazr qildim! — debdi.

— Agar bola rozi bo'lsa, olsin. Omin! Ikkisi qo'sha qarishsin, o'zlaridan ko'payishsin, Ollohu akbar!

— Endi savob ustiga savob qilaylik, ikki yoshning boshpanasi yo'q, nima deysiz, xaloyiq?!

— Falon dahadagi falon ko'chada ortiqcha hovlicham bor — xudo yo'lida shuni sadaqa qildim.

— Omin! Qilgan sadaqasi dargohida qabul bo'lsin!

— Ertadan keyin to'y, kim to'yning nimasini ko'taradi?

«Men unini. Men gurunchini. Men so'qimini...»

— Davlatlaringiz bundan ham ziyoda bo'lsin! Bergan sadaqalaringiz osmondan, yerdan, mag'ribdan, mashriqdan g'azab bilan sizga ko'z tikib turgan baloga da'fi bala bo'lsin! Ertaga o'sha hovlida hashar, to'yga tayyorgarlik. Hamma hasharga!

Shunday qilib, ertasiga hovlini ta'mirlashib, indinisiga to'y qilib, ikki yoshni bir-biriga qovushtirib, so'ng boshqa yoqqa ko'chishgan ekan.



## *Ota duosi*

*Komil Yusupovga bag'ishlayman*

Haqiqiy polvonlik bu — Xudoning bergani. Bobomiz Amir Temur polvon nasliga katta ahamiyat berganlar: kuchli, baquvvat yigitlarga urug'ida polvon o'tgan bahodirnamo qizlarni olib berganlar. Ulardan hech qachon pachoq odam tug'ilmagan.

Bir bo'lgan voqeani aytib beray.

Buxoroning qorako'lida Amirning xos polvonlaridan biri Ro'zimat polvonning singlisiga Jo'raqul polvonning jiyani Yusufjon polvon uylangan. Ularning tilab olishgan Tursunboy degan bitta-yu bitta o'g'illari bo'lgan. Yusufjon aka ona tomoni ham, ota tomoni ham polvonlar avlodidan bo'lgani uchun farzandini ulg'ayganda albatta polvon bo'lsa kerak deb o'ylasa ham, «o'g'lim yakka, yakkalik erkalikni keltirib chiqaradi, erkalik esa shijoatni kesadi, qaytmas bo'lmaydi», degan xayollarga borib turardi. Har holda qon tortishiga ishonib, umid qilar ekan.

O'sha paytlarda Qorako'lida suv, qirq chaqirim naridagi Amudaryo bo'yida esa ekin ekiladigan er yo'q ekan. Hosilni daryo orqali kelib talab ketadigan qaroqchilar borligiga qaramasdan, yuragida o'ti bor dehqonlar qoplarda qirq chaqirim joyga tuproq tashib, meshlarda daryoning narigi qirg'og'iga o'tkazib, qumga aralashtirib, bug'doy ekisharkan. O'n ikki yoshli Tursunboy ham qo'ymaganlariga qaramay, dadasiga oziq-ovqat tashir ekan. Xirmon ko'tarilayotgan kunlarning birida Tursunboy daryo bo'yiga kelsa, u betida ishlayotgan odamlar ko'rinmaydi. (Har doim kelganida kimdir meshga minib kelib, bolani narigi yoqqa olib o'tar ekan-da). Tursunboy yilda bir keladigan qaroqchilarni o'ylab, o'zini daryoga otibdi. Haqiqatan ham bosqinchilar kelib, dehqonlarning qo'l-oyoqlarini bog'lashib, hamma hosilni olib ketishgan ekan. Yusufjon ota o'g'lining kelishini bilar: «Kelsa-yu, oldiga

hech kim o'tmasa, meshsiz nima qilar ekan, orqasiga qaytib ketarmikan yoki birovni yordamga chaqirarmikan?» — deb ikki kecha-kunduz tuz totmay, holdan ketayotgan sheriklariga qarab, har xil xayollarga borib yotgan vaqtda, eshik yonidan: «Ota!» — degan ovoz eshilibdi.

O'n ikki yashar bolakayning telba Jayxundan suzib o'tganiga tan bergan qaroqchilar uning otasi bilan sheriklarini ozod qilibdi. Shunda hamma qatori Yusufjon polvon ham o'g'lini:

— Yelkang yer ko'rmasin! — deb chin dildan duo qilibdi.

Qaroqchilarning ba'zilarini tanib qolgan Yusufjon ota qasos olmay, kutibdi. Uch-to'rt yilda o'g'li Tursunboy kuchga to'libdi, yaxshi kurashchi bo'libdi. Daryobo'yi qishloqlaridagi to'ylarning birida qaroqchilardan bittasining polvon sifatida qatnashayotganini ko'rgan Yusufjon ota:

— Polvon qasosi o'zgacha bo'ladi, men uni tanidim — shuni yiqitishing kerak! — debdi. Tursunboy yana ota duosini olibdi.

Birodarlar, ikki kishi ishlamay yursa bo'ladi: biri — ota duosini olgan, biri esa ota qarq'ishiga qolgan. Duo olgan ishlamasa ham rizqini egam beradi, qarq'ish olgan o'lib-tirilib ishlasa ham biri ikki bo'lmaydi.

Yolg'iz o'g'il Tursunboy ota yetti farzand ko'rdi, yettovi ham polvon bo'ldi. Bo'lganda ham dunyoni titratgan polvon bo'ldi. Yettinchisi — Komiljon «Jahon chempioni» degan unvonni qo'lga kiritdi. Yaponiyada yaponlar unga ta'zim qilishdi.

Ota duosi albatta mustajob bo'lg'usidir, o'g'illaringizni duo qiling, aziz otalar!

## ***Juma polvon***

Bironta jizzaki, janjalkash odam polvonlikka da'vo qilsa — ishonmang! Chunki polvon albatta kechirimli, bosiq odam bo'ladi.

O'tgan asrning qirqinchi yillarida Samarqandda Juma polvon deganlari bo'lgan. Ham kurashchi, ham tosh

polvoni bo‘lgan. Katta sayillarda kurashdan oldin Juma polvonni chaqirishib:

— Shahar kattasining moskovlik do‘sti kepti, erkin kurash bo‘yicha mamlakat chempioni ekan, seni elga tanilgan kurashchi sifatida chaqirdik, shu yigit bilan kurash tushib, yiqilib berasan, — deyishibdi. Polvon uchun hayot bir olam-u, kurash maydoni yana bir olam-da. Tashqaridagi gap ichkariga to‘g‘ri kelmaydi, olishuvda Juma polvon halol yiqitibdi — bu mehmon ekan, chempion ekan deb o‘tirmabdi. «Ogohlantirishimga qaramasdan polvon yuzsizlik qildi», deb o‘ylagan katta hech narsa demasa ham sekin-asta hamma yerda uni siquvga olibdi. Polvon nima ham qilardi? Alamidan ichkilikka berilibdi. Shu kunlari mahalla choyxonasiga yangi choyxonachi ishga kelgan ekan. Yangi odam yangi-da: choynak-piyolalarni so‘riga tervolib, bir boshdan artib tozalayotgan ekan, Juma polvon shirakayf holda kirib qolibdi. Hammaga salom berib, so‘rining qirg‘og‘iga o‘tirayotib, ikkita choynakni yerga tushirib yuboribdi. Kayf bilan kirgan odamga ensasi qotib qarab turgan choyxonachi Juma polvonni qo‘lidan ushlab, tashqariga chiqarib qo‘yibdi. Choyxonachi ichkariga kirganida choyxo‘rlar hayron bo‘lib so‘rashibdi:

— Bu odamni tanirmidingiz?

— Yo‘q, — debdi choyxonachi.

— Axir bu Juma polvon-ku! — deyishibdi ular.

Choyxonachi: «Hozircha-ku odamlarning oldida indamadi, keyin albatta kelib adabimni beradi», — deb o‘ylab, kechasi bilan uxlolmay chiqibdi. Ertalab birinchi choyxo‘rlar qatorida choyxonaga polvon kirib kelibdi, kiribdi-yu, to‘g‘ri rangi oqarib ketgan choyxonachining oldiga boribdi. Qo‘lidagi tugundan ikkita choynak olib, otashdon ustiga qo‘yibdi. So‘ng qo‘rquvdan dir-dir titrayotgan choyxonachining yelkasiga qo‘llarini tashlab:

— Kechirasiz, kecha kayfim ozgina oshib qolgan ekan, urmasdan, so‘kmasdan uyga jo‘natib yuboribsiz, rahmat, — debdi.

## ***Muhabbat***

Ko'ngil-da, Juma polvon ammasining qizini yaxshi ko'rar ekan-u, buni hech kimga aytolmas ekan. Dardini kimga ochishni bilmay yurgan kunlarda qizga boshqa bir odamdan sovchi kelib, unashib ketishibdi. Kuyov bo'lmish shahar mirshabxonasining ko'zga ko'ringanlaridan ekan. Bu orada: «Juma polvonning pochchasi melisa bo'lsa, ichganiga birov g'iring demaydi», degan hazilomuz gaplar ham tarqalib qolibdi. Melisa deganiyam xash-pash deguncha ammaning qizini o'rab-chirmab, soyabon aravaga o'tqazib, olib ketibdi. Ichiga chiroq yoqsa yorishmaydigan Juma polvon kech kirdi — mast bo'lib, kuyovning uyi atrofida aylanarkan. Nima qilarini bilmay yura-yura oxiri melisa minib kelgan faytunni uyning tomiga chiqarib qo'yibdi. Ko'ngli joyiga tushib ortiga qaytibdi. Kuni bilan o'zini qayerga urishni bilmay, kechga tomon yana melisaning uyi tevaragida o'ralashibdi. Ertalab besh-olti kishilashib faytunni tomdan tushirishib olishgan ekan, Juma polvon borsa, faytun avvalgi joyida turganmish. Shartta borib, faytunni yana tomga tashlab, alamini aritibdi. Bundan xabar topgan uch-to'rt oqsoqol nasihat qilibdi:

— Qo'y endi, birovning gulday turmushini buzma, sengayam biron mo'min-qobili chiqib qolar...

Shu-shu Juma polvon Samarqandni tark etibdi. Umrining oxirigacha qadam izi qilmabdi.

## ***Sulton***

Arslonbobdagi eng katta yong'oq tagida choyxona bor. Rahim polvon choyxonachi. Har yoz mavsumida o'sha yerda tomosha ko'rsatamiz. Bir yili borsam, choyxonada burgut paydo bo'lib qolibdi — oyog'idan bog'lab qo'yishibdi. Bir qanoti shikast yeganidan sal osilib turibdi, qarashlari o'tkir. Qo'ndoqda o'tiribdi-yu, yoniga yaqinroq borishga hayiqasan kishi. Ilgari qushlar g'ujg'on

o‘ynaydigan yong‘oqda bir dona ham qush yo‘q. Shaharlik bir yigit burgutning jig‘iga tekkanligi uchun tashlanganida bilagining yarim qarich etini jarohatlaganini aytishdi. Men, rahmim kelganidan, yangi so‘yilgan go‘sh teltirib, qo‘lda bergani cho‘chib, kaltak uchiga ilib uzatdim. Burgut go‘sh tga hatto qayrilmadi ham. E‘tiborini tortmoqchi bo‘lib sal turtgan edim, shunday qaradiki, etim jimirlab ketdi. Harakatlarimni kuzatib turgan Rahim polvon yonimga kelib:

— Eh, polvon! Bu oddiy qush emas, qushlarning sultoni! O‘zi bandi bo‘lib turgani yetmagandek, yemishini kaltakda berasizmi? Har bir luqmani jang bilan oladi bu, — dedi-da pichog‘ini chiqarib, tig‘ining uchiga go‘sh tni ilib burgutga tutdi. Qushlar sultoni oldin Rahim akaning ko‘ziga qaradi, keyin go‘sh tni oldi...

### *Raisning o‘g‘li*

Tojikistondaligimizda mashhur bir kolxoz raisi qishlog‘ida tomosha ko‘rsatib berishimizni iltimos qilib keldi. Men peshinga yaqin borishimizni aytib, raisni kuzatib qo‘ydim. Shartga muvofiq tong-sahar turib, tadorik ko‘rib yo‘lga tushdik. Raisning qishlog‘iga tog‘lar orasidan yurilarkan, hali u yerlarga asfalt ham, elektr ham yetib bormagan bo‘lib, yo‘l chetlarida chuqurlar qazilib, simyog‘och va beton qoziqlar o‘rnatish uchun keltirib qo‘yilgan ekan.

Choshgohga yaqin raisning hovlisini topib bordik. Boshqalar va‘da berisharkan-u, yo‘l mashaqqatidan cho‘chishib, borishmas ekan. Bizga ham goh ishonib, goh ishonmay turishgan ekan, qoramizni ko‘riboq raisning yuzi yorishdi:

— Za-ap vaqtida keldilaring-da, yana biron soat kechikkanlaringda sizlardan ham umidni uzardim. Qani, dasturxonaga marhamat.

— Odamlar yig‘ilgan bo‘lishsa, o‘yinni boshlaylik... — dedim men.

— Elni to‘plash qiyin emas, ammo ularga yolg‘onchi bo‘lish og‘ir. Ba‘zilarga ishonib odamlarning oldida burdimiz ketgan, polvon, hozir odam yubortirib soat uchga to‘playmiz. Ungacha bir oz dam olinglar...

Rais shopmo‘ylov, baland bo‘yli, kelishgan, lekin dardmand odamday ko‘zlariga mung cho‘kkan. Gap orasida ichidagilarni to‘kib soldi:

— Uka, men o‘zim polvon bo‘lmoqchi edim, taqdirni qarangki, boshqa yumush bilan bandman. O‘zim polvon bo‘lmaganimga yarasha, o‘g‘il ko‘rsam polvon qilaman devdim va Ollohdan kuchli, quvvatli, polvon o‘g‘il so‘radim... Tangrining himmati baland, marhamati keng ekan — nima so‘rasang, berarkan. Ammo so‘raganingda to‘kis so‘ragin ekan... Men kelishgan qaddi-qomatini, kuch-quvvatini so‘rayveribman-u, «aql-zakovat bilan fahm-farosat ham ber», deb tilamabman. Oh, Tursunali uka! Mana shunisi menga armon-da! Ana, o‘ynab yuribdi, o‘n ikkiga kirdi. Qilgan qiliqlarini ko‘rsangiz, besh yashar bolayam qilmaydi, ammo kuch-quvvatdan xudo bergan...

Biz odamlar to‘planadigan maydon sari ilgariroq yo‘lga chiqdik. Ortimizdan qishloq bolalari chug‘urlashib ergashishgan, bir oz narida raisning o‘g‘li o‘zidan kichik bolalar bilan yong‘oq o‘ynayapti. Bir payt otgan yong‘og‘i chuqurchaga tushib ketdi, u yugurib borib bir qo‘lida boyagi beton qoziqni ko‘tardi, ikkinchisida chuqurchadan yong‘oqni oldi, qoziqni joyiga qo‘yib, hech narsa ko‘rmaganday yana bolalarga aralashib ketdi. Bu holatni kuzatib turgan guruhimiz a‘zolari bolaning kuchidan hayratga tushishdi. Tomoshani tugatib, asbob-anjomlarimizni yig‘ayotganimizda raisning o‘g‘li kelib toshlarimizni tashishdi. Ikki qo‘lida o‘ttiz ikki kilolik toshlardan ikkitadan ushlab bamaylixotir olib kelib mashinaga ortdi...

Men keyin ham raisning xonadonida bir necha bor mehmon bo‘ldim. O‘g‘il voyaga yetib uylandi. Yaqinda borsam, rais olamdan o‘tibdi, fotiha o‘qib bo‘lgach, qo‘l qovushtirib turgan o‘g‘liga ta‘ziyamni bildirdim.

O'g'il bir ozdan so'ng miyig'ida kulib, yo'l chetida turgan yangi «Villis»ga yaqinlashdi.Oldi buferidagi ilgakdan bir qo'lida ushlab mashina oldini ko'tarib-ko'tarib qo'ydi-da, «zo'r moshina-a, otam mashi moshinni menga olib berib, keyin o'ldi», — dedi g'ururlanib.

Beixtiyor marhumning gaplari yodimga tushdi:

«Ollohdan tilaging butun bo'lsin. Umri, rizqi bilan, ota-onasi, aqlu hushi bilan so'rash kerak! Kuch-quvvat bo'lib, fahm-farosat bo'lmasa, buyam qiyin...».

## ***Polvon urug'***

*Temirjon do'stim xotirasiga*

Do'stim Temirjonning ismi jismiga monand — badanlari temirdek. U bilan kurash tushgan odam simyog'ochni quchoqlagandek bo'ladi. Yalang'och bo'lib ketmon urayotganda mushaklari havasni keltirar darajada alohida-alohida o'ynab turadi. Qo'shni bolalar kirib tomosha qilishadi.

— Bir kuni ayvonda bekorchilikdan quritilgan oshqovoq urug'ini chaqib o'tirsam, olti-yetti yoshli qo'shni bolalar kirib qolishdi, — deb eslaydi Temirjon, — Yeyayotgan narsamga qiziqishdi:

— Bu nima?

— Polvon urug'. Shuni yeb, polvon bo'lganman, — dedim hazillashib.

Bolalar jimgina tashqariga chiqib ketishdi. Ertasiga qo'shni ayol kirib:

— Temirjon, o'g'illarimga nima devdiz, kechadan beri urug'likka olib qo'ygan oshqovoq urug'larimni bitta qoldirmay yeb qo'yishdi, — dedi.

Xatoimni tushunib, bolalarni chaqirib tayinladim:

— Urug'dan uch-to'rttadan ortiq yeb bo'lmaydi, ko'p yesalaring bilakdan teshib chiqadi.

Shundan keyin bolalar har kuni ikkitadan oshqovoq urug'i yeydigan bo'lishibdi.

## ***Ruhiy kuch***

*Otam Muhammadjon Haydarboy o'g'li xotirasiga  
bag'ishlayman*

Urushdan qaytganida ocharchilikdan chiqolmagan to'rt o'g'il va uch qizni egasiga topshirib, sochlari qorday oqarib ketgan, eti ustixoniga yopishgan, kasalmand xotini kutib oldi.

Avval xotini, keyin ro'zg'orini oyoqqa turg'azish kerak. Urushning «foydasi»ni qarangi, o'limni ko'raverib diydasi qotgan ekan, o'zini qo'lga ololdi. Ishdan qaytishini so'ppayib kutadigan xotiniga faqat yaxshi narsalar haqida gapirdi, erkalatdi, siladi, siypadi — ancha o'ziga keltirdi. «Tanovar» kuyini yoqtirardi — lappagini topib keltirdi, har kuni bir patefon qo'yib o'yinga soldi. Ajabki, raqs odamni yashartirar ekan...

Oradan ikki yil o'tib o'g'il ko'rishdi. Tilab-tilab olgan o'g'illari. Bolaning har kuni, har oyi ular uchun bayram. Jilmaysa ham sevinishdi, o'tirsa, yursa, gapirsa ham sevinishdi. Yo'qolgan umid yana yuz ko'rsatdi. Kelajak haqida orzular uyg'ondi.

Uning ilgari «tarang» degan laqabi bor edi, «tarang»ligi o'ziga qaytdi. Usti-boshiga gard ham yuqmaydi, hatto yomg'ir yoqqandayam etigining tovonida loy bo'lmasdi. Farzand, er-xotinni qayta yashartirdi! Odamlar ularning ro'zg'origa havas qila boshlashdi. Ko'z tegdi... U betoblana boshladi. Avvallari holsizlanib yurdi — parvo qilmadi, yegan ovqatini yutishi qiyinlashdi, bora-bora tomog'idan hech narsa o'tmay qoldi. Shundagina do'xtirga ko'rsatdi, do'xtirxonadan o'zidan ancha keyin chiqqan xotining qizargan ko'zlaridan bildi — najot yo'q...

— Xo'sh, nima dedi?

— Hech narsa emas ekan...

— Dori aytdimi?

— Ha, bitta sog'in echki olib sutini ichar ekansiz...

— Shu xolosmi?



— Ha, keyin otdek bo‘p ketarkansiz! — deb kuldi xotini. U kula oldi...

Echki ham olishdi, sut ham ichdi — bo‘lmadi. Kundan-kunga battar bo‘lsa bo‘ldiki, yaxshi bo‘lmadi. Sezdi, endi tamom.

Ko‘p o‘ylaydigan, yonidan nari ketmaydigan o‘g‘lini oldidan quvadigan, so‘kadigan odat chiqardi, yoniga yo‘latmay qo‘ydi. Hammaga yaxshi gapiradi, uni ko‘rgani kelganlarning ko‘nglini ko‘tarib askiya qiladi, lekin o‘g‘liga, yakka-yu yolg‘iz ko‘zining oqu qorasi bo‘lgan arzandasiga yaxshi gap yo‘q. Xotini chidamadi, so‘radi:

— Yolg‘iz o‘g‘lingiz bo‘lsa, nimaga qattiq tegasiz?

— E-e, xotin, seni, uni o‘ylab qilyapman buni: menku o‘lib ketaman, mendan keyin qo‘msab seni qiynamasin, ichikmasin deb o‘zimdanda bezdiryapman...

Ey, qudratingdan o‘rgilay, parvardigor, insonning jismiga chegarali, ruhiga chegarasiz kuch beribsan. Ruhiy kuchingdan ayirma!

## *Ota*

Qashqadaryodagi ijodiy safarlarimizdan biri. Ketayotsak, yo‘lning o‘ng tomonidagi uylarning birida to‘y bo‘lyapti, chap tomondagi bedazorda esa kurash. O‘tib ketolmadik, to‘xtadik. Avji kurash qizigan payt ekan, biz bilan hech kimning ishi bo‘lmadi. Bundan xursand bo‘lib o‘zimizni qo‘rga urdik. Hozirgina g‘olib kelgan yoshgina qotma yigit olgan sovrinini oltmish yoshlar chamasidagi alp qomatli, yoshligidan kurashchi bo‘lgan oqsoqolning oldiga qo‘yib ketdi. Yonimdagilarning aytishicha — otasi ekan. Yiqitganga albatta taraf topiladi, bu safar chiqqan «taraf» g‘olibga naqd ikkita keladi, deng. Yigit bir oz dovdiradi, shubhalanib otasi tomonga qaradi — ota jim. Tavakkal qildi shekilli, rozilik berdi. Bir-ikki tortib-itarib ko‘rdi — bo‘lmadi, jelagining yoqasidan olib ko‘tarmoqchi edi — og‘irlik qildi. Chog‘i kelmasligiga aqli yetdi chamasi, o‘rtadagi bakovulga bir narsa deb davradan chiqqa boshladi.

Shu payt otasi shaxd bilan oʻrnidan turdi-da, oʻgʻliga qoʻlini bigiz qildi: «Qayt! Yo yiqilib chiq, yo yiqitib!» Goʻyo yigitga shu kamlik qilayotgandek shartta ortiga qaytdi va shaxd bilan birinchi ushlagandayoq raqibini chappa-rastasiga koʻtarib urdi. Soʻng doʻldek yogʻilayotgan olqishgayam, sovringayam qaramasdan bir chekkaga chiqib, jim oʻtiraverdi.

Ota vajohati ham kuch beradi, birodarlar.

## ***Shukrona***

Laylaklik Abdurahmon deganda har qanday polvon ham bir toʻxtab qoladigan mahallar edi. Rishtonning jahonobodidan Azim polvon bilan bir toʻyga kurashga bordik. Azim aka qirqlardan oʻtgan, Abdurahmon — oʻttizning ustida. Men bilardim, ikkalasi ham shu erga bir-birini izlab kelgan. Qirq yosh polvon uchun qaytish davri, oʻttiz — oʻsadigan. Lekin «bir koʻray» degan istak bari bir ustun boʻlar ekan. Navbat katta polvonlarga kelganda oʻrtaga Abdurahmon chiqdi, chekkada kuzatib turgan edik, Azim ham choponini kiyib davraga tushdi va tarafkashlaridan fотиha soʻradi. Hammamiz shunda koʻrdikki, yosh polvonlar qoʻrida Azim akaning oʻgʻli oʻtiribdi. Azim polvonning koʻzi oʻgʻliga tushdi-yu, birdaniga tetiklashgandek boʻldi. Raqibiga roʻpara boʻlganda koʻziga tik qarab: «Hushyor boʻl, bugun seni yiqitaman», dedi. Lafzi halol ekan, soʻzining ustidan chiqdi — hammani hayron qoldirib, kimsan — Abdurahmonning yelkasini yerga tekkizdi. Kurashdan keyin menga:

— Tursunali uka, qayerdan kuch keldi bilmayman, lekin oʻgʻlimning oldida erga qaratib qoʻymaganiga xudoga ming marta shukr! — dedi.

## ***Chekinish***

— E, polvon uka, mening bu shalviragan badanimga qarama. Ichimdan yorib chiqaman degan kuch ketgandan keyingi holatim bu. Kuchga toʻlgan paytimda odam bolasini

nazarimga ilmaganman, har qandayi bilan olishsam yiqitishimni oldindan bilardim. Faqat mushuk sichqonni o‘ynab bo‘lib yeganday, men ham o‘ynab turib yiqitardim. Vaqtlar bo‘lardiki, bir oylab tiyin ham sarflamasdan taklif etilgan davralarimda maqtov va havaslarga ko‘milib yashardim. «Siz qo‘l urmasangiz osh yemaymiz, siz ichmasangiz hech kim bir ho‘plam ham ichmaydi. Niyatimiz, iloyim o‘g‘limiz sizga o‘xshasin!» — deganlarga oldin kulib qo‘ygan bo‘lsam, keyin ishondim. Meni yengish o‘yida kuyib-pishib mashq qilayotganlarni ko‘rsam, mazax qilardim, xudo g‘alabani faqat menga bergan deb o‘ylardim. Uka, oyog‘im yerdan uzilganda bildimki, o‘sha maqtovlarga mast bo‘lib yura boshlagan kunimdan orqaga ketgan ekanman.

Davrada oldin bir to‘yib o‘ynay, so‘ng yiqaman deganim bir bolacha meni yiqitdi. Tasodif deb o‘yladim. Yana yiqildim. Polvonga alam qiladigani shuki, yiqitaversang, odamlar seni boshlarida ko‘tarib yurishadi, lekin bir marta yiqilsang, ular sen qolib, yiqitganni ko‘tarib ketishadi.

Fojeam shundan boshlandi, uka. Maqtovlarniyam xumori tutarkan, nazarimda hamma mendan yuz o‘girganday. Alamimni aroqdan oldim, aroqdan...

U shishaning tagida qolganini silkitib quydi-da, tishlarining orasidan sizib ichdi. Tuk bosgan, yo‘g‘on suyaklari bilinib turgan bilagini hidladi. O‘rnidan turayotib munkib ketdi, yiqilishiga oz qoldi, yelkamga tayandi:

— Qo‘lingni och, polvon, iloyim avjing kelganda olqishlardan oyog‘ing yerdan uzilmasin, omin!

## *Armon*

### *Muzaffar Yusupovga bag‘ishlayman*

— Tursunali aka, dunyoning ishlari qiziq-da,—dedi Muzaffar polvon, —biz asli otadan yetti aka-ukamiz. Barchamizning orzu, intilishi bir bo‘lsa-yu, maqsadga

etganda — g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarilish payti kelganda aka-ukalik hurmati, mehr-oqibat ko‘ndalang tursa... Men, ukam Norqul, kenjamiz Komiljon sobiq sovet ittifoqi chempionligiga da‘vogarmiz. Uchalamiz uch xil guruhdan saralanib chiqqanmiz. O‘rgatuvchilarimiz ham — hammasi o‘ziga tortadi, har birimizning chempion bo‘lishimizni istashadi. Ular uchun aka-ukaligimizning sariqchaqalik ahamiyati yo‘q. Ularda bunaqa paytda aka-ukachilik (balkim ota-bolachilik ham) ketmaskan. Bo‘rilar ovni ko‘plashib qilishadi, o‘ljani esa har biri o‘ziga tortadi. Biz na «o‘rgatuvchi»-yu na «bo‘ri» bo‘loldik. Biz — o‘zbekning farzandlari, aka-ukalar, uch og‘ayni botirlar edik. Kechqurun yotoqxonada maslahat bo‘ldi:

— Norqul akam ikkinchi, siz birinchi bo‘ling, menga uchinchi o‘rin ham bo‘laveradi, — deb qoldi Komiljon. Ertasiga nomigagina kurashib, o‘rinlarni taqsimlab oldik, lekin polvonlikda bir shakkoklik bor: bari bir kim kuchli degan savol ochiq qolaveradi. O‘zbek polvonlarining baxti shundaki, o‘sha ochiq qolgan savolning javobi ichida qoladi. U — iymon. U sevib turib uylanolmagan qizga bo‘lgan muqaddas sevgiday qalbda asraladi.

### ***Yiqitishim shart***

Yetmishinchi yillar. Talabamiz, uydan keladigan pul hech narsaga etmaydi. Ayniqsa, ko‘p mashq qilsang, ko‘proq yeysan. O‘zbekiston musobaqalarida bir-ikki g‘olib bo‘lganman, lekin to‘rt enlik qog‘ozdan boshqa hech narsa olganim yo‘q. Qorinni to‘q qilib yurish uchun haftada ikki kun mardikor bozoriga tushamiz. Qarang-a, musobaqa g‘olibi — mardikor! O‘shanday kunlarning birida sirdaryolik bir do‘stim:

— Yur, to‘yga borib kurashamiz, omad kulib yiqitsak sovrinli bo‘lamiz yoki harna bemalol mashq qilib olamiz, — deb qoldi.

To‘y zo‘r-da, yiqilsang ham qorningni yaxshilab to‘yg‘azishadi, rozi bo‘ldim. Qozog‘istonning jettisoyida

Qoraxon polvonning qishlog'ida kurashli katta to'y. Olish boshlanganda «Xushvaqt polvon keldi» degan gap tarqaldi.

Qora «Volga» ko'cha changitib to'xtadi va to'rt yigit qurshovida maydonga polvon kirib keldi. Shov-shuv bo'lib ketdi. U o'sha paytda o'tkazilgan birinchi xalqaro musobaqa g'olibi, O'zbekistonning sovrindor polvoni edi. Qoraxon polvon yonimga kelib:

— Muzaffar, iltimos, sen Xushvaqtga chiq, yiqilganingdan keyin tarafga men chiqaman. Zo'r deyishadi uni, kurashini bir ko'ray, — dedi. Hech narsadan qaytmaydigan vaqtim ekan, men oltmish besh kilo, u sakson kilo bo'lsa ham — chiqdim. Lekin Xushvaqt polvon ancha dimog'dor ekan, pisand qilmay dadil yonimga keldi, menga shu kerak edi, bir oldimu tashladim. Qanday yiqilganini o'zi ham anglamay qoldi. Picha yerda yotdi-yu, dast turib moshiniga o'tirib, yana ko'chani changitib ketdi. Sovrindan tashqari ancha pul tushdi, biroq bir yigitning bepisandligi uchun singaniga chin dilimdan achindim.

Kurashda katta ketib bo'lmaydi-da.

## *Duo*

Qorako'ldagi sayilda kurashdan oldin bir marhum polvonning oilasiga yordam xayriyasi e'lon qildik. Tumonat odam o'rtaga tushib o'z ulushini qo'shdi. Xalq marhum polvonlarini ham hurmat qilishini shunda ko'rdim.

Oqsoqollardan uch-to'rt vakil chiqib tushgan pulni sanayotganida chamasi o'n yoshlardagi bir bola uyalib-qimtinib yonimga keldi va:

— Polvon bova, kechagi kurashdan shisha to'plab sotib yig'anim, — deb xayriya uchun ellik so'm uzatdi, — menga duo olib bering, menam polvon bo'lay...

Ko'zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi. Xudoga ming bor shukrki, yana himmatli bolalar tug'ilyapti, chunki himmat tug'ma bo'ladi. Himmatsiz polvon — polvon emas.

Men bu bolani qo‘ldan yetaklab o‘rtaga olib chiqdim, tiz cho‘kib o‘tirdim-da, jamoatdan yonimga cho‘kkan bolaga duo so‘radim:

— Ixlos qilibdi, ixlosidan topsin. Iloyim yelkasi yer ko‘rmasin, himmati to o‘lguncha so‘nmasin, omin!

Ko‘pning duosi ko‘l, ko‘pning duosi osmonga chiqmaydi, yerga kirmaydi. Birining duosi tegmasa, biriniki tegar...

### ***Kuyovni ko‘rganmisan?***

Namanganning uchqo‘rg‘oni bilan haqqulobodining o‘rtasida Qo‘g‘ay qishlog‘i bor. U yerlik qariyalar traktorchi Ismoil polvonni yaxshi eslashadi:

— Traktorining g‘ildiragini almashtirgisi kelsa, ikkita qo‘shnisini chaqirib, yelkasiga choponini tashlab, orqa tomonidan kirib dast ko‘tarib turardi. Ikki kishi g‘ildiraklarni zo‘rg‘a almashtirib olishardi. Ha, endi, o‘sha eski traktorlarni ko‘tarardiki, uning qanaqaligini o‘zingiz bilib olavering! Shunday polvonning to‘ng‘ich o‘g‘li Zokir polvon ham dev kelbatli yigit bo‘ldi.

Onasi oriqqina bo‘lsayam bo‘ylari uzun ayol edi, ancha-muncha darvozadan enkayib kirardi. Ularning bolasi polvon bo‘lmay kim polvon bo‘lsin?

Biron yerga mehmonga borsak, uning oyoq kiyimi hammanikidan ajralib turadi — qirq yetti yarim tufli kiyadi.

— Yoshligimda yalangoyoq ko‘p yurganimdan bo‘lsa kerak, — deydi o‘zi xijolat chekib.

O‘sha Zokirjon uylanadigan bo‘lib qoldi. Yozyovonlik Shirmonoy degan qizga ko‘ngil qo‘yib, sovchi yubordi. Sovchilar ikkinchi borishganda oq o‘rab, non sindirib kelishibdi. Endi fotiha to‘yi, kuyovga sarupo qilish kerak, bu tomon esa kelinga sarupo tayyorlaydi. Shirmonoy qirq olti o‘lchamli ustibosh kiyadi, o‘ttiz yetti oyoq kiyim, bu aniq, uncha bo‘ydor ham emas. Lekin kuyovto‘raga nechanchi o‘lchamli kiyim olishni bilmay, «o‘zi yozib bersin», deb so‘rashibdi. Zokirjon

ham to'ppa-to'g'ri yozib beribdi: oltmish — do'ppi, oltmish — kostum, qirq yetti yarim — tuflı.

Qaynota bo'lmish ham birinchi qiz uzatishi ekan, indamay qog'ozni olib, Marg'ilon bozoriga jo'nabdi. Avtobusdan tushib, oldin oyoq kiyimi do'koniga kiribdi-da, sotuvchi qizdan iltimos qilibdi:

— Qizim, shu qog'ozda yozilgan o'lchamli to'pli topib bersangiz.

Yozuvni o'qib hayron bo'lgan qiz: «Tog'ajon, buni kim kiyadi?» — deb so'rabdi.

— Nima edi?

— O'zingiz nechanchi kiyasiz?

— O'ttiz to'qqiz...

— Ha ana, bu yerda qirq yetti yarim yozilibdi, salkam yarim metr degani-ku bu!

Quda tog'a bir oz o'ylanib turgach, indamay qog'ozni qaytarib olibdi-yu, qishloqqa qaytib, xotiniga:

— Hoy, xotin! Kuyovni ko'rganmisan o'zi? Agar qizimga bir gap bo'lsa, seni ham sog' qo'ymayman! — degan ekan.

Mana shunaqa hangomalar bilan uylangan do'stim. Lekin o'g'li biz o'ylagandek polvon bo'lmadi-da...

### ***Toyda nima ayb?***

Izboskanlik Ali polvon uyi yonidagi zovur bo'yiga picha bachki ekibdi. Bir kuni ko'chaga chiqsa, qo'shnisining toyi arqonidan bo'shalib, bachkini yeb yotgan emish. Polvon qo'shnisini chaqirib, unga: «Toyingiz bo'shalib ketibdi», debdi. Qo'shni xijolat bo'lib, uzr so'rabdi-da, jonivorni joyiga bog'lab qo'yibdi. Ertasi kuni o'sha mahalda toy yana «bo'shalib» ketibdi. Qo'shnisini chaqirsa, polvondan qayta-qayta kechirim so'rab, toyni yana o'z joyiga bog'lab qo'yibdi.

Oradan bir kun o'tibdi. Ertasiga ertalab darvozani ochgan polvon qay ko'z bilan ko'rsinki, toy bachki ekilgan erning

o‘rtasida yurgan emish-da. Sekin mo‘ralasa, qo‘shnisi darvozasining kesakisiga suyanib, tomosha qilib turganmish. Jahli chiqqan Ali polvon qo‘shniga achchiq qilib, toyni qornidan bir qo‘lini o‘tqazib dast ko‘taribdi-da, zovurning uyog‘iga uloqtirib yuboribdi. Narigi qirg‘oq balchiq ekan, toy tizzasigacha botib qolibdi. Polvon polvon-da, yana rahmi kelib, toyni ko‘tarib u qirg‘oqdan bu qirg‘oqqa o‘tibdi. Keyin qo‘shniga qarab vajohat bilan shaxdam yurib qolibdi. U kishi qo‘rqqanidan ko‘zini «chirt» yumib olib, qochishga ham ulgurmasdan devorga qapishib qolibdi.

Ali polvon qo‘shnisining burniga burnini tirab:

— Toyda nima ayb?! — dermish.

### ***Birinchi qadam***

— E, qadamingizga hasanot, polvon! Faqat sizni kutayotgan edik. Uloqchi polvon, kurashchi polvonlar kelishgan; tosh polvon yo‘q deb o‘tirgan edim, mana, xudo yetkazdi! — deb kutib oldi shopmo‘ylovli to‘yboshi.

Qashqadaryoning cho‘lida to‘y bo‘layotgan qishloqda mehmonlar xonadonlarga joylashtiriladi. Odamlar soniga qarab katta-kichik so‘yimliklar tarqatiladi.

To‘yboshi menga:

— Ko‘pchilik ekansizlar, alohida xonadon beraylik, — deb ochiq chehrali, o‘rta bo‘yli, o‘ttiz besh yoshlar atrofidagi bir kishini chaqirib, bizga tanishtirdi:

— Salim mirob — sizlarning xizimatingizda. Salim, dasturxonniyam polvonchasiga tuzaysan!

Boyagi yigit:

— Bosh ustiga, katta, — dedi-da, biz tomonga o‘girilib: — Sizlar borib tura beringlar, men ob-xarajatlarni olib yetib boraman, — deb o‘n to‘rt yoshlardagi o‘g‘lini yo‘lboshchi qilib berdi. Kenggina qilib qurilgan mehmonxonaga joylashib bo‘lgan edik hamki, Salim mirob hovliqib kirib keldi:

— Polvon, bizzi kechirib qo‘yasiz endi, nomi ketgan Tog‘ay polvon degan harbiyda birga bo‘lgan do‘stim kelib



qoldi, uni ham boshlab kelaverdim. Lekin o‘zi zo‘r uloqchi polvon-da! Ushlaganini qo‘ymaydi.

Mezbon gapini tugatmasdan eshikda mehmon ko‘rindi. Hamma o‘rnidan turib salomlashishdi. Shuncha maqtovlardan keyin basavlat odamni kutgan edim, jussasi kichik, qotmadan kelgan, xijolat chekayotganligi yuzidan shundoq sezilib turgan o‘ttiz besh yoshlardagi yigit kirdi. Dilkashgina ekan, tezda bizga kirishib ketdi. Mavridi kelganda gapni ko‘pkariga burdim. Qanday uloqchi bo‘lganligini so‘radim. Tog‘ay polvon miyig‘ida kuldi-da, gap boshladi:

— Yoshligimizda mol boqib yurib bir qopni latta-puttalar bilan to‘lg‘azib, eshak minib, ko‘pkari o‘ynardik. Bolalarning eng kichigi men bo‘lganligim uchun biron marta ham «uloq»ni pakkaga tashlolmasdim. Omad chopib qopni endi ushlaganimda kimdir torta boshlar, barmoqlarim og‘rig‘iga chidamay, qo‘yib yuborardim. Keyin kun bo‘yi o‘zimni-o‘zim yomon ko‘rib yurardim.

Bir kuni: «Agar qo‘lim uzilib ketsayam qo‘yvormayman», deb ahd qildim. Maktabdan so‘ng to‘g‘ri sayhonlikka bordim. Uloq boshlandi. Birinchi safar o‘zim yerdan ololmadim-u, lekin olgan bolaning taqimidagi uloqqa yopishdim. Nazarimda hamma kuchim barmoqlarimga yig‘ilganday. Mendan ikki-uch yosh katta raqibga uchrabman deng. Ikkalamiz ikki tomonga tortyapmiz. Eshagim o‘zimga qaraganda ko‘proq harakat qildi. Qo‘lim chidab bo‘lmaydigan darajada og‘rir, barmoqlarimning uchlari uvishib, hech narsani sezmay qoldi. «Endi qo‘yvoraman» deganimda o‘zimga bergan so‘zim yodimga tushdi. «Ke, bir oz chiday», dedim. O‘sha «bir oz» ham o‘tdi. «Endi qo‘yvoraman», deganimda birdan raqib «solimni» qo‘yib yubordi. Ishonsangiz, o‘sha kuni besholti marta solimni marraga tashladim.

Yillar o‘tib uloqchi nomini olganimda bildimki, men o‘sha o‘zimga-o‘zim so‘z berib, so‘zimning ustidan chiqqanimda uloqchi polvon bo‘lgan ekanman. Uyog‘i oson ko‘chgan. Hamisha birinchi qadam qiyyin.

Mehmonning kichkina, ammo shijoatli gavdasiga qarab turib, polvonni polvon qiladigan uning kuchi emas, tetik ruhi ekanligini angladim.

## ***Ko‘r polvon***

*O‘g‘ling ko‘r bo‘lsa ham zo‘r bo‘lsin.*

### ***Xalq maqoli***

Xudoim odamzodni bir tomondan qissa, bir tomondan beradi, degan gap rost ekan. Ko‘r musiqachi, ko‘r yozuvchini ko‘pchilik eshitgan bo‘lsa kerak, lekin ko‘r polvon...

Polvon: «Xudo xohlasa o‘g‘il ko‘rsam, o‘g‘lim o‘zimdek polvon bo‘ladi», — derdi. Doya ayol, «o‘g‘il qutlug‘ bo‘lsin», deb suyunchini olib ketgandan uch kun o‘tgach bilishdi — bola tug‘ma ko‘r ekan... Otaning ko‘ziga olam qorong‘u bo‘lib ketdi. O‘ksib-o‘ksib yig‘ladi. Bandasi hamma narsaga ko‘nikar ekan. Ko‘nikdi. O‘g‘li ko‘zini demasa, jismonan sog‘lom o‘sdi. Ziyrakligini-chi, asti qo‘yaverasiz! Ko‘pchilik o‘tirgan yerda to‘g‘ri kelib dadasining tizzasiga o‘tirardi, qanday topib kelishini xudoning o‘zi biladi. Ulg‘aygan sari har bir tanishini gapirma ham oyoq bosishidan biladigan bo‘ldi.

O‘n ikki yashar o‘g‘li birinchi marta: «Dada, menga kurashni o‘rgating», — deganda yonishini ham, kuyishini ham bilmay qoldi.

— Ey, xudo! O‘g‘il ko‘rsam polvon bo‘lishini orzu qilganimni bilib turib, nogiron farzand berding. Shukur qildim. Endi nimaga buning ko‘ngliga polvonlikni solding? Ko‘zi ochiqlarning hammasiniyam qo‘lidan kelmaydigan hunar-ku bu!

Taqdir ekan. Xudoning aytganidan qochib ham, qutulib ham bo‘lmaydi. O‘g‘li polvon bo‘ldi. Raqibning belbog‘idan ushlatib qo‘yishsa bas, har yo‘liga oladi deng. Ota sezdi: o‘g‘lining boshqalardan ustun tomoni — g‘irromlikni bilmasligi. Chunki hech qaysi ustoz o‘z shogirdiga

g'irromlikni o'rgatmaydi. Keyin o'zlari o'zgalardan ko'rib o'rganishadi. Ko'rmagandan keyin esa...

O'g'il otasi nimani o'rgatgan bo'lsa, shuni bajardi. Bajarganda ham qoyillatib bajardi. Uning yuragida yiqitish, yiqitganda ham halol yiqitish ishtiyoqi bor edi. Kurashganda ko'rligini unutar, quchog'iga olgan raqibining har bir harakatini his qilardi. Lekin mashq boshqa, katta sayil kurashi boshqa. Sayilning siri ham ancha-muncha odamni gangitib qo'yadi. Har qanday polvon birinchi marta yig'inga kirgandagi kechinmalarini o'g'lini ilk bor yig'inga olib kirganda yana qayta boshdan kechiradi. O'sha kuni bir mehmon polvon borki, hammasini yiqitdi, shunda ota o'g'lini davraga chiqarish vaqti yetganini angladi. Ko'r yigitni taniganlar jim. Tanimaganlar polvonnimaga etaklab chiqishdi, deb hayron. To'planganlarning diqqati maydonda jamlanib, hayajonga aylangan. «Nahot yiqilsa?» — degan xavotirdan bo'lsa kerak, kurashni ko'rishga otaning yuragi betlamadi. Har bir bo'g'ini bo'shshib borayotganini seza boshlaganda o'g'lining odatdagi hayqirig'i eshitildi. Ko'zi o'zidan-o'zi yumilib hech narsani ko'rolmay qoldi. Ko'zini ochganda tomoshabinlar o'g'lini boshlariga ko'tarib, u tomonga daryodek oqib kelayotganini ko'rdi.

### ***Birinchi va oxirgi saboq***

Bolta polvonning o'z ta'biri bilan aytganda, dovrug'i susayib, o'ti o'chgan paytlari. Mana ikki yildirki, ko'zlari asta-sekin xiralashib, oxiri hech narsani ko'rmaydigan bo'lib qoldi. Oldiniga hammayoq zimiston bo'ldi, so'ng vaqt o'tgan sayin ichki bir ko'rish bino bo'la boshladi. Hovlini, uyini xotirasida tiklab, shu xotiraga suyanib, tasmollab, har bir qadamini o'lchab bosadigan bo'ldi.

Oyoq og'rig'ini ham, ko'zi ko'rmay qolishini ham og'ir narsalarni ko'targaniga yo'yib, o'g'illarining kurash tushishini taqiqlardi. Bari bir qon tortadi-da, Mo'minjon

o'g'li — o'rtanchasi — dadasiga bildirmay to'ylarda ozmoz kurashadigan bo'ldi.

Polvon o'zi xohlasa-xohlamasa bir-ikki yiqitgandan keyin gap aylanib Bolta polvonga yetdi. To'ydan qaytayotgan do'sti iftixor bilan shuni aytib berdi: to'yda bir mehmon polvon uch-to'rttasini yiqitgandan keyin Mo'minjon chiqib uni chunonam olchi qilib uribdiki, mehmon anchagacha o'rnidan turolmay yotganmish. O'ygacha cho'mib qolgan keksa polvonni ko'rib, bu og'irkarvon odam ancha-muncha gapga javob qaytarmasligini bilgan do'sti xayrlashib chiqib ketdi. O'z xayoli bilan o'tirgan ota o'g'lining qadam olishidan sezib o'ziga keldi. Salom berib yaqinlashgan Mo'minjonga:

— Keldingmi? Meni yetala-chi, — dedi.

— Uyga kirasizmi, dada?

— Yo'q. Hovlidagi shudgor qilingan erga boshla.

Hayron bo'lgan Mo'minjon dadasining qo'ltig'idan olib, hovliga boshladi. Manzilga yetgach, otasi hassasini yerga tashlab, belbog'ini yechib, bo'shroq qilib qayta bog'ladi va o'g'liga:

— Belbog'ingni bo'shat, — dedi.

— Nima, kurashmoqchimisiz, dada?

— Senga saboq bermoqchiman, gapimga kirmasdan bari bir kurashni o'rganibsan, endi ozgina bo'lsa ham o'rgatay.

— Sizning belingizni ushlasam qanday bo'larkin?..

— Men rozi bo'lgandan keyin bo'laveradi-da...

O'sha kuni Bolta polvon o'g'liga har qanday raqibiga ham oddiy kuch sinashgani chiqqan odamga qaragandek qarashni, u ham o'ziga o'xshab polvon ekanligini unutmashlikni tushuntirdi. Kurashgan odamini, agar yiqitolsa, qanday qilib ozor bermasdan yiqitish kerakligini o'rgatdi.

— Sen to'yda olchi qilib urgan polvon ham birovning bolasi, o'g'lim, — dedi ota.

Bu Bolta polvonning o'g'liga bergan birinchi va oxirgi sabog'i edi...

## *O'zim haqimda*

Polvonlikka havas menda bezorilar tufayli paydo bo'lgan desam ishonaverimg. O'zimcha: «Agar mashhur Lochin polvon meni o'ziga shogirdlikka olsa, sal o'rgangach, ularning rosa adabini beraman», deb o'ylardim nuqul. Boplab o'ch olmoqchi bo'lganman-da.

Lochin polvon esa: «Xomsemizsan», deb meni yoniga ham yo'latmadi. Bari bir orqasidan qolmadim. O'n uch yoshimdan maydonga chiqdim, oxiri eplab ketdim. O'n etti yoshimdan mustaqil guruhga boshchilik qila boshladim.

Bir kuni o'ylab qoldim: «Iya, axir men raqiblarimdan o'ch olib, barini bir boplamoqchi edim-ku». Polvonlikda ilgari lagani sari kishi qalbida birovni urish, qasos olish degan fikr yo'qolib borarkan. Masalan, boksni olaylik. Bolalar asosan mushtumzo'rlik niyatida boks bilan shug'ullana boshlashadi. Bora-bora bu alam yo'qoladi, bari bir yengaman-ku, degan tuyg'u, his ustun keladi. O'z kuchiga ishonch yurakdan qasos hissini siqib chiqaradi. Kishi kuchining ma'lum qismidagina foydalana oladi, uni hech qachon to'la ishlatolmaydi. Sport bilan astoydil shug'ullanuvchi kishilar tanalaridagi imkoniyatning o'ttiz foizidan foydalanarkanlar. Kishining ko'ziga joni ko'ringan vaqtda shunday vaziyatlar yuzaga kelgan: o'g'lini mashina bosgan ayol jonholatda mashinani dast ko'tarib, farzandini g'ildirak tagidan chiqarib oladi. Mutaxassislarning aytishicha, ayol ushbu vaziyatda tanasidagi kuchning ko'pi bilan yetmish foizini ishlatgan. Endi tasavvur qiling: bir odamga qattiq alam o'tgan, o'ch olish niyatida ko'ziga ko'ringan kimsani urmoqchi, lekin kuchi yetmaydi. Istak bor-u, imkoniyat yo'q. Mo'jiza yuz berib, jismidagi kuchdan yuz foiz foydalana olish imkoniyati paydo bo'ldi, deylik. Xo'sh, u nima qiladi? Hammani birma-bir uradimi?

Yo'q, menimcha, dilida shafqat uyg'onadi. Chunki tanada jismoniy kuch qancha ko'p to'plansa, unga shuncha rahm-shafqat kirib keladi. Mohir sportchilar ko'chada

mushtlashmaydilar, chunki sport kishini avvalo o'zini himoya qilishga o'rgatadi. Yapon, xitoy kurash maktablarining so'nggi imtihoni g'oliblikka erishish, mukofot olish yoki birovni tavbasiga tayantirishdan emas, o'zini mag'lub eta bilishdan saboq beradi. Ya'ni, shogird maktabda o'rgangan ilmi va kuchini faqat ezgu maqsadlarda ishlatishini namoyon etishi kerak. Aks holda otobobolarining ruhlari undan yuz o'giradi, oqibatda u albatta yengiladi, degan aqida mavjud. Polvonlar har xil bo'ladi: gap polvoni, osh polvoni, bokschi polvon, tosh ko'taruvchi polvon, kurashchi polvon. Bular o'rtasida farq katta, lekin mushtarak tomonlar ham bor: barchalari kuchlari qay darajada ekanini namoyish etishadi. Birovning kuchi toshga yetadi, birovniki esa odamga. Albatta, tosh ko'taruvchi polvondan kurashuvchi polvonga qiyinroq. Bir voqeani eslayman. Oltiariq tumanida Jonobod degan qishloq bor. Shu qishloq kurashchilari boshqa joylarga olishuvlarga ko'p borib turisharkan. O'ratepa tomonda Dev polvon degan bir polvon bo'lib, nihoyatda haybatliligi uchun shu nomni olgan ekan. Jonobodlik Chumchuq polvon unga qarshi maydonga chiqibdi. Uni gavdasi kichkinaligi va chaqqonligi uchun shunday atasharkan.

Xalq: «Hozir Dev buni qushday uchirib yuboradi», deb kutib turibdi. Qarangki, o'sha kurashda Chumchuq polvon Devni yiqitgan ekan. Bu hatto afsonaga ham aylanib ketgan. Menimcha, Chumchuq polvon yengishining ikki sababi bor: Dev polvon uni pisand qilmay, o'z kuchidan imkoniyati darajasida foydalanmagan, Chumchuq polvon esa kuchli raqib bilan kurashayotganini to'la his qilib, bor kuchi va mahoratini ishga solgan. Olishuvdan so'ng o'rtadagi hakam: «Qani, bu polvonga da'vogar bormi?» deb so'rabdi. Hech kimdan sado chiqmabdi. Shunda Chumchuq polvonning hamrohlaridan biri: «Bu-ku bizning eng kichik — «chumchuq» polvonimiz, agar «dev»imizni opkeganimizda nima bo'lardi?» deb kulgan ekan.

## *Yomon odat — yomon illat*

Oллоh taolo insonni shunday yaratganki, vaqtida mashq qilib, tanasini chiniqtirib yursa, unga hech qanday dorining keragi bo‘lmaydi. «Kasalni davolashdan ko‘ra uning oldini olish osonroq», deyishadi-ku, axir.


Odam badanidagi qon bir necha vazifani bajaradi. Shulardan biri chekilgan nos yoki tamaki zahrini miyaga yetkazishdir. Nega kishi nos chekib kayf qiladi? Nosning tarkibida ohak, ishqor (kul) va tamaki mavjud. U til tagiga tashlanadi. Sababi — til tagida so‘lak ajratib chiqaruvchi bez faoliyat ko‘rsatadi. Nos tarkibidagi ohak til osti pardasini emirib, so‘lak ishlovchi bez orqali zararli moddalarga qon sari yo‘l ochib beradi. Ishaqor esa ochilgan yara uchun o‘ziga xos malham vazifasini o‘taydi. Shu bois ishqor kam bo‘lsa: «Ohagi ko‘p ekan, tilimning tagini shilib yubordi», — deyishadi. Sigaret chekilganda tutun to‘g‘ri o‘pkaga boradi, o‘pkadagi havo yo‘llari shoxobchalariga tarqalib, oxirida mayda pufakchalarga to‘ladi. O‘z navbatida qon ham o‘pkada mayda tomirlar orqali o‘sha pufakcha atrofida yoyiladi va shu tariqa kislorodga to‘yingani kelgan qon tamaki tutuniga to‘yinib qaytadi.

Qarang, ikkala holatda ham tamakining zahri qonga o‘tyapti. Shuning uchun nos ham, tamaki ham birinchi chekilganda kishi tanasiga salbiy ta‘sir qiladi: yo qattiq yo‘tal tutadi, yo bosh aylanib, ko‘ngil ayniydi. Sekin-asta miya shu zaharga o‘rganadi, tashlamoqchi bo‘linganda ham birinchi navbatda miya faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatadi: bosh og‘riydi, kayfiyat buziladi, tinimsiz xumori tutadi.

Bu faqat miyadagi o‘zgarishlar. Qon tarkibidagi zahar buyrakka ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Jigarda esa o‘z-o‘zidan qon siziladi va tozalanadi. Tozalanish jarayonida tamaki zahri jigarda qoladi. Zahar to‘planib-to‘planib, jigar xastalanadi. Tananing tashqaridan kiruvchi turli mikroblarga qarshi kurash immuniteti sustlashadi. Nafas yo‘llari hamda til osti so‘lak ishlovchi bezlari ham ishdan chiqadi, natijada

o'pka va oshqozon kasalliklari yuzaga keladi. Tanadagi shuncha muhim a'zo kasallangach, albatta nimjonlik kelib chiqadi-da. Demak, kishi kasalga yo'liqmay desa, avvalo chekish illatidan xalos bo'lishi kerak.

Buyuk alloma Eynsh-teyndan so'rashibdi: «Chekishga munosabatingiz qanday? Tashlasa bo'ladimi? — Chekish bu eng yomon va zararli illatdir, — degan ekan u. — Tashlash masalasiga kelsak, bundan osoni yo'q, men, masalan, ko'p marta tashlaganman.



Qarang, shunday buyuk insonning ham irodasi bo'sh bo'lgan ekan. Qaysi bir kashandadan so'ramang, «urinib ko'rganman, irodam yetmagan», deydi. Kimki chiniqib, sog'lom yashashga ahd qilsa, o'zida bunga kuch topa bilishi kerak. Qancha vaqtda chekishni o'rgangan bo'lsangiz, tashlashga ham shuncha muddat ketadi. Maslahatim: yana bir bor irodangizni sinab ko'ring. Tashlashning ikki yo'li bor:

1. Shartta, o'ylab o'tirmay tashlash.
2. Chekishni sekin-asta, kundan-kunga kamaytirib, qutulish.

Kashanda do'stlarim, sizlarga bu yo'lda bardosh tilayman!

### *Sog'ayish istagi*

Ko'chamizdagi bir bolaning oyog'i bukilib, yozilmay qolgan. Har ko'rganimda ko'nglim buziladi. Buning ustiga, bola bechoraning tizzalari ham bir-biriga ishqalanib,



yurishiga xalaqit beradi. Kamquvvat, oz yuradi. Ko'cha eshik yoniga kursi qo'yvolib o'tiradi. Jo'ralaridan uyalsa kerak-da. Lekin nima qilsin, xudo bergan dard.

Bir kuni unga:

— Uka, polvon bo'lasanmi? — dedim. Gapim ko'ngliga og'ir botmadimikan, deb xavotirlanib turgandim, birdan:

— Bo'laman, aka, — deb qoldi.

— Mashq qilasanmi men bilan? — desam, — bo'ladimi o'zi? — deb so'radi.


— Bo'ladi! — dedim. — Faqat shartim — men aytgandek mashq qilasan.

— Xo'p, — dedi u. Keyin: — Polvon aka, o'rtog'im bor, u ham mashq qilsinmi? — deb so'radi.


O'rtog'ining tovoni yerga tegmas, tekkizgudek bo'lsa, tizzasi bilan bukilib, yiqilib tusharkan. Yuk ko'tarolmaydi, ahvoli juda og'ir.

Ikkalovini hovliga olib kelib, mashq qildirib boshladim. Astoydil kirishganimiz uchun bolalarda qiziqish ortdi. Boyaqishlarning bormagan, uchrarmagan do'xtiri, sanatoriysi qolmagan ekan. Muolajalar natijasiz tugagan. Polvon bo'lishdek niyatning tug'ilishi ularga madad bo'ldi.

Men dastlabki mashqlarimiz oyoqqa kuch kirgizish uchunligini, og'riqqa chidash



kerakligini, so'ng hammasi yaxshi bo'lishini bolalarga tushuntirdim. Rozi bo'lishdi. Mashqqa shunaqa berilishdi, shunaqa berilishdi deng. O'tirib-turishlariga qiyin bo'lmasin deb, devorga maxsus asbob o'rnatib berdim. O'tirib-turish, rezinka tortish kabi mashqlarni o'ttiz martadan bajartirdim. Oyoqda o'ttizta, qo'lda o'ttizta, qorinda o'ttizta va hokazo. Bir kuni sanab turdim — qo'shni bola qo'llariga to'qqiz yuz marta tayanib, yotib-turdi.



— Bunchalik qiyinama o'zingni, tag'in charchab-netib qolma, — dedim unga.

— Ko'p bajarsam foydasi ham ko'proq bo'lmaydimi? — deb so'radi u.

— Maromidan oshirma, — deyman. Qayoqda, qora terga botib shug'ullanaveradi.

Tajribasi ortgach, mashqlarga kuniga bittadan yangilik kiritadigan bo'ldi. Hatto uning erkin o'tirib-turayotganini ko'rib, do'xtirning ham og'zi ochilib qoldi.

Keyingi bosqichda oyog'ini cho'zishga kirishdik. Og'riqning zo'ridan baqirib yuboraverdi. «Dodlaganimga parvo qilmanglar, to'g'rilayveringlar», deydi. Keyinroq oyog'iga sherigini chiqarib, mashq qiladigan bo'ldi. Qiyalib, ko'zlari qizarib, qontalash bo'lib ketsa ham: «Bos, bos», deyaveradi.

Bir kuni shifokor Abdurahmon Niyozov unga maxsus moslama yasattirib keldi. Oyoqlarini uqalab, paylarini yumshatib, moslamani boldir bilan songa mahkamladi.

Paylarni cho‘zib, oyoqni to‘g‘rilagandan so‘ng moslamaga qulf solib qo‘yadigan bo‘ldi. Shunda oyog‘ini to‘g‘rilangan holda birmuncha muddat ushlab tursa bo‘lardi. Shu holicha kunda bir soat, keyinchalik, ikki soat yuradigan bo‘ldi. Undan ortig‘iga bardoshi yetmadi. Ota-onasi ham farzandlariga rahmlari kelib, ko‘p og‘ritar ekan, degan bahona bilan moslamani taqdirmay qo‘yishdi. Har holda bola yuguradigan, yuk bilan bemalol o‘tirib, tura oladigan bo‘ldi.

Bu kasallik orqa miya falajligi deb ataladi. Uning davosi hali topilganicha yo‘q. Biz qo‘llayotgan usul hozircha yagona chora. Shu usul qo‘llanganda bola hech bo‘lmasa, to‘shakka mixlanmay, o‘z gavdasini o‘zi ko‘tarib yura oladi.

Nogironlarga hech qachon mayibsan deb muomala qilmaylik, aksincha, ularning beg‘ubor ko‘ngillarida yashashga, hayotga ishonch va muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otaylik.

### ***Sportchi kampirlar***

Onam (Vodilda u kishini hamma Saodat aya deydi) yetmish besh yoshlarida oyoqlari xastalanib, o‘rinlaridan dast turolmay qoldilar. Birontamiz yordam beraylik, desak ham unamaydilar, o‘zlari uch-to‘rt qadam joyga emaklab borib, keyin bir amallab turib oladilar. Turib olganlaridan keyin bemalol yuraveradilar. Bir kuni menga hasrat qilib qoldilar:

— O‘g‘lim, mana, oyoqdan ham qolyapman, ishqilib, yaratganning o‘zi hech kimga xor-zor qildirmasdan omonatini olsin-da. Yurolmay, bir yerda yotib qolishdan asrasin.

— E, onajon, issiqroq nafas qiling, hali baquvvatsiz, picha mashq qilsangiz, o‘tib ketadi, — dedim.

— Bir kamim endi qariganda mashq qilishim qoluvdi.

— Albatta ko‘chaga chiqib yuguring deyayotganim yo‘q. Mana, masalan, namoz ham mashq.

— Ilmli odamlardan so‘rab bildim: o‘tirib o‘qisa ham bo‘lar ekan.

— Siz esa o‘tirib o‘qimang, o‘zingizni majburlab turib o‘qing, namozdan keyin yana qo‘shimcha bir-ikkita mashq qiling.

Xullas, onamni ko‘ndirdim. Endi har kuni namozdan keyin to‘rt marta deraza tokchasini ushlab o‘tirib-turadilar, besh-olti marta engashib, yerga qo‘llarini tekkizishga harakat qiladilar. So‘ng o‘rinlaridan turib, yuguradilar. Uch-to‘rt kun yalinib-yolvorib mashq qildirdim, chunki hamma yog‘im og‘riyapti, deb qoldilar. Bir haftadan keyin o‘zlari bilib harakat qiladigan bo‘ldilar. Hozir ham har namozdan keyin o‘n besh-yigirma marta o‘tirib-turib, yigirma marta engashib-turib, keyin yuguradilar.

Mashq boshlagan kunlaridan buyon o‘n yil o‘tdi, sakson besh yoshlarida Toshkentga, «Botanika» shifo maskaniga olib bordim. Qariyalarga atalgan qavatdan joy berishar ekan, uchta kampir bir yerga tushib qolishdi. Ichlarida eng kattalari — onam. Uch kundan keyin borsam, onam xonalarida qo‘shni kampirlar bilan suhbatlashib o‘tiribdi. Onamning odatlari: kim bir yerim og‘riyapti desa, «Mashq qiling», deydilar. Davolovchi shifokor kirib qoldi:

— Polvon aka, onangizni bu yerga dam oluvchi emas, mashq qildiruvchi sifatida olib kelsangiz bo‘larkan. Mashq qilishga hech ko‘ndirolmagan onalarimizni ham, mana, ishga solib qo‘ydilar. Bular hammasi endi sportchi kampirlar, — dedi u.

Kim qarilikni bo‘yniga olmasa — qarimaydi!

### ***To‘shakka mixlanib qolmang***

Sertashvish zamonamiz keltirib chiqargan kasalliklardan biri «qon bosimi» hisoblanadi. Insonlar miyaga qon quyilishi natijasida to‘shakka mixlanib qolyapti. Shifokorlar sizga: «Asabingizni asrang, hayajonlanmang», deb qancha ta‘kidlashmasin, bari bir hayot tashvishlari o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Miyaga

qon quyilganda bemor qancha bezovta bo'lsa, u o'rindan bu o'ringa ko'chirilsa yoki yotgan yerida bezovtalanib qimirlasa ham, qonning to'xtashi shuncha qiyinlashadi. Shifokorlarning o'zlari vaqt-soati yetganda harakat qilish, yurishga ruxsat berishadi. O'sha kundan boshlab ishlamay qolgan qo'l va oyoqni mashq qildirish boshlanadi. Aslida birinchi oydan oq yotgan joyida bemorni mashq qildirish kerak. Bemorning bir oyoq va qo'li ishlamayapti, deylik. Yotgan so'risining oyoq va bosh tomoniga cho'zma yoki prujina mahkamlati. Iloji bo'lsa, shiftga ham cho'zma osdiring. Ishlamayotgan qo'li, oyog'i bilan sog'i yordamida bo'lsa ham cho'zmalarni cho'zib, mashq qilsin. Bemorga ko'maklashing, har bir mushakka alohida mashq bering, to'piqqa, boldir mushagiga, tizzaga va son mushaklariga harakatlar o'ylab toping. Oyoq tomonga arqon bog'lab tortintiring, shu tariqa belni ham mashq qildiring. Mashq qilganda ham bir charchagunga qadar emas, dam olib-dam olib, har bir mushakning mashqini ikki-uch marta, keyinroqqa borib to'rt-besh marta qaytadan bajarish lozim. Necha marta tortinganini va qanchada charchaganini yozib boring. Shunda natijalar ma'lum bo'ladi. Sog' qo'l-oyoq bilan kasal qo'l-oyog'ingizni barobar mashq qildirishni unutmang.

## ***Tortilish mashqlari***

### ***Birinchi kun***

	<i>Birinchi marta</i>	<i>Ikkinchi marta</i>	<i>Uchinchi marta</i>
<i>O'ng oyoq</i>	10	8	8
<i>Chap oyoq</i>	25	20	20
<i>Bel</i>	10	9	9
<i>O'ng qo'l</i>	8	6	6
<i>Chap qo'l</i>	8	6	6

Ikkinchi va uchinchi kunlar mashqdagi eng qiyin kunlar hisoblanadi, chunki hamma mushaklar ogʻriydi.

### ***Ikkinchi kun***

	<i>Birinchi marta</i>	<i>Ikkinchi marta</i>	<i>Uchinchi marta</i>
<i>Oʻng oyoq</i>	10	10	9
<i>Chap oyoq</i>	25	22	22
<i>Bel</i>	10	10	10
<i>Oʻng qoʻl</i>	20	20	16
<i>Chap qoʻl</i>	9	8	7

Bemor kun oʻtgan sari dam olish vaqtini qisqartirib, mashqlarni takrorlashni orttirib borishi kerak. Jadvallarda koʻrsatilganidek, uch marta takrorlash oʻrniga toʻrt qayta, bora-bora besh qayta mashq qilish lozim. Hamisha imkoniyatdan sal boʻlsa ham oʻtkazib mashq bajarishga erishish kerak.

### ***Hamma gap chiniqishda***

Taqdir taqozosi bilan kimdir shaharda yashaydi, kimdir qishloqda. Shaharda sport bilan shugʻullanish uchun barcha imkoniyat bor. Sport zallari, suzish havzalari, stadionlar... Qishloqda esa... Qishloqdagilar uchun sport bilan shugʻullanmaslikka aslida hech narsa bahona boʻla olmaydi.

Ilgarilari yumushlar asosan qoʻlda bajarilganligi uchun polvonlar koʻp edi. U paytlar tegirmon toshini koʻtaruvchi polvonlar ham boʻlgan. Tegirmon toshi yoʻnuvchi ustalar togʻlarga chiqib, chagʻirtoshlarni tegirmon toshi shakliga keltirishgan. Bu toshlarni polvonlar aravalarga ortishgan. Aravalardan tushirish, tegirmon ichiga gʻildiratib olib kirish, oʻrnatish ham baquvvat yigitlar zimmasida boʻlgan. Bu savob ishga keksalar fотиha berishgan.

Polvonlar daryo, soylarning suvini to‘shida ham jonbozlik ko‘rsatishgan: katta chorcho‘plar, quvur yoki yirik xarsangtoshlar yotqizish zaruriyati tug‘ilganda ular ko‘magidan foydalanilgan.

Demoqchimanki, mashqlarni bajarish uchun maxsus sport zallari shart emas. Ayrim yumushlarni bajarayotib ham mashq qilsa bo‘laveradi.

Bahor — tabiat va jamiki jonzotning uyg‘onish davri, shu bois bahorda ko‘proq jismoniy mehnat qilish kerak. Yer chopish, ariq qazish, ko‘milgan toklarni ochish, daraxt ekish — bularning bari o‘ziga xos jismoniy mashqlardir. E‘tibor bergan bo‘lsangiz, bahorda odam tez charchaydi, bo‘shashadi, uyqusi keladi. Bu paytni «ilik uzildi palla» deyishadi. Shu davrda jismoniy mehnat bilan shug‘ullansangiz, behol bo‘lmaysiz, hamisha o‘zingizni bardam sezasiz.

Men shaharlik yoshlarga (kattalarga ham) ko‘proq shahar tashqarisiga, tog‘u toshlarga sayohatga chiqishni maslahat berardim.

Inson eng oliy hilqat ekanligini unutmaylik. Qadimda odamlar g‘orlarda yashashgan, issiq-sovuqqa qaramay yalangoyoq, yalang‘och yurishgan. Kundalik hayot tarzi hayvonlarni quvish, ov qilish bilan kechgan. Bizning bugungi shahardagi hayot tarzimiz menga birmuncha erish tuyuladi, zamindan uzilib qolgandekmiz. Lekin buni o‘zimiz payqamaymiz, bolalarimizni avaylab, papalab, ehtiyotlab o‘stiramiz. Nazarimda ularni qancha ehtiyotlasak, shuncha nimjon, kasalmand bo‘lib o‘shayotgandek.

Qishloq bolalariga e‘tibor berganmisiz? Ular sovuqda ham yalangoyoq, yupun yuraveradilar. Qishloq yo‘llarida tikanmi, chaqirtoshmi — nima uchrasa, bemalol bosib ketaveradilar. Hech narsa oyoqlarini tilmaydi, kesmaydi. Ha, hamma gap chiniqishda.

Keling, tabiatga yaqinroq bo‘laylik, ko‘proq chiniqaylik.

## ***Qorboboning sovgʻasi***

*Doʻstim Anvarga bagʻishlayman*

Oltmishinchi yillar. Qishloq aholisi hiyla kambagʻal yashaydi. Oʻn ikki yoshlarda edik chamasi. Sinfdoshim Anvarning ikki ukasi bor. Bir juft kalish uch aka-uka oʻrtasida chuli-chuli. Ertalab Anvar maktabga kiyib boradi. Tushdan soʻng shoʻrlik kalish ukasining oyogʻida maktab tomon sudraladi.

Qaysi bir yili yangi yil arafasida rosa qor yogʻdi. Bayramga tayyorgarlik avjida. Birimiz sheʼr yodladik, birimiz raqs mashq qildik. Archa bayrami ertalab bizga, tushdan soʻng boshlangʻich sinflarga boʻlarkan. Hamma yigʻildi, bayram boshlandi. Qorbobo oʻrtaga chiqdi hamki, doʻstimdan darak yoʻq. Faqat raqsga navbat kelganda «Shildiroq» — biz uni shunday atardik — usti yupun, yalangoyoq davraga yorib kirdi va shu holda oʻyinga tusha ketdi. Tovonlari qip-qizil — choʻgʻni eslatardi. Biz dastlab bunga uncha ahamiyat bermadik — bolamiz-da. Lekin Qorboboning mijjalarida yosh gʻiltilladi. Sovgʻa tarqatish payti Anvarga qoʻnjli botinka tegdi.

Oʻsha kuni ertalab Anvardan oldin ukasi turib, kalishni kiyib maktabga ketib qolibdi. Kelavermagach, maktabga tizza boʻyi qor kechib, yalangoyoq yugurib kelgan ekan...

Anvardan koʻra koʻproq biz suyundik. Uni oʻrtaga olib, hazil-huzul qilib uyga ketayotsak, kalishni avvalroq ilib ketgan ukasi tol panasiga oʻtib qoʻrqib-pisib turibdi. Akam uradi degan shekilli, gunohkor koʻzlarini kalish uchiga tikkancha tek turaverdi (katta kalishda qochib qayoqqa ham borardi). Lekin Anvar ukasini urmadi. Yangi botinkasini yelkasidan shart oldi-da, ukasiga kiygizib, bogʻichini bogʻlab qoʻydi. Kalishni qoqib-qoqib, oʻzi kiyib oldi.

Men hamon bu voqeani unutilmayman.



## *O'zingizni o'zingiz davolang*

Dehqonlarimizning erta bahordan to kech kuzgacha bel bukib mehnat qilishlarini ko'rgansiz: yer chopishadi, urug' ekishadi, o'toq qilishadi, hosilni o'rib-yig'ishtirishadi. Shu bois umurtqa pog'onasining orqa tomoni ancha muddat ochiq holda bo'ladi, o'sha ochiq joyda asta-sekin et o'sib qoladi. O'sha, o'sib qolgan et suyak orasida ezilib, turishni, qadni tik tutishni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, tik turilganda odam toliqadi, engashibroq yurilsa yengil tortadi. Qisqasi, o'sha o'simta insonni yenga boshlaydi. Shu kasallikka uchrab, keksayganda munkayib qolgan odamlar ham ko'p, ular odatda harakatchan bo'lishadi, yumushlarini engashgan holda bajaraverishadi... Shu holning oldini olish mumkinmi? Mumkin bo'lsa, qanday qilib?

Avvalo, har bir odam o'z ish faoliyatini asosan qay holatda bajarishga e'tibor berishi kerak. Agar ko'proq engashib ishlasangiz, umurtqa pog'onasining orqa tomoniga et bitmasligi uchun orqaga egilib mashq qilish lozim bo'ladi. Masalan, so'rining qirg'og'iga orqa qilib o'tirasiz, oyog'ingizni kimdir bosib yoki ushlab turadi va siz orqa tomonga egilasiz. Qo'llaringiz boshingiz orqasida changak holatida bo'lsin. Iloji boricha pastroq egilishga harakat qiling. Bu mashqning ikki tomonlama foydasi bor: birinchidan, qorin mushaklari baquvvatlashadi, ikkinchidan, umurtqa pog'onasining harakat doirasi kengayib, et bitishdan saqlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, 10-15 marta egilib-turib charchagach, picha dam olib yoki kechga tomon yana shu mashqni takrorlash zarur. Eslatib qo'yay: birinchi, ikkinchi kunlari qorin mushaklaringiz qattiq og'riydi, lekin qo'rqmang — o'tib ketadi. Bu choshgohda va kechqurun bajariladigan mashq. Engashib ishlaganingizda toliqasiz, shuning uchun orqaga qarab uch-to'rt marta egilish ham lozim bo'ladi. Har dam olganingizda shuni bajarsangiz — kifoya. Ko'pchilik munkayib qolganini kech payqaydi, bunday holda ko'proq mashq qilishga to'g'ri keladi. Mazkur

kasallikni yengish uchun har kuni bir yarim-ikki soat vaqtingizni ayamaysiz. Mashqlardan oldin bir oz yugurib, qizib olsangiz ham zarar qilmaydi. Asosiy e'tibor umurtqa oralig'ida o'sgan etlarni sitib chiqarishga qaratiladi:

1. «Ko'prik» holatida yotib, iloji boricha ko'proq egiling.
2. Ikki kursiga qo'l bilan tiralib, pastga egiling.
3. Tik turgan holda gavdangiz bilan aylanma harakatlarni bajarang (har ikki tomonga).

Shunga o'xshash yana ko'plab mashqlarni o'ylab topsa bo'ladi. Mashqlar oxirida yuztuban yotib, umurtqani uqalatish kerak. Uqalash so'ngida ko'kragingizga qo'lini changak qilib, orqaga katta kuch bilan sekin-asta tortsin. Unutmang, yuqorida aytilgan mashqlarni charchaguncha bajarish lozim. Nomigagina bajarilgan mashqlar foyda bermaydi.

### ***Nafas yo'li kasalligi***

Yuqori nafas yo'llari kasallangan bolalarimiz kasalxonalarda yotib davolanishadi. Albatta, shifokorlar qo'llaridan kelgan hamma choralarni qo'llashadi. Lekin ota-onalar ham qarab turmasliklari kerak. Umuman, farzandi biron-bir kasallik bilan og'rigan odam albatta shu kasallik to'g'risida oz bo'lsa ham tasavvurga ega bo'lishi lozim. Chunki boshqa paytda bola ota-onaning yonida bo'ladi. Ayniqsa, kasal bola uchun kechqurun bir soat vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

Nafas yo'li va o'pka kasallanganda o'pka sig'imining keng bo'lishi katta ahamiyatga ega. Shu bois o'pka sig'imini



kattalashtirish uchun har kuni muntazam ravishda mashq qilinsa, zarar qilmaydi. Mashqlar iloji boricha o'yin tarzida bo'lsin, bola shunda ko'proq qiziqadi.



Stol yoki xontaxta ustiga ipdan bo'shagan g'altak qo'ying, stolning bir tomoniga o'zingiz turing, ikkinchi tomoniga bolani o'tqazing. Xontaxtaga engashib, iyagingizni qo'ying-da, g'altakka qarab puflang. G'altak bola tomonga g'ildiraydi, endi u ham puflab g'ildiratsin. Tayinlab qo'ying: har bir puflashdan oldin o'pkasini to'ldirib, chuqur nafas olsin.

Yana bir mashq: oddiy pufak sotib olib, kim tez puflab shishirish o'ynang. Bu o'yinda kim o'n marta puflaganda pufak kattaroq shishadi shartini qo'yish mumkin. Yangi pufakni oldin o'zingiz puflab, yumshatib berishingiz kerak bo'ladi.

O'yinchoq bilan mashq qilish. Bunda uzunligi yarim metrdan bir yarim metrgacha bo'lgan temir yoki qamish naycha olinadi, orqa tomoniga pat o'rnatilib, uchi ignalisi o'q yasalib, naychaning ichiga solinadi. So'ng yumshoq taxtadan maxsus nishon xavfsiz yerga ilinadi. Naycha ichiga puflansa, o'q nishonga sanchiladi, bu bolaga yaxshigina ermak bo'ladi.

Cho'milishda foydalaniladigan qush yoki hayvon shaklidagi puflab shishiriluvchi «po'kak»lar bor. Bolaga shularni puflab shishirishni o'rgating, bunda nafas burundan olinib, «po'kakka» og'iz orqali puflanadi. Bu mashqning teskarisi ham mavjud: nafas og'iz bilan olinib, burundan chiqariladi. Qarang, qancha qiziqarli va foydali

mashqlar o‘ylab topish mumkin. Erinmang, har kuni bir oz vaqt ajratib, farzandingizni davolayotgan shifokorga yordam bering.

Suv ichida nafas olmasdan ko‘proq turishning ham foydasi katta.

### ***Dildagi gap***

Ha, haqiqatdan ham bola tarbiyasida o‘yinning ahamiyati katta. Nafas yo‘lini chiniqtiradigan o‘yinlar ham bor. «Chakaldak» — chillak o‘yini bunga misol bo‘ladi. Shu o‘yinni bir oz tahlil qilib beray: bolaning qo‘lida biri uzun, biri qisqa tayoq. Uzun tayoq «chakaldak», qisqasi «bolog‘» deyiladi. Bolog‘ chakaldak bilan «bir, ikki, uch», deb urilib, yerga tushirilmasdan havoda ushlab turiladi. Necha marta ursa, shuncha uni qo‘lidan kelgancha uzoqroqqa otadi.

Bu bolada muvozanatni saqlay bilishni, jonglyorlikni tarbiyalaydi. Tayoqchani otganda bolaning qo‘l mushaklari ham chiniqadi. Yutqizgan bola bolog‘ni qo‘liga olib: «Zu-u-u-uv», deganча yuguraveradi. Yonidagi raqibi ham: «Qulog‘iga shavla, qulog‘iga shavla», deb baqirib yuguradi. Marraga yetolmasdan nafas olib qo‘ysa, tayoqni o‘sha yerdan orqaga otib beradi, bolog‘ tushgan yerdan yana pakkaga qarab zuvillaydi.

Ko‘ryapsizki, yutqizgan bola bilan birga yutgani ham chuqur nafas olib yugurib, kuch sarflaydi. Bu o‘yin har ikkovining ham o‘pka sig‘imini kengaytiradi. Bolalar o‘zlari bilmagan holda sog‘liqlarini mustahkamlaydilar.

«Pari» (ba‘zi joylarda «lanka») o‘yini ham shunday. Bolaning diqqat-e‘tibori «pari»da bo‘lgani holda oyoq paylari cho‘ziladi. Bu ham o‘ziga xos mashq bo‘lib, buni bajargan bola qiynalmasdan bemalol chordana qurib o‘tirishi mumkin.

## ***Semirish ham kasallik***

Keling, men sizga semirish va oriqlash sabablarini ham tushuntirib beray.

Kam jismoniy harakat qiladigan odamga misol uchun bir kunda ming kilokaloriya ozuqa kerak, deylik. (Bu kun davomida ming kilo yuk ko'tarish uchun sarf bo'ladigan ozuqa demak). Shu odam agar ikki ming kilokaloriya ovqat esa, ovqat hazm qilish tizimi a'zolari faqat ming kilokaloriya quvvatni ajratib oladi, xolos. Serharakat odam esa ikki yarim ming kilokaloriyaga yetadigan ovqat yesa ham bari ozuqaga aylanib, so'rilib qonga o'tadi. Qon bu ozuqani mushaklar (aniqrog'i, to'qima hujayralar)ga yetkazib beradi. Mashq qilmaydigan odam bir kuni mashq boshladi, deylik. Ertasiga mushaklari og'riydi, o'rnidan turgisi kelmaydi. Chunki unga ming kilokaloriya yetmaydi, mushaklarga qon orqali borgan ozuqa kamlik qiladi, shuning uchun mushaklari og'riydi. Ertasiga yana mashq qilsa, og'riq yanada kuchayadi. Uch-to'rt kun faqat og'riq bilan olishiladi. Tobora ko'proq kilokaloriya ozuqa so'rilishi tufayli mashq qilish sekin-asta yengillashadi. Kerakli ozuqa mushaklarga yetib kela boshlagach, og'riq ham kamayadi. Ikki yarim ming kilokaloriya ozuqa so'riladigan bo'lgach, har qanday og'ir mashqdan so'ng ham quvvat tezda tiklanib, charchoq sezilmaydi. Odam dangasaligi tutib, mashq qilishni yig'ishtirib qo'ydi, deylik. Bunda ikki yarim ming kilokaloriya ozuqa so'rilaveradi, lekin faqat ming kilokaloriyasigina sarflanadi, qolgan bir yarim ming kilokaloriya ozuqa yog'ga aylanadi.

O'sha kundan semirish boshlanadi. Shuning uchun ham katta sportni tashlab, muallimlikka o'tishgan sportchilar semirib ketishadi. Semirish esa ko'plab kasalliklarga olib keladi. Nima qilib bo'lmasin, jismoniy harakatni birdaniga to'xtatmaslik lozim.

Bekobodda Ramazon ota degan bir tosh o'ynatuvchi polvon bor edi. Yetmish yoshigacha tosh o'ynatib yurgan.

Yetmish yillik to‘yi kuni: «Endi men yoshlarning ko‘ziga tushgan cho‘pdek bo‘lib, g‘ashlarini keltirmay», deb hunarini butunlay tashladi. Yetmish to‘rt yoshida harakatsizlik keltirgan kasalliklar tufayli olamdan o‘tdi. Ammo harakatdagi odam uchun yetmish yosh qarilik emas.

Qirq besh, ellik yoshli jismoniy mashq qilishni o‘ziga ep ko‘rmay qo‘ygan do‘stlarim, mashq qilishdan uyalmang! Iloji bo‘lsa, o‘g‘illaringiz va nabiralaringiz bilan bab-barobar harakat qiling. Harakat — hayot manbai demak. Odam qaridim deb o‘ylagan kunidan boshlab qartaya boshlaydi. «Hali yoshman», deb yurgan sakson yoshli odam haqiqatda yosh. Qadimda yetmish, sakson, to‘qson yoshlarda ham farzand ko‘rishgan, ularga Yetmishboy, Saksonboy, To‘qsonboy deb nom qo‘yishgan.

O‘lkamizda yana to‘qsonboylar tug‘ilishiga ishonaman.

### ***O‘tirib ishlaydiganlar uchun mashqlar***

Ijodkorlar, kotiblar, hisobchilar, haydovchilar ko‘p vaqt bir erda qimirlamay o‘tirib ishlashadi. Inson har narsaga ko‘nikkanidek, uzoq vaqt bir erda o‘tirishga ham o‘rganadi. Harakatsizlikning kasalliklar olib kelishi ko‘pchilikka ma’lum. Hatto o‘tirib ishlaydigan ayollarni ko‘chada ketayotganda ham tanib olish mumkin, chunki yumushlari ularning qomatiga ta’sir etadi. Buning uchun har soatda erinmasdan o‘n daqiqasini sarflasangiz kifoya.

O‘tirib ishlaydigan erkaklar bitta qadoqtoshni ko‘tarib yoki elkasiga birortasini mindirib, iloji bo‘lsa ikki mahal charchaguncha o‘tirib-turishi mumkin. Imkon qadar tizzani bukmasdan, engashib qo‘lni erga tekkizish ham foydali. Ayollar stul yordamida qo‘l bilan charchaguncha yotib-turish mashqlarini bajaradilar. Yozuv-chizuv bilan shug‘ul-lanadiganlar uchun quyidagi mashq foydali hisoblanadi: bunda xona o‘rtasiga bitta stul qo‘yilib,

atrofidan aylanib, soʻng stulga qoʻl bilan suyaniladi. Oyoq erga tiralib, bir marta yotib-turiladi. Ikkinchi safar ikki marta aylanib, ikki marta yotib-turiladi. Hisob shu tariqa koʻpaytirilib boriladi. Mashqlardan keyin bir oz yugurish va sakrash lozim boʻladi.

### ***Tik turib ishlaydiganlar uchun mashqlar***

Sartaroshlar, dastgohlar oldida tik turib ishlaydigan xodimlarga eng foydali va zarur mashq yugurishdir.

Yugurish jismoniy tarbiyaning ibtidosi hisoblanadi. Picha yugurib albatta bir necha marta yuqoriga sakrash, oʻtirib-turish va engashib qoʻlni yerga tekkizish zarur. Tik turib ishlaydiganlar bu mashqlarga har soatda besh daqiqa vaqt ajratganlari maʼqul. Korxonalar hovlisida sport maydonchalari boʻlsa, tushlikdan oldin yoki keyin bir oz toʻp oʻynab olish kerak. Stol tennisi, badminton oʻyinlari ham foydali. Mehnat jarayonida bir xil jismoniy harakatlar qiladiganlar: «Shuning oʻzi mashq — yetadi», deb oʻylamasinlar, chunki hamma mushaklar mashqlarga muhtoj boʻladi.

Ishdan keyin oyoqni yuqoriga tik holda koʻtarib, bir oz yotish kerak.

### ***Sovuqni sovuq kesadi***

Yosh edim, onam hamisha, hatto yozda ham qunduzli telpak kiyib yurardilar. Uyda oʻtirganlarida: «Eshikni yop, miyamni shamol uryapti», derdilar. Oʻzlarining aytishlaricha, ozgina shabada boʻlsa peshonalarining jinday ochiq yeridan sovuq gʻuvillab kirar ekan. «Ichmagan dorim, qilmagan amalim, uchramagan doʻxtiru tabibim qolmadi», derdilar.

Bir tabib: «Chillada bir paqir suvni boshingizdan sekin quying», debdi. Oʻsha yili qor yogʻmasdan qora sovuq boʻldi. Bosh ogʻrigʻi jonlaridan oʻtib ketgan ekanmi, onam

dadamlarning hay-haylashlariga qaramasdan hovlimizning oʻrtasidan oʻtadigan ariq boʻyiga keldilar-da, muzni yorib, bir paqir suv oldilar. Dadamlarga uzatib: «Quying!» dedilar. Bir oz oʻylagach, dadamlar onamning boshlaridan suvni sekin quya boshladilar. Suv tugaganda boshlaridan hovur koʻtarilardi. Keyin oʻranib yotdilar. Onam oʻsha kundan boshlab telpakni tashladilar. Sovuqni sovuq kesadi deganlari shu boʻlsa kerak. Men shunday qilinglar deb maslahat bermoqchi emasman, lekin xalq tabiblari ham bilmasa aytmaydi. Keksalar: «Biz yoshligimizda chilladayam soyda choʻmilib, keyin qovurma shoʻrvani ichib, oʻranib yotardik-da, ertalab turib ishimizga ketaverardik. Hozirgi yoshlar yalangoyoq yerni bossa, ertasigayoq aksirishni boshlashadi», deb bekorga kuyinishmaydi.

### ***Oʻyin mashqlar***

Ukangiz yoki farzan-dingiz nogiron va jismoniy mashqlarga muhtoj, deylik. Bola — bolada! Aytgan mashqlaringizni bir char-chagandayoq bajarmay qoʻyadi. Majbur qilsangiz — yigʻlaydi. Nima qilish kerak? Bola uchun oʻyin — bu bir olam. Oʻyin davomida u charchoq nimaligini bilmaydi. Jismoniy mashqlar oʻyin tarzida bajarilsachi?



Bir oyogʻi nimjon bolaning oʻsha oyogʻini mashq qildirish uchun ukasi yo akasini yordamga chaqiring va birgalashib oʻyin boslang. Yerga chiziq tortib, ikki oyoqni juftlab kim uzoqqa sakrash oʻynang, agar kelishishib nogiron bolaga yetib boʻlmayotgandek holat yaratilsa, yana ham yaxshi. Nimjon oyogʻining



to'pig'iga rezina cho'zma bog'lab, biror yerga mahkamlang va oldiga to'p qo'yib tepdiring. Sharti: bog'lanmagan oyoqni qimirlatmasin. Kuch ishlatilgandagina oyoq to'pga yetsin. Kim to'pni ko'p tepsa, o'sha yutadi. Iloji boricha bola shifotalab oyog'ida yutsin. Kundan-kunga oyog'i kuchli bo'layotganini va hech kim uni yutolmayotganini ta'kidlab boring.



Keyingi o'yin:

Oddiy g'olani yerga yotqizib qo'ying, ustiga bir taxtani o'rtasidan mixlang. Taxtaning uzunligi bir yarim metrdan ikki metrgacha bo'lsin. Taxtaning bir tomoniga ukasini chiqaring yoki yuk qo'ying, bola o'sha oyog'i bilan uni pastga bossin. Qani, kim shu usulda ko'proq yuk ko'tararkin?..

Bolaning bir qo'li ikkinchisidan oriqroq, panjalari yaxshi ishlamaydigan bo'lsa, bu holda birinchi navbatda panjalardagi asab tolalarining ish faoliyatini oshirish kerak. Buning uchun yerga bir quti gugurtni sohib yuboring, kim tezroq terib oladi, deb shart qo'ying.



Kichik narsa ushlaganda asab tolalarining faoliyati kuchayadi. Keyinchalik bug'doy yoki guruch donalarini xontaxta ustiga sochingda, tez terib olish o'ynang, faqat bolaning qo'lida qisqich bo'lsin.

Har bir xonadonda tesha, bolg'a kabi xo'jalik

asbob-anjomlari bor. Bolg‘ani olib, sopining uch tomonidan teshib, ip o‘tkazing. Ipni bola bilagidan o‘tkazib, sopidan ushlating. Shunda bolg‘a harakat chog‘ida nimjon qo‘ldan chiqib ketmaydi. Bola shu bolg‘a bilan mix qoqsin, tesha bilan yer chopsin. Bolg‘ani ipdan chiqarib kim uzoqqauloq-tirish o‘ynang. Uni moddiy rag‘batlantiring. Bolg‘ani uloqtirib shu yerga yetkazsang, shu qo‘l bilan shuncha yerni chopsang, shu vaqt ichida shuncha bug‘doy tersang, mana shu narsa senga sovg‘a, deb uni rag‘batlantiring. Shunda bola siz yo‘qligingizda ham mashqni davom ettiraveradi. Muhimi, nogiron bola nogironligiga ko‘nikib qolmasin, tanasida shu kasallikka qarshi isyon uyg‘onsin. Faqat shundagina biror natijaga erishish mumkin.

## **XOTIMA**

*Men hikoyat va rivoyatlarga, shuningdek, sog'lomlashtirish mashqlariga shunchaki narsalar deb qaramayman. Ularda katta hayotiy haqiqatni ko'raman. Alpomishlar haqida, Rustamlar haqida, Go'ro'g'lilar haqida dostonlar to'qilibdimi, demak, bir gap bor bu xalqda. Bu orzu-havaslar o'z-o'zidan kelgan emas. Men kitobchamda polvonlarimiz haqidagi gurungni boshlab berdim, xolos. Bu haqda jiddiyroq o'ylashni, ukalarim zimmasida qoldiraman. Ularning millat obro'sini, g'ururini yanada baland ko'tarishlariga ham ishonaman.*

*Keyingi paytlarda biz, erkaklar ko'p dashnom eshitadigan bo'lib qoldik. Shoir ham bekorga: «Alpomish tug'ib ber, kelinjon...», deb kuyunmayapti-da, axir. Darhaqiqat, erkak kuch timsolidir. Yurtimizning suluvlari — Kumushlariga yarashiq Otabeklari, Shirinlariga yarashiq Farhodlari, Zuhrolariga yarashiq Tohirlari bo'lsin, deyman.*









**TURSUN ALI MUHAMMAD**

**POLVONNOMA**

*Hikoyalar, rivoyatlar, maqolalar*

Muharrir *A. Akbar*

Rassom *U. Solihov*

Texnik muharrir *Ye. Tolochko*

**Musahhihlar** *G. Azizova, A. Dadaboyev*

Matn teruvchi *M. Yoʻldosheva*

IB №

Bosishga ruxsat etildi..... Bichimi..... Tayms garniturası. Shartlı b.t. ...  
Nashr b.t. ...nuxxada. Shartnoma № 33-2003. Bahosi kelishilgan narxda.